TASVIRIY SAN’AT

6

O‘QITUVCHILAR UCHUN
METODIK QO‘LLANMA

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

Toshkent – 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 5(075.3)
KBK 85.14ya7
V 30

Tuzuvchilar:
N. Vaxabova, Z. Xashimova

Taqrizchilar:

B. Baymetov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti san’atshunoslik fakulteti tasviriy san’at va dizayn kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi, O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a’zosi.

M. Axmedov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tasviriy san’at kafedrasi dotsenti.

B. Yunusova – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi tasviriy san’at va chizmachilik fanlari metodisti.

S. Mansurova – Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 274-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining tasviriy san’at va chizmachilik fanlari o‘qituvchisi.

Sh. Tursunova – Toshkent viloyati Toshkent tumanidagi 15-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining tasviriy san’at va chizmachilik fanlari o‘qituvchisi.

Tasviriy san’at 6 Metodik qo‘llanma [Matn]: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / Noila Vahabova, Zulayxo Xashimova. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 140 b.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-8351-3-9

© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

Tasviriy san’at fanining maqsadi va vazifalari. 4
Tasviriy san’at fanini o‘qitishda fanga oid va tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar 5
Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilariga tasviriy san’at fanidan qo‘yiladigan talablar 6
6-sinf tasviriy san’at fani taqvimiy mavzu rejasi 6
Tasviriy san’at fanining o‘qitish metodologiyasi. 7
1-dars 22
2-dars 25
4-dars 30
6-dars 32
7-dars 36
9-dars 42
10-dars 46
11-dars 52
12-dars 57
14-dars 61
15–16-dars 66
17-dars 71
18-dars 74
19-dars 79
20-dars 86
21-dars 90
22-dars 95
23-dars 100
25-dars 104
26-dars 108
27-dars 114
28-dars 117
29-dars 121
31–32-dars 127
Tasviriy san’at darslarida muzeylar haqida ma’lumot berish 133
Tasviriy san’at atamalarining izohli lug‘ati 135
Tasviriy san’at fanining baholash mezoni 138
6-sinf uchun baholash vositalari 138
6-sinf tasviriy san’at fanidan mavzular bo‘yicha baholash mezonlari 139

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Tasviriy san’at fanining maqsadi va vazifalari

“Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o‘qish va yozish kabi bilsalar, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatdan o‘zib ketadi va ortda qoldiradi”.

(fransuz faylasufi Deni Didro)

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at fanining asosiy maqsadi o‘quvchilarning badiiy-estetik tarbiyasi hisoblanib, bu fan yoshlarni komil inson qilib shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at darslari o‘quvchilarning rasm ishlash malakalarini o‘stiribgina qolmay, balki ularning badiiy fikrlash doirasini kengaytiradi, ijodiy qobiliyatlar, kuzatuvchanlik, ko‘z xotirasini rivojlantiradi. Shuningdek, tasviriy san’at fani o‘quvchilarda milliy istiqlol g‘oyalarini shakllantirishda, ayniqsa, ularni axloq, vatanparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at fanining asosiy vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi:

– o‘quvchilarda tevarak-atrofdagi narsa va voqealarga nisbatan estetik munosabatni shakllantirish va go‘zallikni his qila bilishga, tushunishga hamda hayotga tatbiq etishga o‘rgatish;

– qalam va mo‘yqalam bilan rasm, loy, plastilin, steklar bilan haykal ishlash malakasini shakllantirish;

– narsaning o‘ziga qarab rasmini chizish, xotiradan, tasavvurdan rasm chizish yo‘nalishida ko‘nikma va malakalar hosil qilish;

– o‘quvchilarda tasavvur va tafakkurni o‘stirish;

– borliqni idrok qilishni, rang sezishni, kompozitsion madaniyatni rivojlantirish;

– o‘quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatini o‘stirish;

– o‘quvchilarning badiiy-fikrlash doirasini kengaytirish;

– san’atga nisbatan qiziqishini oshirish va uni sevishga o‘rgatish.

Tasviriy san’atning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni estetik, xususan, badiiy tarbiyalash bilan birga hayotdagi, tabiatdagi, san’atdagi, insonlarning munosabatlaridagi go‘zalliklarni to‘liq idrok etishni shakllantirishdir. Chunki go‘zallik insonlarning aqliga, qalbiga, irodasiga ta’sir etib, ma’naviy dunyosini boyitadi. Hayotga estetik munosabatda bo‘lish ishtiyoqning asosi bo‘lib, mehnatni quvonch manbaiga aylantirishga yordam beradi.

Jamiyatimizning har bir kishisi qaysi sohada ish olib borayotganidan qat’i nazar, go‘zallik va nafosatni ko‘ra olishi, tushuna bilishi kerak. O‘quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida tasviriy san’at fani o‘qituvchisi ularga tabiatdagi go‘zalliklarni, shakl va ranglarning turli-tumanligini ko‘rsatadi. Quvonch, hayajon baxsh etuvchi tabiat go‘zalliklari, so‘z bilan tasvirlab bo‘lmas rang birikmalari uzoq vaqtgacha ularning xotirasida saqlanib qoladi. Manzara, daraxtlar, fasllarning rasmini chizish orqali o‘quvchilar tabiatga ko‘proq qiziqadigan bo‘ladilar. 6-sinf “tasviriy san’at” yangi avlod darsligiga bir-biridan qiziqarli, o‘quvchilarni kreativ ijodga undaydigan mavzular kiritildi. Masalan, fluid art, pop art, “Zentangle”, “Doodling”, mozaika uslubida, siluet, komiks mavzusida rasm ishlash, shuningdek, mayda plastikada milliy obraz yaratish, abstrakt kompozitsiyali maket yasash, turli materiallardan fantastik obrazlar yaratish, kinetik haykal ishlash kabi qiziqarli amaliy ishlar shular jumlasidandir.

Bunday darslar o‘quvchilarning dunyoni keng va atroflicha ko‘ra olishi, ko‘rish orqali taassurot doirasini kengaytirishi, rasm ishlash uslublari haqida aniq va to‘liq

tushunchalar hosil qilishiga yordam beradi. Tasvir ishlash jarayonida o‘quvchilar narsalarning shakli, o‘lchovlari, fazodagi holati, rangi kabilarni diqqat bilan o‘rganadilar.

Yangi avlod darsligiga rangtasvirda turli xil mavzularda kompozitsiya ishlash mavzulari ham kiritildi. Rangtasvir kompozitsiyasi mavzu asosida xotira va tasavvurlardan rasm ishlashdan tashkil topadi. Bunda tanlangan mavzuga ko‘ra uning elementlari qog‘oz yuzasida bir-biriga bog‘liq holda joylashib, yaxlit kompozitsiyani hosil qiladi. Darslikda rangtasvir kompozitsiyasi mashg‘ulotlari asosan tabiat manzaralari, kundalik hayot voqealari, sharq miniatyurasi va badiiy asarga illyustratsiya ishlash kabi mavzularga asoslanadi.

Mavzuli kompozitsiya ishlash jarayonida o‘quvchilar rasmda tasvirlanishi kerak bo‘lgan obyekt bilan tanishadilar. Undagi ba’zi bir narsalarning xomaki chizmalarini ishlaydilar. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga bir mavzudagi bir necha mazmunni tavsiya etadi. Masalan, darslikdagi “Yozgi taassurotlarim”, “Sirk” mavzularida kompozitsiya uchun bir necha eskiz variantlari ishlanadi. O‘quvchilar ulardan birini tanlab, shu asosida kompozitsiya tuzadilar. Mavzu asosida rasm chizishda o‘quvchilar naturaga qarab rasm ishlash, dekorativ kompozitsiya, borliqni idrok etish bo‘yicha olgan bilim va malakalariga tayanadilar.

Mavzu asosida kompozitsiya ishlashda bo‘yoqlardan foydalanish murakkab vazifalardan hisoblanadi. Chunki bunda ko‘rgazmali vosita va metodik usullardan to‘g‘ri foydalanilgan holdagina o‘quvchilarning rangshunoslikka oid bilim va malakalarni to‘g‘ri o‘zlashtirishlariga erishiladi.

Tasviriy san’at fanini o‘qitishda fanga oid va tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar

Fanga oid kompetensiyalar:

1. Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi.
2. O‘z-ozini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi.
3. Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish belgilab berilgan. Amaliy fanlar bloki yo‘nalishidagi fanlar orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ular o‘zlashtirgan bilimlari asosida egallagan ko‘nikma malakalarini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan, **kommunikativ kompetensiya**larni shakllantirishda davlat tili, xorijiy tillarni o‘zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, amaliy mashg‘ulotlarni o‘zaro bajarishda, ijodiy loyiha ishlarini bajarish malakalarini shakllantirishda, yozma va og‘zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirish, amaliy fanlarga oid atamalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o‘rgatish zarur.

Fanlarni o‘qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasi**ni samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o‘quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar)lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy fazilatlarga ega bo‘lish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lish, yangiliklarga intilish va o‘zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga,

jamiyatda ro‘y berayotgan progressiv va innovatsion o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o‘rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fuqarolik burchi, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo‘lish hamda badiiy va san’at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilariga tasviriy san’at fanidan qo‘yiladigan talablar

Kodi	6-sinf
1	**Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasi**
1.1	San’atning usul va yo‘nalishlarini, tarixi va an’anaviy usullarini tahlil qiladi va solishtiradi.
1.2	Manzara janrlarida ishlangan asarlarni tahlil qila oladi va zavqlanadi.
1.3	Miniatyura san’ati, tarixi, maktablari va asarlarini ijodiy tahlil qiladi va zavqlanadi.
1.4	Rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik asarlaridan zavqlanadi.
2	**O‘z-o‘zini asrash va rivojlantirish kompetensiyasi**
2.1	Rangtasvir, haykaltaroshlik va miniatyura usulida amaliy topshiriq bajarishda ish qurollaridan to‘g‘ri foydalana oladi va sanitariya-gigiyena, xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi.
3	**Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**
3.1	Tasviriy san’atdagi tarixiy va mifologik janrga oid rasmlarni grafika usulida ishlaydi.
3.2	Fluid art uslubida abstrakt kompozitsiya yarata oladi.
3.3	Siluet mavzusida rasm ishlaydi.
3.4	Pop art uslubida hayvonlar tasvirini ishlaydi.
3.5	Abstrakt kompozitsiyali maket yasay oladi.
3.6	3D uslubida rasm ishlay oladi.
3.7	“Zentangle” va “Doodling” usulida rasm ishlaydi.
3.8	Haykaltaroshlik, rangtasvir va grafikada harakatdagi odam gavdasini nisbatlar asosida ishlay oladi.
3.9	Miniatyura san’ati asarlaridan nusxa ko‘chira oladi.

TASVIRIY SAN’AT (6-sinf)

Darslar tartibi	Mavzu nomi	Soat	Taqvimiy muddat
	1-chorak		
1-dars	“Yozgi taassurotlarim” mavzusida kompozitsiya ishlash.	1	
2-dars	Kuz manzarasini ishlash.	1	
3-dars	Kuz manzarasini ishlash.	1	
4-dars	Mayda plastikada milliy obrazlar haykalini yasash.		
5-dars	Mayda plastikada milliy obrazlar haykalini yasash.	1	
6-dars	Mifologik mavzuda rasm ishlash.	1	
7-dars	Kuz mavzusida ijodiy natyurmort ishlash.	1	
8-dars	**1-nazorat ishi.** Kuz mavzuda ijodiy natyurmortni rangda ishlash.	1	
9-dars	Fluid art uslubida abstrakt kompozitsiya yaratish.	1	
	2-chorak		
10-dars	Harakatdagi odam tasvirini ishlash.	1	
11-dars	Siluet mavzusida rasm ishlash.	1	
12-dars	Badiiy asarga illyustratsiya ishlash.	1	
13-dars	**2-nazorat ishi.** Siluet mavzusida rasm ishlash.	1	

14-dars	Erkin mavzuda komiks ishlash.	1	
15-dars	Sharq miniatyura san'ati.	1	
16-dars	Sharq miniatyura san'ati.	1	
3-chorak			
17-dars	Sirk mavzusida kompozitsiya ishlash (erkin uslubda).	1	
18-dars	Pop art uslubida hayvonlar tasvirini ishlash.	1	
19-dars	Abstrakt kompozitsiyali maket yasash.	1	
20-dars	3D uslubida rasm ishlash.	1	
21-dars	"Zentangle" va "Doodling" usulida rasm ishlash.	1	
22-dars	Mozaika uslubida tasvir ishlash.	1	
23-dars	Turli materiallardan fantastik obrazlar yasash.	1	
24-dars	Turli materiallardan va texnikalardan foydalanib kinetik haykal yasash.	1	
25-dars	**3-nazorat ishi**. "Doodling" usulida rasm ishlash.	1	
26-dars	Turli materiallardan foydalanib stilizatsiya uslubida haykal yasash.		
4-chorak			
27-dars	Tadbir uchun emblema yaratish.	1	
28-dars	Plakat grafikasi.	1	
29-dars	Koinot mavzusidagi abstrakt kompozitsiyani kompyuter grafikasida chizish va bo'yash.	1	
30-dars	Tasavvurdagi modern avtomobil rasmini ishlash.	1	
31-dars	Plener (ochiq havoda ishlash).	1	
32-dars	Plener (ochiq havoda ishlash).	1	
33-dars	**4-nazorat ishi**. "Mening ixtiroim" mavzusida tasavvurdan rasm ishlash.	1	
34-dars	Ijodiy ko'rgazma.	1	
	UMUMIY	**34**	

Tasviriy san'at fanining o'qitish metodologiyasi

Ma'lumki, hozirgi kunda ta'limni zamonaviy, ilg'or pedagogik, innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlaridan biri ta'lim oluvchilarni o'qitish emas, ularni mustaqil bilim va malakalarni egallashga yo'naltirishdir. Bunda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarning mustaqil ishlariga rahbarlik qilishdan iborat bo'ladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning maqsadi qisqa vaqt davomida o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularga keng va chuqur bilim berish hamda tegishli malakalarni egallashlari uchun shart-sharoit yaratishdan iboratdir.

Mazkur texnologiya ta'lim jarayonini identifikatsiyalash, o'quvchilarning mustaqil ishlashini rivojlantirishni nazarda tutadi va u har bir o'quvchining dinamik rivojini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyaning samaradorligi ko'p jihatdan badiiy ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlab, ularning faolligini oshira olishiga bog'liqdir. Shuningdek, u ta'lim oluvchilarning tasviriy san'at fanidan o'quv-metodik majmualar va axborot texnologiyalari materiallarini mustaqil tahlil etish ko'nikmalarini hosil qila olishi ham muhimdir. U o'quvchilar ta'lim jarayonida erkin fikr yuritishiga, o'qituvchi bilan tortinmasdan munozara qila olishiga, o'z nuqtayi nazarini isbotlashiga imkoniyat va sharoit yaratishi zarur.

Pedagogika metodologiyasi – bu pedagogik bilimlar va uni ishlab chiqarish jarayoni haqidagi ma'lumot.

Pedagogik metodologiya o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z-o'zini boshqarishga, muammoning sabab, oqibat va yechimlarini topishga yo'naltiradi, xatti-harakatning natijalarini tahlil qilishga, voqelikka qanday yondashishga o'rgatadi, o'quvchilarning

bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Shuningdek, motivatsiyaning yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi, pedagogik bilimlarning tarkibi va funksiyalari, pedagogik masalalari, metodologik ahamiyatga ega bo‘lgan boshlang‘ich, asosiy, fundamental, falsafiy, umumiy-ilmiy va pedagogik qoidalar tushuniladi.


Pedagogik metodologiya bu pedagogik nazariyaning boshlang‘ich nuqtalari, pedagogik hodisalarni ko‘rib chiqishda yondashuv tamoyillari va ularni tatbiq qilish usullari, shuningdek, olingan bilimlarni o‘qish, bilimlar tizimidir. Texnologiya va metodlar metodologiyaning asosidir. Texnologiya va metodlarning qo‘llanishida afzalligi, qulayligi, manfaatliligi, ko‘ra bilishning osonligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Manbalarda yozilishicha, ezgulikka erishish ikki shartning bajarilishi – har qanday faoliyat yakunidagi maqsadni to‘g‘ri belgilash va maqsadga erishish chora-tadbirlarini izlab topishga bog‘liqdir. Demak, metodologiyani amalga oshirishda metodlarga asoslanar ekanmiz, faoliyatning metodologik asosini aniqlash hamda maqsadga erishish metod va uslublarini to‘g‘ri belgilash muhim.

O‘quv jarayonida qo‘llanadigan texnologiyalar metodlar uyg‘unligi bilan o‘zaro farq qiladi: “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi”, “O‘qitishni individuallashtirish ta’lim texnologiyasi”, “Modellashtirish ta’lim texnologiyasi”, “Hamkorlik ta’lim texnologiyasi”, “Muammoli ta’lim texnologiyasi”, “Evristik ta’lim texnologiyasi”, “Raqamli ta’lim texnologiyasi” kabi.

O‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan), ko‘lamiga ko‘ra (lokal, modulli, tizimli), kelib chiqish manbaiga ko‘ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan) turkumlanishi asosida innovatsiyalar quyidagicha tasniflanadi:

Interfaol metodlar:



Texnologiya – kerakli natijaga erishish uchun metod va vositalar to‘plami.

Pedagogik texnologiya – muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan,aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijasini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmuni.

O‘qitish texnologiyasi – o‘quv mashg‘ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo‘llanadigan shakl, metod va vositalarni oqilona tanlab olish, o‘qituvchi va o‘quvchining vazifalarini oydinlashtirishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Ta’lim metodlari deyilganda o‘rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etishga doir o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish metodlari yig‘indisi tushuniladi.

Ta’lim metodi – o‘qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar yordamida faqat o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.

Interfaol metod o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ham o‘qituvchi, ham o‘quvchini faollashtirishga yo‘naltirilgan o‘qitish metodlari majmui.

Metodika qat’iy ketma-ketlikka, ilgari o‘rnatilgan reja, tizimga aniq rioya qilish bo‘lib, biror-bir ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi. “Metodika” tushunchasi turli fanlarni o‘qitish bilan ham bog‘liqlikda qo‘llanib, ma’lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, metod va vositalari yig‘indisini ifoda etadi.

Metodologiya – insonlarning yashashi va faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisini o‘zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasi.

Ta’limga joriy etilayotgan Milliy o‘quv dasturining asosiy maqsadlaridan biri innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkonini beradigan o‘qitish tizimini yaratishdir. Milliy o‘quv dasturining mazmuni esa yosh avloddagi tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik va hamkorlik ko‘nikmalarini, ya’ni kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Ta’kidlash joizki, har qanday pedagogik texnologiya va metodlarning natijasi uni qo‘llayotgan o‘qituvchining bilimi, ijodiy va kasbiy mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchining kasbiy mahorati, o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ta’lim muhiti va mavjud imkoniyatlarni inobatga olgan holda to‘g‘ri tushunilgan, tanlangan va qo‘llanganda ko‘zlangan pedagogik maqsadga erishilishi o‘zaro uzviydir. Buning uchun har bir o‘qituvchi avvalo darsini maqsadli tashkil qilishi lozim.

Dars maqsadlariga qo‘yiladigan talablar:

Aniqlik dars so‘ngida o‘quvchilarda hosil bo‘lgan yangi bilimlar, ko‘nikma va malakalarning shakllanishi, rivojlanishini belgilaydi.

Reallik – real imkoniyatlar: o‘quvchilarning yoshi, individual xususiyatlari, sinfdagi o‘quvchilar soni, darsning jihozlanishi, texnik ta’minotga bog‘liq vaziyat.

Diagnostika – maqsadga erishish mumkin bo‘lgan mezonlar.

Darsni maqsadli to‘g‘ri tashkil etish

Tasviriy san’at fanini o‘qitishda darsni qismlarga ajratib, har bir qismni daqiqalarga taqsimlab olish maqsadga muvofiqdir. Chunki amaliy fanlarni o‘qitishda darsning “Amaliy mashg‘ulot” qismi o‘quvchilarning bilim va malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Puxta reja – samarali natijadir. Reja asosida qismlarga ajratib tashkil qilingan darslar qiziqarli va tartibli bo‘ladi. Darsning har bir qismida o‘quvchilar nazariy, amaliy-metodik jihatdan o‘z bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini mustahkamlab boradilar. Eng muhimi, o‘qituvchi va o‘quvchilar 45 daqiqalik vaqtdan samarali foydalanadilar.

№	Dars qismlari	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2	Avvalgi mavzuni mustahkamlash	3 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	8 daqiqa
4	Amaliy mashg‘ulot	22 daqiqa
5	Yangi mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
6	Darsni yakunlash va uyga vazifa berish	5 daqiqa

Interfaol metodlar

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Interfaol metodlar bilan o‘qitish jarayoni optimal tashkil etiladi. O‘quv materiallarini tanlash, ta’lim oluvchilarning kuchiga, o‘zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va hajmini o‘zgartirish ham ta’lim texnologiyasi talablaridan biri. Pedagogik texnologiya o‘z navbatida ta’lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari va diagnostik maqsadlari asosida o‘quv jarayonlari, ta’lim-tarbiya mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir.

Bugungi kunda o‘quv jarayonida pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashga, mustaqil bilim olishlari evaziga ta’lim samaradorligiga erishilmoqda. Ayniqsa, bunday texnologiyalarni qo‘llashda interfaol metodlarni to‘g‘ri tanlab, ulardan o‘rinli foydalana olish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qitish quyidagi izchillikni talab etadi:

1. O‘quvchilarning o‘zlari dars jarayonini rejalashtiradi.
2. O‘quvchilarning o‘zlari belgilangan mavzu o‘quv rejasi asosida shug‘ullanishadi.
3. Ta’lim maqsadlarining ro‘yobga chiqishida o‘quvchilar ham ishtirok etish huquqiga ega bo‘lishadi.
4. O‘quvchilar muhokamalar o‘tkazishadi.
5. O‘qitish metodlarini tanlashda o‘quvchilar ham hamkor sifatida ishtirok etadilar.
6. O‘quvchilarda egallagan bilimlarini boshqalarga ham yetkaza olish malakasi shakllanadi.
7. O‘quvchilar o‘zlari xulosa qiladilar va baholaydilar.

“Tasavvurimdagi ranglar” metodi

Bu metod asosida guruhlar bilan ishlash yotadi.

Guruhlarga bir xil rasm tarqatiladi. Bo‘yash bosqichigacha bo‘lgan manzara janridagi tasvir bo‘lishi kerak. Guruhlarga vaqt beriladi.

Berilgan vaqt ichida bo‘yash bosqichi guruh bo‘lib bajariladi. Bo‘yash turi, rang tanlashda cheklov qo‘yilmaydi!


Metodning maqsadi o‘quvchi o‘ziga yoqadigan, o‘zi uchun ma’qul bo‘lgan fikrda qolishi, uni taqdim qilib, fikrini to‘g‘ri tushuntira olishidan iborat. Muhokama qilish orqali o‘quvchilarni fikr yuritishga o‘rgatiladi.

“Charxpalak” metodi

Yangi mavzu fikr va g‘oyalarni muhokama qilish bilan davom ettiriladi.

Sinf o‘quvchilari 4 tadan kichik guruhlarga bo‘linadi. Musiqa qo‘yiladi. Musiqa tugaguncha aylanma ravishda tasvir chizadilar. Musiqa tugashi bilan tasvir tahlil qilinadi. Tasvir natyurmort asosida bajariladi. Yana vaqt beriladi, barcha o‘quvchilar

birgalikda puantilizm uslubida tasvirga rang beradilar (ya’ni nuqtali bo‘yash). Tayyor bo‘lgan tasvirlar doskaga ilib qo‘yiladi, o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.



“Maxfiy konvert” metodi

“Maxfiy konvert” metodi asosida yangi mavzuga kirib boriladi. O‘qituvchi katta konvertga tayyorlab kelgan tarqatmalar (turli usullarda yozilib, kesilgan harflar) guruhlarga tarqatiladi. O‘quvchilarga biror matn yoki so‘z aytiladi. Berilgan ma’lum vaqt mobaynida guruhlardan harflar orqali matnni chiroyli qilib yozish talab etiladi.

Kichik konvertda turli davlatlarga tegishli bo‘lgan binolar rasmi bo‘ladi. Guruhlar mos shrift tanlab, mamlakat yoki binoning nomini yozadilar. Bu metodda guruhlar orasida maxfiylik bo‘lishi talab etiladi. Guruhlar ishni tez va to‘g‘ri bajarishiga qarab baholab boriladi.



“FIKRIY HUJUM” METODI

Mazkur metod o‘quvchilarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodining asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘lamining kengligiga bog‘liq bo‘ladi.

“Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog‘ida o‘quvchilarning soni 10–15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

“AQLIY HUJUM” METODI

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llanadigan metod sanalib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o‘z tasavvurlari va g‘oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir nechta original yechimlarni tanlash imkoniyati tug‘iladi. “Aqliy hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma’lum qadriyatlarni aniqlash va ularga muqobil bo‘lgan g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

– o‘quvchilar o‘zlarini erkin his etishi uchun sharoit yaratib berish;

– g‘oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo‘yish;

– muammo (yoki mavzu)ni aniqlash;

– mashg‘ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan shartlarni belgilash;

– bildirilayotgan g‘oyalarning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish;

– qog‘oz varaqlari g‘oya (yoki fikr)lar bilan to‘lgandan so‘ng ularni yozuv taxtasiga osib qo‘yish;

– bildirilgan fikrlarni yangi g‘oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash;

– boshqalar tomonidan bildirilgan g‘oya (yoki fikr)lar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– yangi g‘oyalar bildirilayotgan ekan, muammoning yagona yechimini e’lon qilishga shoshilmaslik.

Shuningdek:

– o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan har qanday g‘oya baholanmaydi;

– o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muhit yaratiladi;

– g‘oyalarning turlicha va ko‘p miqdorda bo‘lishiga ahamiyat qaratiladi;

– o‘quvchilarning boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelishiga erishish.

Dars jarayonida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. O‘quvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish.

2. Har bir o‘quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag‘batlantirib boriladi. Bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi. Fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi yangi fikrlarning tug‘ilishiga olib keladi.

3. Har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o‘zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘yilmaydi. Ularning fikrlari baholab borilsa, o‘quvchilar diqqatini shaxsiy fikrini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni muammo bo‘yicha keng fikr yuritishga undash ekanini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

“Qiziqarli sanalar” metodi

“Qiziqarli sanalar” metodida o‘qituvchi doskaga bir nechta sanalarni yozib qo‘yadi. Bu sanalar o‘tilgan mavzular bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Ular tasviriy san’at turi, janri, turli uslub va yo‘nalishlari, rassomlar asarlarining yaratilish yillari bo‘lishi mumkin. Bu metodda aniq bir mavzu va fanlararo integratsiya asosida sanalardan foydalanish mumkin. Mavzu asosida muhim sanalar tanlanadi. Bu metodda muhim sanalardan o‘quvchilarning diqqatini jamlash va yangi mavzuga bog‘lash uchun foydalanish mumkin. O‘quvchilar to‘g‘ri javobiga qarab o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirib boriladi.

“KLASTER” METODI

“Klaster” (g‘uncha, bog‘lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u o‘quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq obyektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Stil g‘oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan “Klaster” metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan o‘quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulot jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar va o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

“Klaster” metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

1. Nimani o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringizning sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boring.
2. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha yozishdan to‘xtamang. Agar ma’lum muddat biror-bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilguncha davom ettiring.
3. Yozuvingizning imlosi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang.
4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni, bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiling. G‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.

Tasviriy san’at fanini o‘qitishda STEAM va STEM

Bugungi kunda ta’lim sohasida pedagogik innovatsiya va ta’lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi o‘qituvchi faoliyatining yangilanishini talab etmoqda. Amaliy fanlar o‘qituvchilarining asosiy maqsadi fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish, STEAM (fan, texnologiya, injiniring, san’at va matematika – science, technology, engineering, art and mathematics) yondashuvi asosida fanlar integratsiyasini kuchaytirish, har bir o‘quvchini ijodkorga aylantirishga, turli manbalar

(adabiyotlar, eksperimentlar va h.k) yordamida mustaqil bilim egallash ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘quvchilarda ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishga, yashirinib yotgan motivatsiyalarini ro‘yobga chiqarishga e’tiborni qaratish hamda bilim olishga qiziqtirishdan iborat.

STEAM ta’limining 10 ta afzallik tomoni bor:

1. Ta’lim berishni o‘quv fanlari bo‘yicha emas, balki “mavzu”lar bo‘yicha integratsiyalab olib borish.

STEAM ta’limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo‘lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyoti va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik sohasi bilan bog‘liq kasblarga bo‘lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

2. Ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash.

– STEAM ta’limida amaliy mashg‘ulotlar yordamida bolalarga ilmiy-texnik bilimlardan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o‘quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va rivojlantiradi.

3. Tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish.

– STEAM dasturi bolalar kundalik hayotda duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan, bolalar tez yuradigan mashina modelini yig‘adilar, so‘ngra uni sinovdan o‘tkazadilar. Birinchi sinovdan so‘ng kutilgan natijaga erishilmasa, buning sabablari haqida o‘ylaydilar va topadilar. Balki, g‘ildiraklarning kattaligi yoki aerodinamikasi to‘g‘ri kelmagandir. Har bir sinovdan so‘ng ular kamchiliklarni bartaraf etib boradilar.

4. O‘z kuchiga ishonish hissining ortishi.

Bolalar ko‘prik qurish, mashina va samolyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadiga yaqinlashib boradilar. Har bir sinovdan so‘ng modelni takomillashtiradilar. Oxirida barcha muammolarni o‘z kuchlari bilan yengib, maqsadga erishadilar. Bu bolalar uchun ruhlanish, g‘alaba va quvonch demakdir. Har bir g‘alabadan so‘ng ular o‘z kuchlariga yanada ishonadilar.

5. Faol kommunikatsiya va jamoada ishlash.

STEAM dasturi faol kommunikatsiya va jamoada ishlash bilan farqlanadi. Muloqot davrida o‘z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirish va taqdimot o‘tkazishni o‘rganadilar. Bolalar doimo o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqotda bo‘ladilar. Ular jarayonda faol qatnashsalar, mashg‘ulotni yaxshi eslab qoladilar.

6. Texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarni rivojlantirish.

Boshlang‘ich ta’limda STEAM ta’limining vazifasi o‘quvchilarning tabiiy va texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. Bu ishni sevib bajarish, qiziqishlarni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

STEAM mashg‘ulotlari dinamik va qiziqarli bo‘lganidan bolalar mashg‘ulot paytida zerikmaydilar va vaqtning qanday o‘tganini sezmay qoladilar.

7. Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv.

STEAM ta’limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa), muhokama, dizayn, qurish, sinovdan o‘tkazish va rivojlantirish. Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvining asosi hisoblanadi.

8. Ta’lim va karyera orasidagi ko‘prik.

Turli xil baholashlarga ko‘ra, hozirgi kunda talabgor eng ko‘p bo‘lgan 10 mutaxassisdan 9 tasida aynan STEAM bilimlari zarur bo‘ladi. Bunday kasblarga muhandis-kimyogarlik, neft bo‘yicha muhandislik, kompyuter tizimlari analitikligi;

muhandis-mexaniklik, muhandis-quruvchilik, robototexnik, yadro meditsinasi kabilar kiradi.

9. Bolalarni texnologik innovatsion hayotga tayyorlash.

STEAM ta'limi bolalarni texnologik rivojlangan dunyoda yashashga tayyorlaydi. Keyingi 60 yil davomida texnologiyalar jadal sur'atda rivojlandi.

10. STEAM ta'limi maktab dasturlariga qo'shimcha sifatida qo'llanadi.

STEAM dasturlari 7–14 yoshdagi o'quvchilarning muttasil ravishda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga qiziqishini orttiradi. Masalan, tasviriy san'at darslarida fasllarga oid tabiatning ko'rinishi o'rganilganda, doskada bu mavzu chizib tushuntirilsa, STEAM to'garaklarida o'quvchilar tabiatning fasllarga oid manzaralarini, daraxtlar, barglar va tabiat elementlarining ranglarini anglagan holda ularni modellashtirish va loyihalash orqali applikatsiyalarini yasaydilar va o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. O'quvchilar o'zlari ko'rmagan yoki eshitmagan atamalarni har doim ham tez anglab yetmaydilar. Masalan, kuzda barglarning sarg'ayishi (kuzda barglarda xlorofill ishlab chiqarish to'xtaydi va u tezda rangini o'zgartiradi).

STEAM mashg'ulotlarida ular qiziqarli tajribalar o'tkazganlarida bu atamalarni osongina tushunib olishlari mumkin.

Demak, xulosa qilib aytganda, STEAM ta'limi beshta sohaning yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. STEAM beshta fanning har birini alohida o'rganish o'rniga, ularni yagona o'quv tizimiga birlashtiradi.

"STEM" YONDASHUVI

STEM maktab o'quvchilarini o'qitishning yangi metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi. U bolalarni bir vaqtning o'zida to'rtta fan – tabiiy fanlar (Scince), texnologiya (Technology), injenerlik san'ati (Engineering) va matematika (Math) bo'yicha o'qitish tizimiga asoslangan. Bunda amaliy va ko'ngilochar loyihalar mashg'ulotlari yordamida saboq beriladi.

STEM fanlar bo'yicha emas, balki "mavzu"lar bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir.

STEM ta'limida amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash o'rgatiladi. Har bir darsda ular zamonaviy industriyaning mashg'ulotlarini ishlab chiqadi, barpo qiladi va rivojlantiradi.

Ko'p yillar davomida o'quvchilar fan, texnologiya, muhandislik va matematikani maktabda to'rtta alohida fan sifatida o'rganishgan. Biroq **STEM** ushbu to'rt yo'nalish o'rtasidagi aloqalarga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Agar biz haqiqiy hayot misolini ko'rib chiqsak, fan texnologiya, muhandislik va matematikaga tayanadi. Muhandislik ilmiy kashfiyotlar, matematikani qo'llash va texnologiyadan foydalanishga bog'liq.

Intuitiv bilim

Intuitiv bilim – bu avvalgi olgan bilimlariga tayangan holda, o'tgan tajribalarga asoslanib yoki muvaffaqiyatsizlik va xatolar tufayli, intuitiv ravishda ushbu fikrni rivojlantirish mumkin bo'lgan faoliyat bilan bog'liq bo'lgan har qanday narsaning muvaffaqiyatsiz bo'lishi yoki noto'g'ri harakat qilishi mumkin bo'lgan vaqtni bilgan holda amalga oshiriladi.





Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilar ko‘pincha intuitiv bilimlariga asoslanib tasvir ishlaydilar. Masalan, zentangl naqshini ishlash jarayonida o‘quvchi avvalgi olgan bilim, ko‘nikmalarga asoslanadi va chiziq, shakllar orqali naqsh yaratadi.

Tasviriy san’at fanini o‘qitishda kreativ yondashuv

Tasviriy san’at fani o‘qituvchilarining asosiy vazifasi o‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishdir.

Kreativlik (ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat.

Kreativlik o‘quvchining yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi.

Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, tasavvur, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi.

O‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda:

– o‘quvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

– o‘quvchilar ijodiy fikrlashi uchun qulay imkoniyat yaratish, ular bayon qilgan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir o‘quvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;

– o‘quv jarayonini o‘quvchi shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

– o‘quvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undashdan iborat.

Amaliy ko‘nikma va malakalarning rivojlanishida fanlararo hamkorlik tashkil etish

Bugungi kunda ta’lim sohasida pedagogik innovatsiya va ta’lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi o‘qituvchi faoliyatining yangilanishini talab etmoqda. Amaliy fanlar o‘qituvchilarining asosiy maqsadi fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarda **kreativlik**ni rivojlantirish, turli manbalar (adabiyotlar, eksperimentlar va h.k.) yordamida mustaqil bilim egallash ko‘nikmalarni rivojlantirishga, o‘quvchilarda ta’lim olish-

ga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishga, yashirinib yotgan motivatsiyalarini ro‘yobga chiqarishga e’tiborni qaratish hamda bilim olishga qiziqtirishdan iborat.

Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda 3 ta bosqich muhim hisoblanadi

Birinchi bosqich – idrok etish. Idrok etish aniq maqsadga yo‘naltirilgan jarayondir.

Ikkinchi bosqich – o‘quv materialini anglab yetish. U ma’lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va tahlil qilishdan iborat.

Uchinchi bosqich – eslab qolish va mustahkamlash. O‘zlashtirilgan bilimlarni uzoq vaqt davomida saqlab qolish va bilimlarni amaliyotda qo‘llashdan iborat. Bu borada integratsiya darslari samarali natija beradi.

“Namoyish” metodi

Bu metodda ta’lim sifatini oshirish uchun o‘quvchilarga yangi mavzuni tushuntirish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish samarali natija beradi.

O‘qituvchi dars jarayonida faqat mavzuga va o‘quvchilar o‘rgangan materialga mos keladigan video qismlarni olishi kerak.

Videodars darsning bir bo‘lagi bo‘lishiga qaramasdan, o‘quvchini idrok qilishga o‘rgatadi va o‘rganganlaridan amalda foydalanish istagini yuzaga chiqaradi, o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishni kuchaytiradi va olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish layoqatini egallashga yordam beradi.



Masalan, o‘qituvchi “Tasviriy san’atning turlari” mavzusini tushuntirish jarayonida videoroliklardan foydalansa, o‘quvchi mavzuni tez va oson qabul qiladi, o‘rganganlari uzoq vaqt xotirasida qoladi.

“Videotopishmoq” metodi

So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari yordamida ta’lim jarayonini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Videotopishmoq” metodida o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlaydilar va jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etadilar, o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar. Tasviriy san’at darslarida “Videotopishmoq” metodini qo‘llash samarali natija beradi.



Masalan, o‘qituvchi natyurmort, manzara va boshqa janrlarni ishlash jarayoni videosini ko‘rsatadi va o‘quvchilardan bu jarayonlar tasviriy san’atning qaysi janriga mansub ekanini so‘raydi.

“Xotira” metodi

Bu metodda guruhlar bilan ishlanadi. Bunda o‘qituvchi tayyorlab kelgan tasvir ko‘rsatiladi va ularga ta’rif beriladi. Guruhlar doskadagi tasvirni diqqat bilan kuzatadilar. So‘ng tasvir berkitib qo‘yiladi. Guruhlarga shu tasvirning nusxalari tarqatiladi. Guruhlarga ma’lum vaqt beriladi. Vaqt tugagach o‘quvchilar doskadagi tasvir haqida to‘g‘ri ma’lumot berishlari lozim. Metod yakunida doskadagi tasvir bilan solishtiriladi. Tasvir mavzuga mos ravishda tayyorlanadi.

“Plener amaliyoti” metodi

“Plener amaliyoti” metodi bu – tabiat qo‘ynida manzaraga qarab rasm ishlash.

Bu metod fasllarga oid mavzularda qo‘llanishi maqsadga muvofiqdir. Bu mavzularni o‘tish samaradorligi, shubhasiz, o‘quvchilarning tabiat haqidagi tasavvurlarining teranligi bilan bog‘liq. Tabiat insonlar uchun go‘zallik va quvonch manbai bo‘lib kelgan. Sinf xonasidagi darsga nisbatan bolalarni sayohatga olib chiqish ularning kayfiyatlariga, his-tuyg‘ulariga va ijodiy ishlashlariga ijobiy ta’sir qiladi. Shu sababli ham yuqoridagi mavzular bo‘yicha dars o‘tishda uni sayohat usulida o‘tkazishni aniq tartibda rejalashtirib olish zarur. Albatta, sayohat davomida o‘rganiladigan ma’lumotlar 45 daqiqaga mo‘ljallab tuziladi.

“Breynrayting” metodi

Bu metodni qo‘llashda barcha g‘oya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa o‘z fikr va g‘oyalarini og‘zaki bayon etishga qiynaladigan ba’zi o‘quvchilar uchun qulaylik yaratadi. O‘quvchilar tomonidan yozilgan fikr va g‘oyalarning imloviy va uslubiy xatolariga e’tibor qaratilmaydi hamda fikrlar orasida keyinchalik xayolga kelgan fikrlarni yozish uchun bo‘sh joylar ham qoldiriladi. O‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin, mustaqil ifoda etish topshiriladi. G‘oyalar tahlili keyinroq o‘tkaziladi. Bu metoddan foydalanganda muammoni yechish variantlari imkon qadar ortadi.

“Intervyu” metodi

Bu metoddan o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish mumkin. Boshlang‘ich sinflarda guruh vakillari chiqib, bir-birlari bilan tanishib oladilar. (Masalan: men “Dunyo bo‘ylab” kanali muxbiri (familiya, ismi) man.)

So‘ngra guruh vakillari bir-biriga o‘tilgan mavzu yuzasidan qiziqarli savollar berishadi. Bu metod ishtirokchiga dadillik hissini beradi, og‘zaki nutqi rivojlanadi.



Ishtirokchilar bir-birining fikrini qo‘llashi, tanqidiy munosabatda bo‘lishi va fikrini asosli faktlar bilan himoya qilishi nazorat qilib turiladi. Tanqidiy fikrlash o‘z-o‘zini baholashni ham o‘z ichiga oladi.

“Kollaj” texnikasi

Kollaj (fransuzcha “collage” – yelimlash, yopishtirish) – tasviriy san’atdagi texnik usul. Biror-bir asos materialga undan rang va sifati bilan farqlanuvchi materialni yopishtirib asar yaratish, shuningdek, shu usulda yaratilgan san’at asari ham “kollaj” deb ataladi. Asosan grafikada asarning o‘ziga xos ta’sirchanligini kuchaytirishda qo‘llanadi, rang-barang, turli materiallarning favqulodda uyg‘unligi ta’minlanadi. Kollaj kubizm, futurizm va dadaizm vakillari tomonidan rasman ijodiy tajriba sifatida kiritilgan. Keyinchalik rangtasvirda ham kollaj qisman qo‘llangan. O‘zbek rassomlari T. Mirjalilov va boshqalar ham kollaj usulida asarlar yaratganlar.

O‘qituvchi sinf doskasiga vatman qo‘yadi. Guruhlarga yangi mavzu yuzasidan vazifalar, ya’ni kompozitsiya elementlarini bajarish ishi beriladi. Guruhlar bajargan tayyor ishlarini vatmanga yopishtiradilar. Shu tariqa yangi mavzu yuzasidan umumiy kompozitsiya ishlanadi.

Bu texnikani 6-sinf yangi avlod darsligiga kiritilgan “Kuz manzarasi”, “Sirk sahnasida”, “Yozgi taassurotlarim” mavzusida qo‘llash mumkin.

“3 soniya” metodi

“3 soniya” metodi asosida o‘tilgan mavzu takrorlab olinadi.

O‘quvchilarga o‘tilgan mavzu asosida savol beriladi, ular belgilangan vaqt ichida javob qaytaradilar. Javobni o‘ylab turish uchun 3 soniya vaqt beriladi. Javob topilmasa, berilgan savol raqibga o‘tib ketadi. Bundan tashqari, o‘zlari tuzib kelgan savollarni ham bir-birlariga beradilar.

“Meni qiziqtiradi” metodi

Bu metod avvalgi dars mavzularini takrorlash jarayonida qo‘llanadi.

O‘quvchilar o‘tilgan mavzu asosida atrofimizdagi narsalarni xayolan kuzatadilar va savol tuzadilar. Tuzgan savollarini bir-birlariga beradilar.

“Qiziqarli geografiya” metodi

Bu metodda guruhlar bilan ishlanadi. Dars geografiya faniga bog‘lanadi. Mavzuga oid tasvir, masalan, shahar gerblari va shaharning ko‘zga ko‘ringan haykaltaroshlik namunasi ko‘rsatiladi. Har bir guruh shahar yoki mamlakat nomini yoki u qayerda joylashganini topadilar. Javoblar uchun doska taxtasiga maxsus qog‘ozchalar yopishtirilib boriladi. Tasvir mozaika shaklida ham berilishi mumkin. Tasvir javoblardan tuzilgan bo‘ladi. O‘yin oxirida shu davlatning ko‘zga ko‘ringan binosi, geografik kartasi, bayrog‘i yoki gerbi va hokazo tasvirlari kelib chiqadi. Tasvir geografik ahamiyatga ega.


“Tasvirni aniqlang” metodi

Guruhlarga 3–5 ta yoki undan ko‘proq rasmlar tarqatiladi. Ikkala guruh uchun bir xil rasm bo‘lishi lozim.

Bu rasmlarning qiziqarli tomoni chala chizilgan rasmlar. Guruhlar bu tasvirlarda nima chizilganligini aniqlaydilar.

Ma’lum vaqt beriladi.

Guruhlar javobi o‘qituvchining mana shunday tasvirlari bilan birga solishtirilib, javoblar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi aniqlanadi.



“Loyiha” metodi

Bu metodga o‘quvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida birorta mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishi asos hisoblanadi. Bu metodda o‘quvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish, natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyihani ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruh holida bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha guruhning birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bunday topshiriqlar mustaqil reja tuzishni amalga oshirishda yaxshi samara beradi. Loyihaviy topshiriqlarni bajarish uchun o‘qituvchidan ko‘rsatish, tushuntirish, izohlash talab etilsa, o‘quvchilarga asoslar, dalillar, materiallar to‘plash, o‘z loyihalarini ishlab chiqish topshiriladi.

“Modellashtirish” texnologiyasi

Modellashtirish” texnologiyasi loyihalashga yaqin tursa-da, tub mohiyatiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Biror obyektni modellashtirish deganda uning xossa va xususiyatlarini matematik munosabatlar yoki mantiqiy ifodalar orqali ifodalash tushuniladi. Modellashtirish texnologiyasi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan nizomlar, ta’riflar, modellarni yaratish va tadqiq etish usullari, vositalari to‘plamini tashkil etadi. Modellashtirish tadqiqotchilik modellarini yaratish va o‘rganishdan iborat.

Modellashtirish texnologiyasini kompozitsiya bobidagi transport mavzularida qo‘llash mumkin. O‘quvchi(guruh)larga geometrik shakllar tarqatiladi. Vazifa: berilgan geometrik shakllar asosida o‘zingiz yoqtirgan tasvir modelini yasang.

“CSMART” METODI

Insoniyat tarixidagi katta muvaffaqiyatlar o‘z vaqtida to‘g‘ri rejalashtirilgan va erishilgan maqsadlar natijasi bo‘lgan.

CSMART metodi qo‘yilgan real maqsadga qanday erishish usullarini o‘rgatadi. CSMART – bu orzuga yetishishning zamonaviy, samarali, ilmiy o‘rganilgan, natijali metoddir.

Hayotimizda maqsad qo‘yish va unga erishish katta o‘rin tutadi. Maqsadni to‘g‘ri qo‘ya bilmaslik oqibatida insonlar hayoti boshqara olmaydigan tartibsiz voqea-hodisalar ketma-ketligidan iborat bo‘lib qolishi mumkin. O‘qituvchi darsga qo‘ygan maqsadiga erishishi uchun nimalar kerak?

Albatta, avval darsga aniq maqsad qo‘yishi kerak, lekin bu yerda ham anchagina kutilmagan ziddiyatlar bo‘ladi. Lekin eng asosiysi bu maqsadning o‘zi to‘g‘ri qo‘yilishidir. Buning uchun turli usullardan foydalanish kerak.

CSMART bu inglizcha akronim bo‘lib, maqsadni to‘g‘ri tushunib yetish va unga erishishga yordam beruvchi, o‘ta samarali metod hisoblanadi.

CSMART texnikasi o‘lchamli maqsadni qo‘yish va uni tasvirlab berishdir. Bu ko‘pincha ta’limning “Loyihalash”, “Modellashtirish” metodlarida uchraydi. Shuni nazarda tutish kerakki, **CSMART** ijodiy faoliyatga va aniq natijaga yo‘naltirilishi kerak. CSMART metodi ham turli metodlar kabi o‘qituvchining darsga qo‘ygan maqsadiga erishishi uchun xizmat qiladi.

CSMART metodi qachon paydo bo‘lgan?

Eng birinchi bo‘lib **CSMART** uslubini 1981-yili Jorj Doran “There’s a S.M.A.R.T. way to write management’s goals and objectives” maqolasida izohlab bergan. Bu uslub o‘tgan 10 yil mobaynida internet tarmoqlarida keng muhokamaga sabab bo‘ldi. Shu davrda o‘qituvchilar CSMART metodining ta’limda natijaviylikka erishish imkoniyatlarini isbotlab berdilar. CSMART metodi insonlarga ma’lum chegaradan chiqib ketmagan holatda maqsadga erishishda zarur bo‘lgan bosqichlardan o‘tib borishiga yordam beradi. Shuningdek, bu metod kerakli resurslar, erishilayotgan natijalar va sarflanayotgan vaqt ustidan nazorat qilish imkoniyatini beradi.

CSMARTning mezonlari:

C – challenging (yetarli darajada murakkablik);

S – specific (konkretlik);

M – measurable (o‘lchanish mumkinligi);

A – achievable (erishish imkoniyati);

R – relevant (dolzarblik);

T – time-bound (muddatlar bo‘yicha aniqlik).

Bu metod juda yaxshi, lekin topshiriqlar oldindan belgilangan bo‘lishi kerak.

CSMART metodining afzalligi:

– aniq maqsadga erishish;

– amaliy va aniq maqsadga erishishning baholanishi;

– o‘quvchilar o‘rtasida motivatsiyani oshirish;

– topshiriq berganda o‘zaro muloqotni soddalashtirish;


– vaqtni tejash va natijaga erishish;

– o‘quvchi o‘zining shaxsiy muammolarida ham maqsadni to‘g‘ri qo‘ya bilishi;

– o‘quvchida kreativlikni o‘stirish.

1-dars


Tashkiliy qism	Dars mavzusi	“Yozgi taassurotlarim” mavzusida kompozitsiya ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga berilgan mavzu bo‘yicha kompozitsiya ishlash usullarini o‘rgatish va bu bo‘yicha ularda tushuncha hosil qilish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarning tabiatga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish, ularning ish joylarini to‘g‘ri tashkil qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o‘rgatish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning tasvirni bo‘yash malakalarini rivojlantirish
	CSMART maqsadi 	**C –** o‘quvchi kompozitsiya turlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi berilgan mavzu bo‘yicha kompozitsiyani to‘g‘ri tuza oladi. **M –** o‘quvchi kompozitsiya chizish jarayonida perspektiva qoidalariga va o‘zaro nisbat o‘lchamlariga rioya qiladi. **A** – o‘quvchi chizish jarayonida kompozitsiya elementlarini to‘g‘ri tasvirlay oladi. **R** – o‘quvchi bo‘yash jarayonida kompozitsiya elementlariga to‘g‘ri rang bera oladi. **T** – o‘quvchi bo‘yash jarayonida yorug‘-soya qonuniyatiga amal qiladi.
	Dars turi	Yangi bilim beruvchi
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Intervyu” metodi “Breynrayting” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	Darslik, rasm daftari, qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, suv, maxsus mo‘yqalamlar, palitra
	Sinf doskasining bezagi	 *Mavzuga oid reproduksiyalar* 
	Atamalar	Kompozitsiya, perspektiva, nisbat, yorug‘-soya
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning ta’til davomida bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	Qadrli o‘quvchilar! Siz 5-sinfda “Tasviriy san’at” darsligi orqali “Grafika”, “Haykaltaroshlik”, “Rangtasvir” va “Kompozitsiya” mavzulari bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlarni o‘rgandingiz. Grafik tasvirlar ishlash, loy va plastilindan hajmli bo‘rtma va dumaloq haykallar yasash, chizilgan tasvirlarga rang berish, mavzu asosida kompozitsiya tuzish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni egalladingiz.

		6-sinfda ham bir-biridan qiziqarli mavzularni o‘rganish bilan birga rasm chizish va haykal ishlash, ijodiy kompozitsiyalar tuzish bo‘yicha yangi ko‘nikmalarni hosil qilasiz.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni  **“Namoyish” metodi**  **“Breynrayting” metodi** 	“Yozgi taassurotlarim” mavzusida kompozitsiya ishlash. **“Aqliy hujum” metodi:** – Kompozitsiya deb nimaga aytiladi? – Kompozitsiyaning necha turi bor? O‘quvchilarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi. “Kompozitsiya” lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, *badiiy asarning qurilishi, g‘oyasi, xarakteri* degan ma’noni bildiradi. “Kompozitsiya” so‘zining ma’nosi *tasvir ifodasini tuzmoq, shakl yaratmoq, tasvirlangan shakllarning o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtirmoq, umumiylikka olib kelmoq, ularga badiiy mazmun ifodasini singdirmoqdir*.  O‘quvchilarga videolavha yoki slaydlar orqali yozgi ta’til, dam olish turlari namoyish qilinadi. Mavzuga oid reproduksiyalar bilan tanishtiriladi. Shuningdek, darslik bilan ishlanadi. Darslikda o‘quvchilar uchun mavzuga oid rasm namunalari va videorolik internet havolasi berilgan. Shu havola orqali chizish usullari ko‘rsatilib, tushuncha beriladi. **https://www.youtube.com/watch?v=NMjbXPsKFzg** So‘ngra “Breynrayting” metodidan foydalaniladi. Bu metodda o‘quvchilar yozma tarzda yozgi dam olish davrlarini bayon qiladilar va yozgan matnlari asosida kompozitsiya ishlaydilar.
	Amaliy ish  	Amaliy ishdan avval o‘quvchilar darslikda berilgan ish bosqichlari bilan tanishadilar:  

Asosiy qism









So‘ngra mustaqil ravishda o‘zlari xohlagan uslubda berilgan mavzuga oid kompozitsiya ishlaydilar.

O‘quvchilarga yordam sifatida tarqatma materiallar berish mumkin.









	Yangi darsni mustahkamlash	
Yakuniy qism	“Atamalar bahsi” metodi	*Kompozitsiya, perspektiva, nisbat, yorug‘-soya* so‘zlarining ma’nosini ayting, ularni izohlang.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Mavzu bo‘yicha istalgan uslubda kompozitsiya ishlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

2-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Kuz manzarasini ishlash		
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga kuz manzarasini ishlash usullarini o‘rgatish va ularda tushuncha hosil qilish		
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarning tabiatga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish, ularni ish joylarini to‘g‘ri tashkil qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o‘rgatish		
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning obyektlarni to‘g‘ri tahlil qilish hamda tasvirni bo‘yash malakalarini rivojlantirish		
	STEAM maqsadi: STEAM	**S** (science) – tabiiy fanlar **T** (technology) – texnologiya **E** (engineering) – muhandislik **A** (art) – san’at **M** (math) – matematika		
	Dars turi	Aralash		
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Aqliy hujum” metodi “Taqdimot” metodi		
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar		
	Dars jihozi	Darslik, rasm daftari, qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel bo‘yog‘i, mo‘yqalamlar, suv idish, rangli qog‘ozlar, yelim, qaychi		
	Sinf doskasining bezagi		*Mavzuga oid reproduksiyalar*	
	Atamalar	Manzara, applikatsiya, mozaika		
	DARSNING BORISHI			
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini 5 ta kichik guruhga bo‘lish.		

<table>
<tr><td rowspan="3">Tashkiliy qism</td><td></td><td>Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.</td></tr>
<tr><td>Uy vazifasini so‘rash va baholash</td><td>O‘quvchilarning avvalgi mavzu bo‘yicha bajargan amaliy ishlari tekshiriladi va baholanadi. “Yozgi taassurotlarim” mavzusida matn yozish va shu matn asosida kompozitsiya ishlash topshirig‘i berilgan edi. Eng ma’noli matn va eng chiroyli kompozitsiya bajargan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.</td></tr>
<tr><td>Avvalgi darsni mustahkamlash</td><td>Avvalgi mavzu yuzasidan “Aqliy hujum” metodi orqali guruhlarga savollar beriladi:
– Kompozitsiya deb nimaga aytiladi?
– Kompozitsiyaning necha turi bor?
– Komponovka nima?
– Eskiz nima?
– Etyud nima?
Guruhlarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.</td></tr>
<tr><td></td><td colspan="2">Darsning maqsadli yoritilishi</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Asosiy qism</td><td>Yangi mavzu bayoni

“Namoyish” metodi




O‘rol Tansiqboyev


“Mening qo‘shig‘im”</td><td>Sinf doskasiga sana, mavzu yoziladi. “Kuz manzarasini ishlash”

O‘quvchilarga slaydlar orqali kuz manzarasi haqida ma’lumot beriladi.
O‘qituvchi:
– O‘lkamizda oltin kuz fasli. Kuz faslida daraxtlarning barglari sarg‘ayib, moviy, qizil rangga kiradi. Tabiat oltin tusda tovlanadi. Rassomlar bu go‘zallikni mahorat bilan tasvirlaydilar.


“Kuzgi manzara”.
G‘. Abdurahmonov.


“Oltin kuz tarovati”.
Akmal Nur.

Manzara − ma’lum bir joyning ko‘rinishi, tasviri. Manzara tasviriy san’at janri hisoblanadi. Manzarada tabiat, dengiz ko‘rinishlari, daraxtzorlar, qirlar, shaharlar, qishloqlarning qiyofasi, umuman, turli joylarning tasviri orqali kishining his-tuyg‘ulari badiiy obrazlarda ifodalanadi.
O‘zbekistonda O‘rol Tansiqboyev manzara janridagi jozibador asarlari bilan mashhur.
O‘rol Tansiqboyev ijodining o‘ziga xos tomoni ona Vatanga muhabbat, uni ulug‘lash, O‘zbekistonning go‘zal va betakror tabiatini manzara asarlarida kuylash edi. Shuning uchun O‘rol Tansiqboyevni “Manzara kuychisi” deb atashadi.
Perspektiva qonuni – manzara chizganda qismlarni to‘g‘ri tasvirlay bilish, eng yaqindagi narsalar birinchi qismda, o‘rtadagi narsalar o‘rta qismda, uzoqdagi narsalar orqa qismda joylashishi, narsalar uzoqlashganda kichrayib borishi.</td></tr>
</table>

Asosiy qism




“Tog‘ manzarasi”



“Shahar manzarasi”






Manzara ishlash jarayonida **chiziqli perspektiva** qoidasi:

1. Ufq chizig‘i.
2. Tasvirning bosh nuqtasi.
3. Bosh ko‘rish masofasi.
4. Oraliq masofadagi nuqtalar.


Manzara ishlash jarayonida **havo perspektivasi** qoidasi: manzarani bo‘yash jarayonida old qismdagi tasvirlar to‘q rangda, o‘rta qismdagi tasvirlar o‘rtacha rangda, orqa qismdagi tasvirlar och rangda bo‘yaladi.






Shuningdek, manzara ishlash jarayonida **komponovka**ga ham e’tibor beriladi.

Manzara janrida tabiat, shahar, industrial, interyer ko‘rinishlari tasvirlanadi.

Asosiy qism	Amaliy ish   “S” (tabiiy fanlar)	Amaliy ishdan avval o‘quvchilar darslikdagi ish bosqichlari bilan tanishadilar. **Eslatma:** kuz faslini tasvirlashda iliq ranglardan foydalaniladi.  – sariq – pushti – zarg‘aldoq – qizil O‘quvchilarga barcha ma’lumotlar berilgach, amaliy ish uchun guruhlarga o‘z yo‘nalishi bo‘yicha vazifa beriladi. “S” (tabiiy fanlar) guruhiga: kuz faslida tabiatning o‘zgarishi haqida ma’lumot bering. O‘quvchilar kuz faslidagi tabiat o‘zgarishi haqida ma’lumot beradilar (masalan, kuzda barglarning sarg‘ayishi (kuzda barglarda xlorofill ishlab chiqarish to‘xtaydi va u tezda rangini o‘zgartiradi, ba’zi qushlarning janub tomon uchib ketishi, kuzgi mevalar va ularning shifobaxshligi haqida so‘zlab beradilar).
	 “T” (texnologlar)  “E” (muhandislar)	“T” (texnologlar) guruhiga: “Kuz” mavzusida applikatsiya yoki mozaika ishlash.   “E” (muhandislar) guruhiga: “Kuz” faslining bir nechta eskizlarini ishlash. 

<table>
<tr><td rowspan="3">Asosiy qism</td><td>
“A” (san’at)</td><td>“A” (san’at) guruhiga: “Kuz” faslini rangtasvirda ishlash.
 
“M” (matematika) guruhiga: kuzgi barglarning geometrik shakllarini tahlil qilish.
 </td></tr>
<tr><td>
“M” (matematika)</td><td></td></tr>
<tr><td colspan="2">Yangi darsni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Yakuniy qism</td><td>“Taqdimot” metodi</td><td>Yangi mavzu guruhlarning bajargan ishlari – “taqdimoti” orqali mustahkamlanadi.</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Mavzu bo‘yicha istalgan uslubda kuz manzarasini ishlash
 
 </td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

4-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Mayda plastikada milliy obrazlar haykalini yasash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga mayda haykaltaroshlik haqida ma’lumot berish va plastilindan qo‘zichoq haykalini yasash usullarini o‘rgatish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning atrof-muhitga, jamiyatda bo‘layotgan yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish, shuningdek, ularda o‘lchash, chamalash va modellashtirish qobiliyatlarini shakllantirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning berilgan mavzu bo‘yicha haykal ishlash malakalarini rivojlantirish. Ularning dumaloq haykal ishlash jarayonida ish qurollaridan to‘g‘ri foydalanish va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish malakalarini shakllantirish
	CSMART maqsadi 	**C –** o‘quvchi haykaltaroshlik turlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi berilgan mavzu bo‘yicha mayda dumaloq haykal ishlay oladi. **M –** o‘quvchi tasvir elementlarini nisbat qoidalariga rioya qilgan holda ishlay oladi. **A** – o‘quvchi tasvirni ishlash jarayonida uning elementlarini bir-biriga bog‘lay oladi. **R** – o‘quvchi tasvir shaklini va rangini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T** – o‘quvchi tasvirning badiiy bezagini bera oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Qalamcha” metodi “Atamalar bahsi” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	Darslik, rasm daftari, qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, plastilin, plastilin bilan ishlash asboblari
	Sinf doskasining bezagi	 *Mavzuga oid reproduksiyalar* 
	Atamalar	Mayda plastika, dumaloq haykal, gorelyef, barelyef
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga bo‘lish va guruhlarni nomlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.

Tashkiliy qism	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilar o‘tgan dars yuzasidan bajargan amaliy ishlar baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash  	Oldingi mavzu “Qalamdon” metodi orqali mustahkamlanadi. O‘quvchilarga avvalgi mavzu yuzasidan qalamcha modelida savollar beriladi. O‘quvchilar savollarga javob berib, qalamchani qalamdonga solib qo‘yishadi. – Manzara janri deb nimaga aytiladi? – Manzara janrida nimalar aks etadi? – Manzarachi rassomlardan kimlarni bilasiz? – Qaysi o‘zbek rassomini “Manzara kuychisi” deb atashgan? – Manzara tasvirini bo‘yaganda qanday ranglardan foydalaniladi? O‘quvchilarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni “Namoyish” metodi   	Doskaga yangi mavzu yoziladi: “Mayda plastikada milliy obrazlar haykalini yasash” O‘quvchilarga yangi mavzu slaydlar orqali tushuntiriladi. Mayda plastika haykaltaroshlik san’atining eng keng tarqalgan turidir. Mayda plastika ibtidoiy jamoa davrida paydo bo‘lgan. Haykaltaroshlikning mayda plastika shaklidagi ilk namunalari qadimgi dunyo odamlari yashagan manzilgohlardagi arxeologik yodgorliklar orasidan topilgan. Ular asosan kichik hajmdagi haykalchalar ko‘rinishida bo‘lgan. Zamonaviy haykaltaroshlikda mayda plastika interyerni bezatish uchun mo‘ljallangan kichik haykalchalar, odam byusti, hayvonlar obrazlari yoki boshqa yodgorlikning kichik modeli shaklida bo‘lishi mumkin. Dekorativ haykaltaroshlikning bu yo‘nalishida haykallar va bo‘rtma tasvirlar kichik o‘lchamda bo‘lishi bilan farqlanadi. Mayda plastika dekorativ haykaltaroshligida asosan yodgorlik haykallari, binoning ichki va tashqi bo‘rtma bezaklari, loy, shisha va boshqa ashyolardan kichik o‘lchamdagi o‘yinchoq haykalchalar ishlanadi. O‘qituvchi dumaloq va relyefli haykallar haqida qisqacha ma’lumot beradi. Relyef haykaltaroshlikning bir turi, uning barelyef va gorelyef turlari bor. Me’morchilikda **gorelyef, barelyef** qo‘llanadi. Shuningdek, orden, medal, tanga pul yasashda ham ishlatiladi. **Relyeflarning** xarakterli xususiyatlaridan biri bu – ularning tekis yuzaga ishlanishidir. **Dumaloq haykallarni** esa har tomonlama ko‘rish mumkin. Dumaloq haykallarning xarakterli xususiyati bu – hajmli shakllarda, uch o‘lchamga ega bo‘lishidir.

Asosiy qism	Amaliy ish  	Amaliy ishdan avval o‘quvchilar darslikdagi ish bosqichlari bilan tanishadilar (amaliy ish bo‘yicha videolavha namoyish qilinadi). So‘ngra guruhlarga mavzuga oid vazifa beriladi: Mayda plastikada milliy obrazlar haykalini yaratish. Masalan: 1-guruhga: “Nasriddin Afandi” kompozitsion mayda plastika haykalini ishlash. 2-guruhga: “Suhbat” kompozitsion mayda plastika haykali relyefini ishlash. 3-guruhga: “Bozorda” kompozitsion mayda plastika haykalini ishlash. Amaliy ish so‘ngida guruhlarning ishi “Ko‘rgazma” qilinadi. Guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi.
	Yangi darsni mustahkamlash	
Yakuniy qism	“Atamalar bahsi” metodi	Yangi mavzu “Atamalar bahsi” metodi orqali mustahkamlanadi. Bunda guruhlarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan, mavzuga oid atamalar yozilgan tarqatma savollar beriladi. (“Relyef”, “Mayda plastika”, “Gorelyef”, “Barelyef”, “Dumaloq haykal”, “Haykaltarosh” kabi atamalar). Guruh o‘quvchilari atamalarni izohlab beradilar.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Mavzu bo‘yicha haykaltaroshlikning istalgan turida mayda haykalchalar ishlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

6-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Mifologik mavzuda rasm ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga berilgan mavzu bo‘yicha kompozitsiya ishlash usullarini o‘rgatish va ularda bu bo‘yicha tushuncha hosil qilish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarning tabiatga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish, ularni ish joylarini to‘g‘ri tashkil qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o‘rgatish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning tasvirni bo‘yash malakalarini rivojlantirish
	CSMART maqsadi  	**C –** o‘quvchi kompozitsiya turlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi berilgan mavzu bo‘yicha kompozitsiyani to‘g‘ri tuza oladi. **M –** o‘quvchi kompozitsiya chizish jarayonida perspektiva qoidalariga va o‘zaro nisbat o‘lchamlariga rioya qiladi. **A** – o‘quvchi chizish jarayonida kompozitsiya elementlarini to‘g‘ri tasvirlay oladi. **R** – o‘quvchi bo‘yash jarayonida kompozitsiya elementlariga to‘g‘ri rang bera oladi. **T** – o‘quvchi bo‘yash jarayonida yorug‘-soya qonuniyatiga amal qiladi.

Tashkiliy qism	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Klaster” metodi “3 soniya” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	Darslik, rasm daftari, qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, rangli qalamlar, flomasterlar, bo‘yoqlar, mo‘yqalam, suv idish, palitra
	Sinf doskasining bezagi	 *Mavzuga oid reproduksiyalar* 
	Atamalar	Mifologiya, humo qushi, semurg‘
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik uch guruhga bo‘lish, guruhlarni nomlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilar avvalgi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlar tekshiriladi va baholanadi. Baholar izohlanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash **“3 soniya” metodi** 	O‘tgan dars mavzusi “3 soniya” metodi orqali mustahkamlanadi. “3 soniya“metodi asosida o‘tilgan mavzu takrorlab olinadi. O‘quvchilarga avvalgi mavzu yuzasidan savol beriladi, ular berilgan vaqt ichida javob qaytaradilar. Javobni o‘ylash uchun 3 soniya vaqt beriladi. Javob topilmasa, savol raqibga o‘tib ketadi. Bundan tashqari, o‘quvchilar bir-birlariga o‘zlari tuzib kelgan savollarni ham berishlari mumkin.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni **“Namoyish” metodi** 	**Mifologik** janr (yunoncha “muthos” – *hikoyalar, ertaklar, afsonalar*) tasviriy san’atning turli xalqlarning qadimiy afsonalari, an’analari yoki ertaklari syujeti uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan bo‘limidir. Bunday tasvir realistik yoki muallif tomonidan o‘ylab topilgan bo‘lishi mumkin. Turli xalqlarning qadimiy afsonalari, rivoyatlari, an’analari yoki asarlari syujetiga mifologik mavjudotlarning tasvirlari misol bo‘la oladi. Mifologik janrda ijobiy va salbiy afsonaviy obrazlar mavjud. Semurg‘ – sharq xalqlari og‘zaki poetik ijodidagi afsonaviy qush obrazi. Osmonda uchish, uzoq manzilni yaqin qilish haqidagi asriy orzu-umidlarning ramziy ifodasi.

Asosiy qism



Dastlab Eron mifologiyasida paydo bo‘lgan. “Avesto”da “senemurg‘” shaklida ishlatilgan. Semurg‘ o‘zbek xalq ertagi va afsonalarida ijobiy qahramonning do‘sti, himoyachisi, hamrohi, uni “yetti zulmat ichi”dan olib chiquvchi fantastik qush sifatida gavdalanadi. Turkiy xalqlarda semurg‘ning humo, anqo, davlat qushi, baxt qushi, marqumomo, kuntubulg‘on, bulbuligo‘yo va boshqa nomlari bor.







O‘quvchilar slaydlar orqali mifologik qahramonlar bilan tanishtiriladi (ajdarho, uchar ot, kentavr…).




O‘zbek xalq og‘zaki ijodida afsonaviy, xalqning sevimli va quvnoq qahramoni – Nasriddin Afandi obrazi muhim o‘rin tutadi. Hayotda yashamagan bo‘lsa-da, xalqimiz u haqda son-sanoqsiz latifalar to‘qishgan.






<table>
<tr><td rowspan="3">Asosiy qism</td><td>Amaliy ish



</td><td>Amaliy ishdan avval o‘quvchilar darslikdagi ish bosqichlari bilan tanishadilar.
Mavzuni keng yoritish maqsadida guruhlarga alohida vazifa beriladi:
1-guruhga: “Nasriddin Afandi” tasvirini ishlash.

2-guruhga: “Alovuddinning sehrli chirog‘i”dagi jin obrazini ishlash.

3-guruhga: “Humo qushi” tasvirini ishlash.
Amaliy ish so‘ngida guruhlarning ishlari tahlil qilinadi va baholanadi.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Yangi darsni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Yakuniy qism</td><td>“Klaster” metodi</td><td>Yangi mavzu umumlashtiriladi. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Ijodiy yondashgan holda darslikdagi humo qushi rasmini ishlash

</td></tr>
</table>

Yakuniy qism		
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

7-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**Kuz mavzusida ijodiy natyurmort ishlash**		
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga “Kuz” mavzusida natyurmort kompozitsiyasini ishlash usullarini o‘rgatish hamda ularda tushuncha hosil qilish, tasvir ishlash jarayonida mo‘yqalam va turli bo‘yash asboblari bilan ishlashni o‘rgatish		
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarning kuzda tabiatning o‘zgarishi, kuzgi mevalar va ularning inson salomatligiga foydasi haqidagi bilimlarini kengaytirish (tabiiy fanlar integratsiyasi asosida mavzuni tushuntirish)		
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, tabiatga qiziqishini uyg‘otish va uni asrab-avaylashga o‘rgatish (ekologik tarbiyani rivojlantirish)		
	STEAM maqsadi STEAM	**S** (science) – tabiiy fanlar **T** (technology) – texnologiya **E** (engineering) – muhandislik **A** (art) – san’at **M** (math) – matematika		
	Dars turi	Aralash		
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Bu juda qiziq” metodi “Taqdimot” metodi		
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar		
	Dars jihozi	Darslik, rasm daftari, oddiy qalam va rangli qalamlar, akvarel bo‘yog‘i, mo‘yqalamlar, suv idish, rangli qog‘ozlar, yelim, qaychi, o‘chirg‘ich		
	Sinf doskasining bezagi		*Mavzuga oid reproduksiyalar*	


	Atamalar	Natyurmort, komponovka, yorug‘-soya, applikatsiya
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash. e) sinf o‘quvchilarini 5 ta kichik guruhga bo‘lish. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘tgan dars yuzasidan berilgan amaliy ish tekshiriladi va o‘quvchilar baholanadi. Amaliy ishni namunali bajarganlar rag‘batlantiriladi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash 	Avvalgi dars mavzusi yuzasidan guruhlarga “Qalamdon” metodi orqali tarqatma savollar beriladi. – Mifologiya nima? – Mifologik janrda nimalar tasvirlanadi? – Qanday mifologik obrazlarni bilasiz? – Salbiy mifologik qahramonlardan qaysilarini bilasiz? – Ijobiy mifologik qahramonlarni ayting. Guruhlarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni  **“Namoyish” metodi**   Natyurmort. Moybo‘yoq. *Yusuf Yelizarov*	Sinf doskasiga sana, mavzu yoziladi: “Kuz” mavzusida ijodiy natyurmort ishlash”. Mavzu STEAM dasturidan foydalanib tashkil qilinadi. Fanlararo integratsiya asosida turli metodlardan foydalaniladi. O‘quvchilar bir necha xil texnik yo‘nalish asosida tasvir ishlash va bo‘yashni o‘rganadilar. O‘quvchilarga slaydlar orqali kuz haqida ma’lumot beriladi. O‘qituvchi: **– Natyurmort** (fransuzcha “nature morte” – *jonsiz tabiat*) tasviriy san’at janri. Unda insonning atrofini o‘rab turgan real maishiy muhitda joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi. Asosan dastgohli rassomlik (rangtasvir va grafika)da, qisman haykaltaroshlik (asosan relyef)da ishlanadi. O‘zbekiston tasviriy san’atida natyurmort unsurlari qadimgi davr san’atida (Afrosiyob devoriy rasmlarida – vazadagi mevalar), miniatyura san’atida (Kamoliddin Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan buyumlar – siyohdon, qamchi) uchraydi. Natyurmortning haqiqiy shakllanishi va rivojlanishi XX asrning 30–50-yillariga to‘g‘ri keladi. Ayni shu davrda rassomlar ijodida natyurmortning dastlabki namunalari paydo bo‘ldi: L. Nasriddinov (“Nonli natyurmort”), Sh. Hasanova (“Xitoy chinnisi bilan ishlangan natyurmort”) va M. Kurzin, V. Rojdestvenskiy, V. Ufimsev, N. Kashina, Z. Kovalevskaya, O. Tatevosyan, S. Abdullayev, V. Fadeyev, Y. Yelizarov va boshqalar natyurmort janrida asarlar yaratdi. XX asrning 60–80-yillarida L. Salimjonova, Y. Taldikin, R. Choriyev, V. Burmakin, Y. Melnikovlar ijodida natyurmort keng o‘rin tutdi. Rassomlar R. Ahmedov, A. Ikromjonov, M. Nuriddinov va boshqalar samarali ijod qilib, natyurmortning taraqqiyotini ta’minladilar.

Asosiy qism



Natyurmort.
Moybo‘yoq.
Viktor Ufimtsev

O‘quvchilarga sinf doskasida kuzgi mevalardan natyurmort ishlash bosqichlari darslik asosida tushuntirib beriladi.









Amaliy ish





(tabiiy fanlar)



O‘quvchilarga barcha ma’lumotlar berilgach, amaliy ish uchun guruhlarga o‘z yo‘nalishi bo‘yicha vazifa topshiriladi.

Eslatma: o‘quvchilar avvalgi darslarda kuz fasli haqida ma’lumotga ega bo‘lgan. Bu darsda o‘quvchilarga MO‘Dning spiralsimon usulida qo‘shimcha ma’lumotlar beriladi.

“S” (tabiiy fanlar) guruhiga: kuz faslidagi mevalar va ularning shifobaxsh xususiyati haqida ma’lumot bering.

“S” guruhidagi o‘quvchilar kuzgi mevalarning shifobaxsh xususiyati haqida ma’lumot berishadi.

Masalan, olma mevasi tarkibida *fruktoza, saxaroza, olma va limon kislotalari, vitamin C, pektin, temir moddasi, oshlovchi moddalar* mavjud.






Asosiy qism	“T” (texnologlar) 	Qovun tarkibi inson organizmiga zarur bo‘lgan *C vitamini, kaliy, magniy, kremniy, temir moddasi, foliy kislotasiga* boy. Shuning uchun qovunni bod, belangi, sil, kamqonlik, ziqna-fas, jigar, buyrak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Qovun teridagi sepkil, dog‘larni tozalaydigan samarali vo-sita ham hisoblanadi.    **“T” (texnologlar) guruhiga:** “Kuzgi mevalar” mavzusida natyurmort applikatsiyasini ishlang.    **“E” (muhandislar) guruhiga:** natyurmortga oid ko‘za-larning konstruktiv tahlilini bajaring.

Asosiy qism

“E” (muhandislar)






Ko‘zani geometrik shakllar asosida chizish usullari ko‘rsatib beriladi.

“A” (san’at)

“A” (san’at) guruhiga: “Kuzgi mevalar” mavzusidagi natyurmortni rangtasvir va grafikada ishlang.







Natyurmort kompozitsiyasini ishlashda komponovka, o‘lcham, o‘zaro nisbat, yorug‘-soya qonuniyatlari haqida tushuncha beriladi.

Asosiy qism	 “M” (matematika) **“Bu juda qiziq” metodi** 	**“M” (matematika) guruhi.** **“Bu juda qiziq” metodi.** Tarvuzning 90 foizini suv tashkil qiladi. Tarvuz A, S, V6 vitaminlariga boy. S vitaminining kunlik normasini olish uchun to‘rt tilim tarvuz yeyish kifoya.   Qovoq – kuz faslining haqiqiy kelinchagidir. Unda A, E, B6, D12 va rux kabi vitaminlar mavjud bo‘lib, ko‘z uchun foydali mahsulot sanaladi. Shuningdek, qovoqda karotinoidlar bo‘lib, ular ko‘z pardasini mustahkamlar ekan.  
Yangi darsni mustahkamlash		
Yakuniy qism	“Taqdimot” metodi	Yangi dars guruhlar bajargan ishlarini “taqdimot qilishi” orqali mustahkamlanadi. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Istalgan uslubda “Kuz” mavzusida ijodiy natyurmort ishlash  

Yakuniy qism		 
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

9-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Fluid art uslubida abstrakt kompozitsiya yaratish
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga fluid art haqida tushuncha berish. Tasviriy san’atning bu yo‘nalishida tasvir ishlash bosqichlarini o‘rgatish
	Tarbiyaviy	Rangshunoslik bilimlari orqali o‘quvchilarning fluid art yo‘nalishida ranglarni to‘g‘ri tanlay bilish va ishlatish texnikasini oshirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning mustaqil ravishda ranglar bilan kompozitsiya hosil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
	STEAM maqsadi 	Mavzu **STEAM** dasturidan foydalanib tashkil qilinadi. Fanlararo integratsiya asosida turli metodlardan foydalaniladi. O‘quvchilar bir necha xil texnik yo‘nalish asosida tasvir ishlash va bo‘yashni o‘rganadilar.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Meni qiziqtiradi” metodi “Kim ko‘p topadi?” metodi “Kichik kimyogar” metodi “Loyihalash” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, to‘garak ishlaridan namunalar
	Dars jihozi 	**O‘qituvchi uchun:** akril rangli bo‘yoqlar, PVA yelimi, bir martalik qo‘lqoplar, fartuk, nam salfetkalar, xolst yoki faner, plastmassa shaffof idish, yog‘och tayoqchalar, suv, fen. **O‘quvchi uchun:** darslik, mashq daftari, oddiy qalam, o‘chirg‘ich, akvarel yoki guash bo‘yog‘i, mo‘yqalam.

Tashkiliy qism	Sinf doskasining bezagi		*Fluid art yo‘nalishida bajarilgan ishlardan namunalar*	
	Atamalar	Fluid art, akril, interyer, xolst		
	DARSNING BORISHI			
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) doskaga mavzuni yozish, darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik 3 guruhga bo‘lish va guruhlarni nomlash.		
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi dars bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.		
	Avvalgi darsni mustahkamlash	**“Meni qiziqtiradi” metodi** asosida o‘tilgan dars takrorlab olinadi. O‘quvchilar o‘tilgan mavzu asosida atrofimizdagi narsalarni xayolan kuzatadilar va savol tuzadilar. Tuzgan savollarini bir-birlariga beradilar. Bundan tashqari, **“Kim ko‘p topadi?” metodi.** O‘qituvchi turli ranglarni ketma-ketlikda aytib boradi, o‘quvchilar esa tabiatda bu ranglarni qayerda, nimalarda uchratish mumkinligini aytib ketadilar. O‘quvchilarning diqqatini jamlash maqsadida rang turlarini aralashtirib aytiladi. Avvalgi dars takrorlab olinadi. O‘tilgan dars bo‘yicha o‘quvchilar ishlagan rasmlar ko‘rib, baholanadi. O‘quvchilarning javoblari umumlashtiriladi.		
	Darsning maqsadli yoritilishi			
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni Amaliy ish STEAM	**Fluid art** suyuqlik bilan ishlanadigan tasvir bo‘lib, bu texnikada ishlashning mohiyati uning nomi bilan bog‘liq. Idishga turli xil rang va shakldagi bo‘yoqlarni quyish orqali siz tasavvurni hayratda qoldiradigan noyob tasvirga ega bo‘lasiz. Suyuq akril mavhum rasmning zamonaviy shakli bo‘lib, bo‘yoq xolst (panno) bo‘ylab oqadi va rang effektlarini hosil qiladi. **S (science) – tabiiy fanlar** **“Kichik kimyogar” metodi**. Suyuq akrilning to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’siriga erishish uchun birinchi navbatda bo‘yoqlarni qolgan komponentlar bilan aralashtirishimiz kerak. Buni amalga oshirish uchun kerak bo‘ladigan bo‘yoqlarning ranglarini tanlashimiz kerak.		

Asosiy qism		Plastik idishni olamiz va unga kerakli rangdagi akril bo‘yoqni oz (taxminan bir choyqoshiq) miqdorda siqib chiqaramiz. Keyin akril olamiz va uni ham bo‘yoq bilan bir xil miqdorda qo‘shamiz. Endi yog‘och tayoqni olib, hosil bo‘lgan **kompozitsiyani** aralashtiramiz. Bo‘lak va rang dog‘i alohida bo‘lib qolmasligi uchun yaxshilab aralashtiramiz. Bu tasvir yaratishda muhim. Bo‘yoq suyuqligi quyuq qaymoqqa o‘xshash bo‘lishi kerak.
	Amaliy ish  	**T (technology) – texnologiya** Amaliy ish jarayonida ishlash. Texnologiya fani bilan bog‘lagan holda fluid art usulida yaratilgan kompozitsiyadan turli dekorativ bezak san’atida foydalanish mumkin. Masalan, interyer dizaynlarida, matoga ishlov berishda (matoning bezagi, unga turli xil ranglar berish asosida yangi mato turini yaratish).   **E (engineering) – muhandislik** “**Loyihalash**” metodi asosida tasvir bajarish uchun zarur geometrik shaklli idish yoki xolstning eskizi chizib olinadi. 

Asosiy qism















Eskiz asosida tasvir bajarish uchun kerakli hajmni tayyorlab olamiz.

Bunda chiziladigan tasvir uchun turli andaza va shablon tayyorlanadi.

A (art) – san’at







M (math) – matematika

Fluid art yo‘nalishida matematik nisbatlar katta ahamiyatga ega.


Bo‘yoqning suyuqligini hosil qilishda qo‘shiladigan mahsulotning nisbati to‘g‘ri olinsa, bo‘yoq qotib yoki suyulib ketmaydi.





		Fuid art yo‘nalishida ijod qiluvchi rassomlar ko‘pincha 2:2:1 nisbatga amal qiladilar (qo‘shimcha suyuqlik 20 ml, akril bo‘yoq 20 ml va 10 ml suv). Qo‘shimcha suyuqlik – meduym, quyultiruvchi yelimlardan foydalanish   
	Yangi darsni mustahkamlash	
Yakuniy qism		Mavzu asosida savol-javob o‘tkazish, faol guruhni rag‘batlantirish. 1. Fluid art san’ati nima? 2. Fluid art texnikasida ishlash uchun qanday materiallar kerak? 3. Ebru art san’ati haqida nimalarni bilasiz?
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Fluid art uslubida turli geometrik shakllarga abstrakt kompozitsiya yaratish  Mashq daftaridagi mavzuga oid vazifalarni bajarish
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

Заключительная часть

10-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Harakatdagi odam tasvirini ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarning mavzu asosidagi tushunchalarini shakllantirish. Ularga harakatdagi odam tasvirini chizish bosqichlarini o‘rgatish
	Tarbiyaviy	Tasvir ishlash bo‘yicha bilimlarini oshirish va mavzu asosida fanlararo integratsiya to‘g‘risida ma’lumot berish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning mustaqil ravishda turli usullarni qo‘llab tasvir bajarish ko‘nikmalarini rivojlantirish
	STEAM maqsadi: STEAM	Mavzu **STEAM** dasturidan foydalanib tashkil qilinadi. Fanlararo integratsiya asosida turli metodlardan foydalaniladi. O‘quvchilar bir necha xil texnik yo‘nalish asosida tasvir bajarish va bo‘yashni o‘rganadilar.

Tashkiliy qism	Dars turi	**Aralash** (yangi bilimlarni o‘zlashtirish va amaliy mashg‘ulot bajarish)		
	Dars metodi	“Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Panno”, “Loyihalash”, “Taqdimot”		
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar		
	Dars jihozi	Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, o‘chirg‘ich, mo‘yqalam va rangli bo‘yoqlar, qaychi, yelim, karton		
	Sinf doskasining bezagi		*Harakatdagi odam tasvirini ishlash*	
	Atamalar	Statika, dinamika, proporsiya		
	DARSNING BORISHI			
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.		
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.		
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘tgan dars “Aqliy hujum” metodi orqali mustahkamlanadi. O‘qituvchi tomonidan fluid art tasviri ko‘rsatiladi. O‘quvchilar fikri eshitiladi. So‘ng o‘tilgan mavzuni takrorlash uchun savol-javob qilinadi. – Fluid art kompozitsiyasi nima? – Fluid art kompozitsiyasini bajarishda qanday materiallardan foydalaniladi? O‘quvchilarning javoblari tinglanadi, avvalgi dars bo‘yicha uy vazifalari tekshiriladi va baholanadi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.		
	Darsning maqsadli yoritilishi			
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni STEAM	**S (science) – tabiiy fanlar** Odam gavdasi tasvirini ishlaganda va uning harakatini ko‘rsatishda birmuncha qiyinchiliklarga duch kelamiz. Dinamik holatdagi gavdani chizish uchun avvalo kuzatish kerak. Harakatlanuvchi gavda juda tez o‘zgaruvchan bo‘lib, uni tasvirlash qiyin, shuning uchun ham odam harakatini oddiy usullar bilan, egiluvchan nuqtalarni aniqlab, turli chiziqlar yordamida tasvirlash oson bo‘ladi.		


Asosiy qism		Gavda harakatini to‘g‘ri ifodalash esa tasviriy san’atda kompozitsiya bajarishda yordam beradi. Gavda tuzilishi tasvirini uning muskullari joylashuvi va harakat vaqtidagi qisqarishi, suyaklarining joylashishi va bir-biriga bog‘langan qismlarini o‘rganish natijasida to‘g‘ri bajarish mumkin.  Harakatdagi inson suyaklari tuzilishi  Inson mushaklarining tuzilishi, harakat vaqtidagi qisqarishlar
	Amaliy ish STEAM “Kichik guruhlarda ishlash” metodi	**T (technology) – texnologiya** O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib yoki yakka tartibda, birgalikda amaliy mashg‘ulot olib boriladi. **“Kichik guruhlarda ishlash” metodi** Guruhlarga qog‘ozga tushirilgan tasvir tarqatiladi, uni kesib, harakatlanayotgan gavda maketini hosil qiladilar. Har bir guruh turli harakatdagi gavdani tasvirlaydi.  

Asosiy qism

“Loyihalash” metodi








E (engineering) – muhandislik

“Loyihalash” metodi

Turli holatlardagi harakatlarni chiziqli tasvirlash va loyihalash.

Bu metodni xomaki tasvirlar chizish asosida bajaramiz.






A (art) – san’at

Tasvirni bajarish uchun bir nechta xomaki rasmlar chizib olamiz. Shulardan bittasini tanlab, mashq daftarimizga ko‘chiramiz.

Turli chiziqlardan gavdani chizib olamiz va chiziqlarni to‘ldirib, gavdaning ko‘rinishini hosil qilamiz.




STEAM



M (math) – matematika

Odam gavdasining nisbatlari


Qadimgi Misr rassomlari odam gavdasini tasvirlash uchun o‘lcham sifatida qo‘lning o‘rta barmog‘ini 19 marta o‘lchab olish uslubidan foydalanganlar. Bunda bosh qism 3 ta barmoq uzunligiga to‘g‘ri kelgan.





Qadimgi yunon haykaltaroshlari insonni 8 bo‘lakka bo‘linish nisbatida tasvirlaganlar



Xitoy rassomlari tomonidan ifodalangan gavda nisbatlari




	Yangi darsni mustahkamlash	
Asosiy qism	“Taqdimot” metodi	Har bir guruh a’zolari yakka tartibda ishlagan tasvirlarini guruh uchun tayyorlangan qog‘ozga chizadilar. “Taqdimot” metodi asosida har bir guruh birgalikda tayyorlagan tasvirini og‘zaki taqdim qiladi.  Mustahkamlash uchun savollar: 1. Odam gavdasini qanday geometrik shakllarga o‘xshatish mumkin? 2. Odam boshi tanasiga nisbatan nechta keladi? 3. Inson butun gavdasi bilan tasvirlangan qanday tasviriy san’at asarlarini bilasiz?
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Darslikda berilgan harakatdagi odam tasvirini ijodiy yondashgan holda ixtiyoriy uslubda ishlash 
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

11-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Siluet mavzusida rasm ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga siluet va uning tarixi haqida tushuncha berish. Tasviriy san’atning siluet texnikasida tasvir bajarish bosqichlarini o‘rgatish
	Tarbiyaviy	Oq-qora siluet tasviri asosida o‘quvchilarning bilimlarini, shu yo‘nalishda tasvir ishlash amaliy malakasi va texnikasini oshirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning siluet texnikasida mustaqil kompozitsiya hosil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish
	STEAM maqsadi 	Mavzu **STEAM** dasturidan foydalanib tashkil qilinadi. Fanlararo integratsiya asosida turli metodlardan foydalaniladi. O‘quvchilar bir necha xil texnik yo‘nalish asosida tasvir bajarish va bo‘yashni o‘rganadilar.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“3 soniya” metodi “Namoyish” metodi “Guruhlarda ishlash” metodi “Taqdimot” metodi “Konfronto” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, to‘garak ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** doska, namunali ishlar, molbert, guash bo‘yoqlari, mo‘yqalamlar to‘plami, A3 qog‘oz, palitra, suv. **O‘quvchi uchun:** rasm daftari; turli qattiqlikdagi va yumshoq grafit qalamlar to‘plami (T1,T2...Tn, M1,M2..Mn); qalamtarosh; o‘chirg‘ich; akvarel yoki guash bo‘yog‘i; maxsus mo‘yqalam; suv; palitra, rangli qog‘oz va yelim.
	Sinf doskasining bezagi 	 *Siluet usulida bajarilgan ishlardan namunalar* 
	Atamalar	Siluet, konfronto, grafit qalam
	DARSNING BORISHI	
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) doskaga mavzu yozib, darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik 3 guruhga ajratish va guruhlarni nomlash.

Tashkiliy qism	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi dars bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash 	**“3 soniya” metodi** asosida o‘tilgan mavzu takrorlab olinadi. O‘quvchilarga o‘tilgan mavzu asosida savol beriladi va ular belgilangan vaqt ichida javob qaytaradilar. Bundan tashqari, o‘zlari tuzib kelgan savollarni ham bir-birlariga beradilar. **“Namoyish” metodi** O‘qituvchi turli ranglarda ishlangan reproduksiya asarlarini ko‘rsatib boradi. Bu rasmlar slayd yoki ko‘rgazma asosida doskaga yopishtirilib boriladi. Savollar o‘tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuga bog‘lab o‘tish asosida tuzilishi kerak. “Namoyish” metodini “3 soniya” metodi bilan birgalikda olib borish mumkin. Avval o‘tilgan mavzu takrorlab olinadi. O‘tilgan dars bo‘yicha o‘quvchilarning rasmlari ko‘rib baholanadi. O‘quvchilarning javoblari umumlashtiriladi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni Amaliy ish 	**Siluet** Xitoyda qog‘oz ixtirosi bilan birga paydo bo‘lgan. Xitoyliklar undan qog‘ozga chizishda, belgilar bilan yozishda va davlat hujjatlarida foydalandilar. Xitoyliklar, bundan tashqari, tasvirlarni kesib olib, derazalarga yopishtirdilar, kechqurungi yorug‘lik yoqilgandan paydo bo‘lgan tasvirlardan milliy e’tiqodni rivojlantirishda foydalanganlar.  

Asosiy qism





Etyen de Siluet
(1709–1767)



Siluetni qadimiy yunon idishlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

“Siluet” so‘zi Lui XV davrida Fransiyada yashagan moliya bo‘yicha bosh nazoratchi (Étienne de Silhouette, 1709–1767) nomidan olingan. Bunga o‘sha davrda noma’lum rassom tomonidan ishlangan tanqidiy tasvir asos bo‘lib qoldi. Silueti ixtirochi tomonidan chizilgan vazirning mehmonlariga bu tasvirlar juda yoqdi, qirolning o‘ziga ham bu g‘oya yoqdi va siluetning mashhurligi tezda Fransiya va Yevropaning barcha burchaklariga tarqaldi. Bunday shon-shuhratdan xursand bo‘lgan Etyen de Siluet hatto o‘zining siluet muzeyi va turli xil soya profillarini yaratdi.


Bezak sifatida siluetlar qog‘ozdan ham kesilgan, bunday zavqni hatto aholining boy bo‘lmagan qatlamlari ham olishlari mumkin edi.

Siluet san’ati bugungi kunda ham o‘z mavqeyini yo‘qotmagan. Siluetlar reklama, geraldika, nishonlar va emblemalarda qo‘llanadi.

Biz siluetlarni nafaqat kitob sahifalarida, balki kundalik hayotda ham uchratamiz.

S (science) – tabiiy fanlar
“Guruhlarda ishlash” metodi

O‘qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan kartochkalar guruhlarga tarqatiladi. Ma’lum vaqt mobaynida guruhlar tasvirlarga qarab, ular qaysi davlatga tegishli ekanini topishlari kerak bo‘ladi. Guruhlar topshiriqni tez va to‘g‘ri bajarishiga qarab baholab boriladi.



Asosiy qism

Amaliy ish









T (technology) – texnologiya

Amaliy ish jarayoni

Guruhlarga turli shablonlar beriladi. Bu shablonlar asosida siluet kompozitsiyasini jamoa bo‘lib ishlaydilar.






E (engineering) – muhandislik

“Loyihalash” metodi

Har bir guruhga siluet usuli asosida o‘z shahrining biror binosini tasvirlash topshiriladi. Berilgan topshiriq natijasi guruhlar orasida bir xil bo‘lib qolmasligi nazorat qilib turiladi.



“Taqdimot “metodi


Guruhlar tayyorlagan siluetlarini taqdimot qiladilar.

A (art) – san’at



Siluet usulini tasviriy san’atning turli janrlarida uchratishimiz mumkin.



<table>
<tr><td rowspan="4">Asosiy qism</td><td></td><td>Bundan tashqari, uni nafaqat bitta fonda, balki rangtasvir kompozitsiyasi bilan aralash ishlatishimiz ham mumkin.
“Konfronto” metodi
O‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan tasvirlar va guruhlar chizgan rasmlar taqqoslab tahlil qilinadi.


M (math) – matematika
Nisbatlar asosida siluet usulida kompozitsiyani to‘g‘ri bajarish tushuntiriladi
</td></tr>
<tr><td colspan="2">Yangi darsni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Yakuniy qism</td><td></td><td>Mavzu asosida savol-javoblar o‘tkazish, faol guruhni rag‘batlantirish.
1. Siluet nima?
2. Siluet haqida nimalarni bilib oldingiz?</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Darslikda berilgan siluet mavzusiga oid amaliy ishni ijodiy yondashgan holda yakunlash
</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

12-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Badiiy asarga illyustratsiya ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga berilgan mavzu bo‘yicha illyustratsiya ishlash usullarini o‘rgatish va ularda tushuncha hosil qilish
	Tarbiyaviy	Badiiy asar orqali o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirish, ularni ish joylarini to‘g‘ri tashkil qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o‘rgatish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning tasvirni bo‘yash malakalarini rivojlantirish
	CSMART maqsadi: 	**C –** o‘quvchi kompozitsiya turlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi berilgan mavzu bo‘yicha badiiy asarga illyustratsiyani to‘g‘ri chiza oladi. **M –** o‘quvchi illyustratsiya chizish jarayonida perspektiva qoidalariga va o‘zaro nisbat o‘lchamlariga rioya qiladi. **A** – o‘quvchi chizish jarayonida tasvir elementlarini to‘g‘ri ifodalay oladi. **R** – o‘quvchi bo‘yash jarayonida tasvir elementlariga to‘g‘ri rang bera oladi. **T** – o‘quvchi bo‘yash jarayonida yorug‘-soya qonuniyatiga amal qiladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Klaster” metodi “Trafaret” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	Darslik, rasm daftari, qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalam, suv, palitra
	Sinf doskasining bezagi	 *Mavzuga oid reproduksiyalar* 
	Atamalar	Illyustratsiya, komponovka
	DARSNING BORISHI	
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.


Tashkiliy qism	Uy vazifasini so‘rash va baholash	Oldingi dars yuzasidan berilgan uy vazifasi tekshiriladi va baholanadi. Baholar izohlanadi. Topshiriqni namunali bajargan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘tgan dars mavzusi yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi. – *Siluet nima?* – *Siluet haqida nimalarni bilasiz?* Barcha javoblar tinglanadi va umumlashtiriladi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni **“Namoyish” metodi**   X. To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asariga ishlangan illyustratsiya (A. Mamajonov, R. Zufarov)	O‘qituvchi yangi mavzuni “Namoyish” metodi orqali slaydlar yordamida bayon qiladi. – **Illyustratsiya** (lotincha “illustratio” – *yoritish, ko‘rgazmali tasvirlash*) – tasviriy san’atda adabiy asar (kitob, jurnal, gazeta)ning obrazli talqini bilan bog‘liq soha. Matnga qo‘shimcha tarzda uning mazmunini obrazli yoritishga, to‘ldirishga xizmat qiladi. Ilk qo‘lyozma kitoblar paydo bo‘lgan davrlarda yuzaga kelgan. Dastlab qo‘lyozmalar miniatyuralar bilan bezatilgan, kitob nashr etish va ksilografiyaning yuzaga kelishi illyustratsiya sohasini rivojlantirdi. Ilmiy, nazariy matn (maqola, kitob va risola)larning mazmunini obrazli yoritadigan, ma’ruzalarda fikrni tasavvur qilishga yordam beradigan ko‘rgazmali tasvirlar (reproduksiya, fotosurat, turli chizmalar) ham *illyustratsiya* deb ataladi. Illyustratsiyalarning ta’sirli chiqishi va badiiy asar g‘oyasini muallif xohlaganday ifodalashi uchun badiiy asarni bir necha bor o‘qib chiqish va chuqur mulohazalar asosida uning eng kulminatsion nuqtalariga illyustratsiyalar yaratish tavsiya etiladi. Badiiy asar qahramoni obrazini gavdalantirishda unga berilgan ta’riflar, uning asardagi xatti-harakatlari, ichki kechinmalarini o‘rganish kerak. Shu asosda uning xarakter xususiyatlari yuz va jismoniy ko‘rinishida o‘z aksini topishi kerak. Kitobxon badiiy asarni o‘qib, illyustratsiyasida o‘zining obrazini topa olishi lozim. Shuningdek, o‘quvchilar bilan o‘zbek, rus va jahon adabiyotidagi badiiy asarlar haqida suhbat quriladi.
	Amaliy ish 	Amaliy ishdan avval o‘quvchilar darslikdagi ish bosqichlari bilan tanishadilar:  

Asosiy qism





Mavzuni keng yoritish maqsadida guruhlarga alohida vazifa beriladi. Vazifa berilayotganda o‘quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak.




1-guruhga: o‘zbek adabiyoti namunalaridan biri – “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni asosida illyustratsiya ishlash.







Asosiy qism		2-guruhga: rus adabiyoti namunalaridan biri “Shoh Saltan haqida ertak” asariga illyustratsiya ishlash.   III-guruhga: jahon adabiyoti namunalaridan “Qor malikasi” ertagiga illyustratsiya ishlash.   **“Trafaret” metodi** Illyustratsiya chizishga qiynalgan o‘quvchilar uchun oldindan tayyorlab qo‘yilgan badiiy asar qahramonlari shabloni beriladi. Ular shablon asosida illyustratsiya ishlaydilar. Amaliy ish so‘ngida guruhlarning ishlari tahlil qilinadi va baholanadi.  

	Yangi darsni mustahkamlash	
Yakuniy qism	“Klaster” metodi	Sinf doskasiga savol yozib qo‘yiladi. Guruh o‘quvchilari doskadagi savol atrofiga o‘z javoblarini yopishtirib qo‘yadilar.  Yangi mavzu umumlashtiriladi. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Guruhlar baholanadi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Ixtiyoriy badiiy asarga illyustratsiya ishlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

14-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**Erkin mavzuda komiks ishlash**
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga komiks haqida ma’lumot berish va uni amalda bajara olish ko‘nikmasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarda estetik madaniyatni tarbiyalash, tasviriy san’atning turli yo‘nalishidagi bilim, malakalarini yanada rivojlantirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning tasviriy san’atning komiks yo‘nalishida mustaqil tasvir ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish
	CSMART maqsadi:  	**C –** o‘quvchi sodda va oddiy komiks tasvirlarini chiza oladi. **S –** tasvirni ishlash jarayonida komiks xarakterini tanlay oladi. **M –** o‘quvchi tasvirni ishlashda komponovka qila oladi. **A** – tasvir eskizini yordamchi chiziq va grafik elementlar bilan ishlay oladi. **R** – tasvirni komiksda bajara oladi. **T** – o‘quvchi tasvirni oq-qora va boshqa ranglar bilan bo‘yab tugata oladi.
	Dars turi	Amaliy mashg‘ulot
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Bu qiziq” metodi “Ijodiy ish” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, doska, bo‘r

<table>
<tr><td rowspan="3">Tashkiliy qism</td><td></td><td colspan="3">O‘quvchilar uchun: rasm daftari, qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel bo‘yog‘i, suv, palitra, mo‘yqalam, rangli qalamlar, flomasterlar, qora siyohli ruchka</td></tr>
<tr><td>Sinf doskasining bezagi</td><td></td><td>Komiks yo‘nalishida chizilgan rasmlardan namunalar</td><td></td></tr>
<tr><td>Atamalar</td><td colspan="3"></td></tr>
<tr><td></td><td colspan="4">DARSNING BORISHI</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Tashkiliy qism</td><td>Tashkiliy qism</td><td colspan="3">a) salomlashish;
b) davomatni aniqlash;
d) doskaga mavzu yozib, darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash;
e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash.</td></tr>
<tr><td>Uy vazifasini so‘rash va baholash</td><td colspan="3">O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.</td></tr>
<tr><td>Avvalgi darsni mustahkamlash</td><td colspan="3">O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi.
1. Illyustratsiya nima?
2. Qanday badiiy asarlarni o‘qigansiz?
3. Badiiy asarlarga illyustratsiya ishlagan rassomlardan kimlarni bilasiz?
Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.
Yangi mavzuga bog‘lanadi.</td></tr>
<tr><td></td><td colspan="4">Darsning maqsadli yoritilishi</td></tr>
<tr><td>Asosiy qism</td><td>Yangi mavzu bayoni
</td><td colspan="3">“Namoyish” metodi
Yangi mavzu – turli slaydlar, ko‘rgazmali tasvirlar, videomateriallar orqali tushuntiriladi.
Komiks (inglizcha “komiks” – kulgili) – rasmlardagi hikoya. Komiks adabiyot va tasviriy san’at xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Ba’zan bosma nashrlarda qo‘llanadigan illyustratsiyaning bir turi.
Birinchi komiksni ingliz karikaturachisi va rassomi Tomas Roulendson chizgan edi. 1812-yildan 1821-yilgacha gazetalarda “Doktor Sintaksis” haqidagi hikoyalar nashr etildi. Tomas Roulendsonni gazeta komikslarining otasi deb atashgan.
</td></tr>
</table>

Asosiy qism



1920-yillarga kelib AQSH va Yevropa mamlakatlarida komiksdan kitob o‘qish uchun targ‘ibot sifatida foydalanildi. Bunday yangilik o‘z ta’sirini ko‘rsatdi va muvaffaqiyat qozondi.

Bunday tasvirlar kino afishalari, filmlar reklamasida juda qo‘l keldi.

“Bu qiziq” metodi



Yaponiya davlat muzeyida saqlanib kelayotgan “Hayvonlar bellashuvi” deb nomlangan tasvir XII asrda ishlangan komiksga misol bo‘la oladi.

Hozirgi zamon komiks turlari:

Strip komiks – bir sahifadan ko‘p bo‘lmagan kichik komiks.

Grafik roman-komiks – 60 sahifa va undan ortiq hajmda, bitta kitobda nashr etilgan yaxlit, to‘liq asar.

Veb komiks – internetda chop etishga mo‘ljallangan komiks.





Komikslar matn asosida chiziladi.

Buning uchun biror-bir personaj tanlab olinadi.

U orqali butun voqealar tasvirlanadi.





Asosiy qism







Tasviriy san’at faniga mos komikslar chizish ham mumkin.

Rassom tomonidan tasviriy san’at fanining ifoda vositalari komiks yo‘nalishida tasvirlanishi darslikning qiziqarli chiqishiga sabab bo‘lgan.

Amaliy ish


Amaliy mashg‘ulotning borishi

“Ijodiy ish” metodi

Komiks chizish uchun bir obraz tanlab olinadi. Tanlangan obrazning harakatli tasvirlari asosida voqealar chiziladi.


Masalan, komiks multfilm qahramonlari ishtirokida bo‘lishi mumkin.

1




2



<table>
<tr><td rowspan="2">Asosiy qism</td><td></td><td>
</td></tr>
<tr><td colspan="2">Yangi darsni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Yakuniy qism</td><td></td><td>Darsni mustahkamlash uchun savollar:
1. Komiks qachon paydo bo‘lgan?
2. Komiksning asoschisi kim?
3. Komiks haqida qanday fikrdasiz?


O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar.
Bajarilgan amaliy ishlar ko‘rgazma asosida baholanib, umumlashtiriladi.</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Darsda boshlangan komiksni yakunlab kelish</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

15–16-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi:	Sharq miniatyura san’ati
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga miniatyura asarlarini idrok etish va tahlil qilishni o‘rgatish. Miniatyura asarlarining oddiy elementlarini amalda bajara olish ko‘nikmasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarda milliy madaniy merosimizga bo‘lgan e’tiborni oshirish, ularni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda oddiy miniatyura elementlarini mustaqil ravishda ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish
	CSMART maqsadi: 	**C** – o‘quvchi miniatyura maktablarini farqlay oladi. **S** – o‘quvchi miniatyurachi rassomlarni biladi. **M** – o‘quvchi miniatyuraning oddiy elementlarini chiza oladi. **A** – o‘quvchi miniatyura kompozitsiyasi elementlarini birbiriga bog‘lay oladi. **R** – o‘quvchi miniatyura shaklini va rangini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T** – o‘quvchi miniatyuraning oddiy elementlari asosida to‘liq kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Kichik guruhlarda ishlash” metodi “Mozaika” metodi “Konfronto” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, molbert, markerlar, A3 o‘lchamli qog‘oz, guash bo‘yog‘i, mo‘yqalam va bo‘r. **O‘quvchilar uchun:** turli qattiqlikdagi grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalamlar, suv, palitra.  
	Sinf doskasining bezagi	 *Miniatyuralardan namunalar* 
	Atamalar	Miniatyura

	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.
	Uy vazifasini so‘-rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash **“Mozaika” metodi** 	O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. Yangi mavzuga bog‘lanadi. 1. Komiks qachon paydo bo‘lgan? 2. Komiksning asoschisi kim? 3. “Komiks” so‘zi qanday ma’noni bildiradi? **“Kichik guruhlarda ishlash” metodi** O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi. O‘qituvchi bir nechta tasvir tayyorlab keladi. O‘quvchilar “Mozaika” metodi asosida ishlaydilar. Buning uchun tasvirlar har bir guruhga teng ravishda tarqatiladi. Tasvirlar bo‘laklarga bo‘lingan bo‘lishi kerak. Tasvirlar o‘tilgan mavzularni takrorlash va yangi mavzuga bog‘lash asosida tanlanishi kerak.    Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni 	***Miniatyura*** (fransuzcha “miniature”, lotincha “minium” – *qizil bo‘yoq*) – badiiy usullari o‘ta nafis bo‘lgan kichik hajmli (mo‘jaz) tasviriy san’at asari. Miniatyura (mo‘jaz) rangtasviri deganda bejirim, juda kichik, nozik san’at asarlari tushuniladi. Miniatyura rangtasviri o‘rta asrlarda kitob bezagi bilan bog‘liq holda rivoj topdi. U kitoblardagi bosh, yakuniy bezak, zarhal harf, illyustratsiyalardan iborat bo‘lgan.

Asosiy qism



Rangtasvirning bu turi Sharqda, shu qatori Movarounnahrda katta shuhrat qozongan. O‘rta asrlar Sharq tasviriy san’atida uyg‘onish ro‘y berib, miniatyura san’ati ham rivojlandi. Miniatyura asosan kitob grafikasi yo‘nalishida gullab-yashnadi. Turli miniatyura maktablari paydo bo‘ldi:

– Arabiston miniatyura maktabi;
– Hindiston miniatyura maktabi;
– Eron miniatyura maktabi;
– Turk miniatyura maktabi;
– O‘rta Osiyo miniatyura maktabi.

Ayniqsa, O‘rta Osiyo miniatyura maktabining Tabriz yo‘nalishi namoyandalari bu san’at unga qadar rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. Bulardan Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Murod Samarqandiy kabi rassomlarni misol keltirish mumkin.

Ularning qadimiy qo‘lyozma asarlarga chizgan miniatyuralari hozirgi kunda ham o‘z jozibasini yo‘qotmagan.

Bu nodir asarlarni hozirgi kungacha yetib kelgan Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”, Alisher Navoiy, Nizomiyning “Xamsa”lari, Sa’diyning “Bo‘ston”, “Guliston” va boshqa tarixiy asarlarida ko‘rish mumkin.











www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Asosiy qism









XX asrda Usta Mo‘min, A. Siddiqiy, G. Nikitin, Ch. Ahmarov, T. Muhamedov kabi rassomlar ijodida miniatyura an’analari kuzatiladi.

Ch. Ahmarov miniatyura san’ati an’analarini o‘z ijodida davom ettirdi, uni yangicha mazmun, g‘oyalar bilan boyitdi. Uning shogirdlari ustoz ishini davom ettirib, miniatyura san’atini yangi bosqichga ko‘tardilar; miniatyura sohasi lokli miniatyura, qog‘oz, mato, teri, charmdagi miniatyura va devoriy ishlarni qamrab olib, keng ko‘lamli badiiy uslubiy yo‘nalishga aylandi.

Hozirgi kunda miniatyuraning uch yo‘nalishida – aynan qo‘lyozma (kitob) rasmlari (T. Muhamedov, Sh. Muhammadjonov, M. Salimov va boshqalar), lokli miniatyura (N. Xolmatov, A. Yo‘ldoshev, Sh. Shoahmedov va boshqalar) hamda miniatyura uslubida devoriy rasmlar yaratish (T. Boltaboyev, H. Nazirov, G‘. Kamolov va boshqalar) bo‘yicha ijodiy izlanishlar olib borilmoqda.



Amaliy ish





O‘quvchilarga slaydlar orqali miniatyura elementlarini ishlash tushuntiriladi.

Kompozitsiya ishlash bo‘yicha videolar namoyish qilinadi.

Miniatyura kompozitsiyasini elementlarni chizishdan boshlab o‘rgatiladi.

Doskada yordamchi tasvirlar ko‘rsatiladi.

Daraxt, gullar, suv va tog‘lar tasvirlanadi.

Qora qalamda elementlar chizib olinadi.


Tasvirni bo‘yashga tayyorgarlik ko‘riladi.

1



2




<table>
<tr><td rowspan="2">Asosiy qism</td><td></td><td>O‘quvchilarga amaliy ish bosqichlari tushuntiriladi.

</td></tr>
<tr><td colspan="2">Yangi darsni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Yakuniy qism</td><td></td><td>Miniatyura tasvirini oq, qora yoki rangtasvir fonida bo‘yaladi.

“Konfronto” metodi
Guruhlarga alohida rasmlarni tasviriy san’at turlari asosida bo‘yash topshiriladi.
Bunda bir guruh qora qalamdan, yana bir guruh rangli qalamdan, qolgan guruhlar bo‘yoqlardan foydalanishlari mumkin bo‘ladi.
O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar.
O‘quvchilar bajargan amaliy ishlar doskaga ko‘rgazma qilib osiladi va bo‘yash usullari taqqoslanadi.

Savol-javob asosida mustahkamlanadi.
O‘quvchilar bajargan ishlar baholanib, umumlashtiriladi.</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Sodda miniatyura kompozitsiyasini yakunlab kelish</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

17-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**“**Sirk” mavzusida kompozitsiya ishlash (erkin uslubda).
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga “Sirk” mavzusidagi kompozitsiyani erkin uslubda ishlash usullarini o‘rgatish va ularda tushuncha hosil qilish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarning ma’naviy bilimlarini o‘stirish, estetik didini tarbiyalash. San’atning turli zamonaviy uslub va yo‘nalishlariga o‘quvchilar qiziqishini oshirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning berilgan mavzu bo‘yicha mustaqil ravishda kompozitsiya ishlay olish ko‘nikmasini rivojlantirish
	CSMART maqsadi: 	**C** – o‘quvchi tasviriy san’atning yangi turlarini ajrata oladi. **S** – o‘quvchi tasvirni turli holatlarda ishlay oladi. **M** – o‘quvchi berilgan mavzu asosida xomaki tasvir va eskizni to‘g‘ri bajara oladi. **A** – o‘quvchi tasvirni ishlashda turli materiallarni to‘g‘ri tanlay oladi. **R** – o‘quvchi tasvir shakli va rangini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T** – o‘quvchi zamonaviy usulda kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Aralash (suhbat asosida amaliy mashg‘ulot)
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Ijodiy ish” metodi “Taqdimot” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	Darslik, rasm daftari, qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel va guash bo‘yoqlari, suv, palitra, maxsus mo‘yqalam.
	Sinf doskasining bezagi	 *Mavzuga oid asarlar* 
	Atamalar	Kompozitsiya, rangtasvir, grafika
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun o‘quv qurollarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.

	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilardan II-chorakda o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. – Siluet nima? – Illyustratsiya deb nimaga aytiladi? – Komiks nima? – Miniatyura san’atiga izoh bering. Barcha javoblar tinglanadi. O‘quvchilar baholanadi. Baholar izohlanadi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni “Namoyish” metodi  *Filip Astley* “Onlayn sayohat” metodi   	Doskaga sana, mavzu yoziladi: “Sirk” mavzusida kompozitsiya ishlash (erkin uslubda)”. O‘qituvchi**:** **– Sirk** (lotincha “circus” – “aylana”, “halqa”) tomosha san’atining bir turi. Sirk ko‘p hollarda yumaloq arena va baland gumbazli binoda joylashadi (ko‘chib yuruvchi sirklar shunday chodirlar tiklashadi). Sirkda ko‘zboylog‘ichlik, akrobatika, masxarabozlik, qo‘lga o‘rgatilgan hayvonlar bilan tomoshalar ko‘rsatiladi. Sirk san’ati turlari: akrobatika, gimnastika, ekvilibristika, klounada, jonglyorlik, polvonlik, illyuzionizm, ot o‘yinlari, dorbozlik, hayvon o‘rgatish kabi janrlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi sirk Angliyada 1768-yili Filip Astley (ingliz chavandozi, sirk egasi, tadbirkor va ixtirochi) tomonidan tashkil etilgan. Uni “zamonaviy sirk otasi” deb atashgan. Afsonaviy Toshkanboyevlar sulolasining asoschisi Toshkanboy Egamberdiyev 1866-yilning mart oyida Farg‘ona vodiysining Asaka qishlog‘ida tavallud topgan. Uning otasi – Egamberdi XIX asrning 50-yillarida Saudiya Arabistonining Makka va Madina shaharlariga haj safariga borib, aynan o‘sha yerda dorbozlik san’atini o‘rgandi. Yurtiga qaytgach, dor tikib, bu san’atni ommalashtirib, rivojlantirib, xalq orasida Hoji-dorboz nomi bilan tanildi. 2017-yilda Toshkanboyevlar sulolasining 150 yillik yubileyi keng nishonlandi. – O‘quvchilar, bugun sizlar bilan Toshkent sirkiga onlayn sayohat qilamiz. Sayohat slaydlar orqali amalga oshiriladi (onlayn sayohat slaydlar yordamida yoki internetdan Toshkent sirk sayti orqali namoyish qilinadi). 

Asosiy qism

O‘zbek davlat sirkining yangi binosi 1976-yilda qurib bitirilgan va 1999-yilda tubdan rekonstruksiya qilingan. 1942-yili, urush davri bo‘lishiga qaramay, bu yerda sirk tarixidagi birinchi milliy sirk guruhi – O‘zbek sirk jamoasi tashkil etildi. Uning tarkibiga mashhur dorboz Toshkenboyevlar, ot o‘rgatuvchi Muhammad Xo‘jayev, chavandoz Zaripovlar, havo gimnastlari Madaliyevlar, qiziqchi Akrom Yusupovlar kirib, zamonaviy o‘zbek sirkining eng yorqin namunalarini yaratishdi.

1991-yili Toshkent davlat sirkiga O‘zbekiston va Rossiya xalq artisti, dorbozlar sulolasi asoschisi Toshkenboy Egamberdiyev nomi berildi.

Sirk binosi original arxitekturaga, qulay tomosha zaliga ega bo‘lib, atrofi vestibyul, foye, garderob, bufet va xizmat xonalari bilan halqadek o‘rab olingan. Binoning rom-halqali konstruksiyasi foyeni ustunlardan xoli qilishga va tomoshabinlarning hordiq chiqarishlari uchun bir butun maydon tashkil etishga imkon yaratdi.

– O‘quvchilar, tasviriy san’atda juda ham ko‘p oqimlar, janrlar, uslublar va texnikalar mavjud. Masalan, realizm, abstrakt, puantilizm, kubizm va boshqalar. Siz yaratayotgan kompozitsiyangizni istalgan uslub va texnikada ishlashingiz mumkin. Muhimi, kompozitsiyangiz yorqin, original, puxta o‘ylangan hamda o‘zida kuchli g‘oyani mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim.

Amaliy ish



Grafika




Rangtasvir


“Ijodiy” ish metodi


O‘quvchilarga “Sirk” mavzusida rangtasvirda kompozitsiya ishlash bosqichlari amaliy tarzda ko‘rsatib beriladi.

Amaliy ishda o‘quvchilar o‘zlari erkin uslubda “Sirk” kompozitsiyasini ishlaydilar. Jarayonda o‘quvchilarning ishlari kuzatiladi, ularga amaliy yordam beriladi.











	Yangi darsni mustahkamlash	
Yakuniy qism		***Darsni mustahkamlash uchun savollar:*** – Kompozitsiya nima? – Kompozitsiyaning qanday qonun-qoidalarini bilasiz? – “Sirk” mavzusida kompozitsion asar yaratgan qaysi rassomlarni bilasiz? **“Taqdimot” metodi** O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar. O‘quvchilar bajargan amaliy ishlar doskada ko‘rgazma asosida baholanib, umumlashtiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	“Sirk” mavzusida erkin uslubda kompozitsiya ishlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

18-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Pop art uslubida hayvonlar tasvirini ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga pop art haqida tushuncha berish va bilimlarini amaliyotda mustahkamlash. Turli hayvon yoki qushlarni tasvirlashda xromatik ranglarni qo‘llash texnikasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning atrof-muhitga, jamiyatdagi yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanliklarini oshirish va ularga tasviriy san’atdagi turli o‘zgarishlarning to‘g‘ri talqinini tushuntirib borish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning pop art usulida mustaqil ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish
	CSMART maqsadi:  	**C –** o‘quvchi oq-qora yoki grafik usulda hayvon yoki qush tasvirini chiza oladi. **S** – o‘quvchi chizayotgan tasvirini to‘g‘ri komponovka qila oladi. **M** – o‘quvchi yordamchi chiziqlar bilan xomaki tasvirni ishlay oladi. **A –** o‘quvchi tasvirning eskizini ishlashda uning elementlarini bilan chiza oladi. **R –** o‘quvchi tasvirni turli shakllar va rangni to‘g‘ri tanlash asosida chiza oladi. **T –** o‘quvchi tasvir bajarishga yangicha yondashib, qiziqarli kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Aralash dars
	Dars metodi	“Klaster” metodi “Namoyish” metodi “Fikriy hujum” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar

<table>
<tr><td rowspan="3">Tashkiliy qism</td><td>Dars jihozi</td><td colspan="3">O‘qituvchi uchun: darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, molbert, markerlar, A3 o‘lchamli qog‘oz, guash bo‘yog‘i, mo‘yqalam, rangli bo‘rlar.
O‘quvchi uchun: qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalamlar, suv, palitra</td></tr>
<tr><td>Sinf doskasining bezagi</td><td></td><td>Pop art usulida ishlangan tasvirlardan namunalar</td><td></td></tr>
<tr><td>Atamalar</td><td colspan="3">Pop art, xromatik ranglar, axromatik ranglar</td></tr>
<tr><td></td><td colspan="4">DARSNING BORISHI</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Tashkiliy qism</td><td>Tashkiliy qism</td><td colspan="3">a) salomlashish;
b) davomatni aniqlash;
d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash;
e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash;
Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.</td></tr>
<tr><td>Uy vazifasini so‘rash va baholash</td><td colspan="3">O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.</td></tr>
<tr><td>Avvalgi darsni mustahkamlash

“Kompozitsiya” so‘zi lotincha bo‘lib, “yarataman, ijod qilaman” degan ma’nolarni anglatadi.</td><td colspan="3">O‘quvchilarni ikki guruhga bo‘lib olamiz.
Ulardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. Yangi mavzuga bog‘lanadi.
– Kompozitsiya nima?
– Kompozitsiyaning qanday qonun-qoidalarini bilasiz?
– “Sirk” mavzusida kompozitsion asar yaratgan qaysi rassomlarni bilasiz?
Doskada yoki guruhlar uchun ajratilgan joyda A3 o‘lchamda klaster tayyorlab qo‘yiladi.
Klasterni to‘ldiring.

Masalan, amaliy san’at, teatr san’ati, musiqa san’ati (musiqa yaratuvchilarni kompozitorlar deb ataymiz), raqs san’ati, adabiyot yo‘nalishida, kino san’atida va hokazo.
Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi.</td></tr>
</table>

	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni **“Namoyish” metodi**	Yangi mavzu o‘quvchilarga tushuntiriladi. Pop art – G‘arbiy Yevropa va AQSH tasviriy san’atida 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarda paydo bo‘lgan taraqqiyot yo‘nalishidir. Pop artning asoschilari va eng mashhur ijodkorlari Endi Uorxol va Jasper Jons. Pop art rasmlarida nima tasvirlangan bo‘lsa, har doim yorqin, rang-barang, ifodali va quvnoq bo‘ladi, shuning uchun ushbu ijro uslubi odamlarga yoqadi.     Bu usuldan zamonaviy dizayn san’atida ham foydalaniladi.   **“Namoyish” metodi** Grafikada turli hayvon yoki qushlardan birining tasvirini bajarish tushuntiriladi. Slaydlar yoki turli ko‘rgazmali tasvirlar, reproduksiya asarlari namoyish qilinadi. Doskada pop art usulida tasvir bajarish bosqichlari ko‘rsatiladi. A3 o‘lchamdagi qog‘ozga o‘qituvchi katta mo‘yqalam yordamida pop art usulida kompozitsiya ishlash bosqichini tasvirlab chiqadi.  
	Amaliy ish	O‘quvchilarga slaydlar orqali pop art usulida tasvir ishlash tushuntiriladi. Pop art kompozitsiyasini ishlash bo‘yicha animatsiyalar yoki videolar namoyish qilinadi.

Asosiy qism



Yangi darsni amaliy mashg‘ulot orqali “Fikriy hujum” metodi bilan davom ettiramiz.











O‘quvchilarga xayolan hayvonlarning pop art usulidagi 10 ligini o‘ylab topish topshirig‘i beriladi. Bu ijodiy ish guruh bilan bajariladi. Ma’lum vaqt ajratiladi. Bu metodda o‘quvchilar o‘z fikrlarini amaliy ko‘rsatib beradilar.

“Fikriy hujum” metodining asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir.









	Yangi darsni mustahkamlash	
Yakuniy qism	**“Galereya” metodi**	**“Galereya” metodi** orqali yangi dars mustahkamlanadi. O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar. Yangicha “Pop art galereyasi” taqdim qilinadi. O‘quvchilar guruh bo‘lib bajargan amaliy ishlar doskada ko‘rgazma asosida baholanib, umumlashtiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsni yakunlash  	Darslikda berilgan tasvirni ishlash 1  2  3  4 
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

19-dars

Tashkiliy qism

Dars mavzusi	Abstrakt kompozitsiyali maket yasash
Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga abstrakt kompozitsiya haqida tushuncha berish. Tasviriy san’atda turli xil maket yasash bosqichlarini o‘rgatish
Tarbiyaviy	O‘quvchilarning estetik didini tarbiyalash, ularni zamonaviy binolarni kuzatish va ularning ko‘rinishlarini to‘g‘ri talqin qila olishga o‘rgatish
Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning mustaqil maket yasashda kompozitsiya hosil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish
CSMART maqsadi: 	**C –** o‘quvchi tasvir yasashda o‘quv vositalarini ishlata oladi. **S** – o‘quvchi qog‘ozga tasvirning kerakli eskizini chiza oladi. **M** – o‘quvchi tasvir eskizini turli shakllar va geometrik jismlar asosida ishlay oladi. **A** – o‘quvchi kichik elementlardan yaxlit tasvir hosil qila oladi. **R** – o‘quvchi tasvir shakli va rangini to‘g‘ri tanlay oladi. **T** – o‘quvchi tasvir yasashda kompozitsiya tuza oladi.
Dars turi	Aralash
Dars metodi	“Guruhlarda ishlash” metodi “Xotira” metodi “Tasvirni aniqlang” metodi “Modellashtirish” metodi “Taqdimot” metodi
Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, qog‘ozli maket ishlaridan namunalar
Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** doska, namunali ishlar, karton, qalam, o‘chirg‘ich, chizg‘ich, sirkul, qaychi, qog‘oz, yelim, shablonlar. **O‘quvchi uchun:** rasm daftari, karton, turli qattiqlikdagi grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, chizg‘ich, sirkul, qaychi, qog‘ozlar va yelim.
Sinf doskasining bezagi	 *Abstrakt usulda bajarilgan maketlardan namunalar* 
Atamalar	Abstrakt, maket, grafit qalam

	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) doskaga mavzuni yozib, darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik 3 guruhga ajratish va guruhlarni nomlash.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi mavzu bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	**“Guruhlarda ishlash” metodi** asosida o‘tilgan dars takrorlab olinadi. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib olamiz, dars davomida shunday ishlaymiz. O‘tgan darsni takrorlash uchun savol-javob qilinadi. 1. Avvalgi darsimizda tasviriy san’atning qanday yangicha usulini o‘rgandik? 2. Pop art qayerda paydo bo‘lgan? 3. Pop artning asoschilari va eng mashhur namoyandalari kimlar? Guruhlarning javoblari tinglanadi. Oldingi dars mustahkamlanadi va o‘quvchilarning uyda bajarib kelgan ishlari baholanadi. Guruhlarning diqqatini jamlash uchun turli metodlardan foydalanib dars o‘tiladi. **“Xotira” metodi** Xotira mashqi tasviriy san’atning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. O‘quvchining tasvirlardagi ko‘zga ko‘rinmas elementlargacha ahamiyat berib, eslab qolishi uning kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi.     Bu metodda guruhlar bilan ishlanadi. Bunda o‘qituvchi tayyorlab kelgan tasvir ko‘rsatiladi (bu dars uchun turli shakllar nazarda tutilgan). Guruhlar doskadagi tasvirni diqqat bilan kuzatadilar. So‘ng tasvir berkitib qo‘yiladi. Guruhlarga shu tasvirning nusxalari tarqatiladi. Guruhlarning vazifasi bu tasvirning yetishmayotgan elementini (raqami, rangi bo‘lishi mumkin) topadilar. Ma’lum vaqt beriladi. Vaqt tugagach, nusxalar doskadagi tasvir bilan solishtiriladi.

Tashkiliy qism		**“Tasvirni aniqlang” metodi** Guruhlarga 3–5 ta yoki undan ko‘proq rasmlar tarqatiladi. Guruhlar uchun bir xil rasm berilishi lozim.  Bu rasmlarning qiziqarli tomoni chala chizilgan ekanidir. Guruhlar bu tasvirlarda nima chizilganligini aniqlaydilar. Ularga ma’lum vaqt beriladi. Guruhlar javobi o‘qituvchidagi tasvirlar bilan solishtirilib, javoblar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekani aniqlanadi. Savollar yoki didaktik materiallar o‘tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuga bog‘lab o‘tish asosida tuzilishi ham mumkin. Guruhlar topshiriqni tez va to‘g‘ri bajarishiga qarab baholab boriladi. O‘quvchilarning javoblari umumlashtiriladi. Guruhlar umumiy baholanadi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni Amaliy ish  	**Abstraksiya** (lotinchadan olingan, “abstractio” – *chalg‘itish, ajratish, istisno qilish*) – abstrakt usulda yaratilgan ideal (haqiqatda mavjud bo‘lmagan) obyekt. **Maket –** xomaki loyiha, mavjud inshoot, ansambl, me’moriy majmuaning kichraytirib tayyorlangan nusxasi. Arxitektura va interyer sohalarida maket muhim hisoblanadi. Yaxshi maket loyihasini yaratish uchun foydalaniladigan material va vositalar yuqori sifatli bo‘lishi talab qilinadi. Maket yasashda materiallar ikkita asosiy guruhga bo‘linadi: asosiy va yordamchi. Asosiy materiallarga quyidagilar kiradi: qog‘oz, karton, penoplast va plastmassa. Yordamchi materiallarga maxsus yasalgan daraxtlar, chiroqlar, odamlar, o‘rindiqlar, avtomobillar, gazon kabilar kiradi. Biz darsda qattiq qalin qog‘oz yoki kartondan foydalanamiz.

Asosiy qism








Abstrakt maket deganda noan'anaviy tasavvur yordamida yaratilgan maketlar tushuniladi. Abstrakt maketlarga Zaha Hadid loyihalagan zamonaviy binolarni misol keltirishimiz mumkin.





Maketlarni turli geometrik shakllar asosida yasash mumkin. Masalan, aylana yoki qirrali ko'pyoqlar usulida. Misol uchun:







Asosiy qism














Asosiy qism


Amaliy ish












“Modellashtirish” metodi


Guruhlarga turli shablonlar beriladi. Bu shablonlar asosida jamoa bo‘lib ishlaydilar.

Shablonlar geometrik shakllardan iborat.

Berilgan shablonlardan guruh a’zolari geometrik figuralar yasab, bir-biriga bog‘lash orqali yangicha kompozitsiya yaratadilar.










Tayyor bo‘lgan geometrik jismlardan abstrakt kompozitsiya yasaydilar.



Bu kompozitsiyaga oq va rangli qog‘ozlar bilan bezak berishlari mumkin.

Asosiy qism	Turli geometrik jismlardan yasalgan kompozitsiya namunalari 	 
	Yangi darsni mustahkamlash	
Yakuniy qism	 	**“Taqdimot” metodi** Guruhlar tayyorlagan kompozitsiyasini taqdimot qiladilar. Tayyorlangan maketli kompozitsiyalarni qayerlarda ishlatish mumkinligi guruh bilan kelishgan holda aytiladi.   ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:*** 1. Maket nima? 2. Maketda masshtab deganda nimani tushunasiz? 3. Maket yasash uchun qanday materiallar zarur? Mavzu asosida savol-javob o‘tkaziladi, faol guruh rag‘batlantiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Abstrakt kompozitsiyali maket ishlashni davom ettirish va yakunlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

20-mavzu

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	3D uslubida rasm ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga axromatik va xromatik ranglar bilan 3D usulida tasvir ishlash haqida ma’lumot berish va amalda bajara olish ko‘nikmasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning atrof-muhitga, jamiyatdagi yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish, tasviriy san’atning grafika turiga qiziqishini oshirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning zamonaviy usullarda mustaqil ravishda tasvir ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish
	CSMART maqsadi: 	**C –** o‘quvchi tasvir ishlashda yangicha o‘quv vositalaridan foydalana oladi. **S –** o‘quvchi qog‘oz yuzasiga tasvirni to‘g‘ri komponovka qila oladi **M –** o‘quvchi tasvir eskizini yordamchi chiziq bilan ishlay oladi. **A** – o‘quvchi tasvir ishlashda yorug‘-soya qoidalariga rioya qiladi. **R** – o‘quvchi tasvir shakli va rangini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T** – o‘quvchi tasvir asosida kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Guruhlarda ishlash” metodi “Charxpalak” metodi “Applikatsiya” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, molbert, markerlar, A3 o‘lchamdagi qog‘oz, guash bo‘yog‘i, mo‘yqalam va bo‘r. **O‘quvchilar uchun:** turli qattiqlikdagi grafit qalamlar to‘plami, mum qalamchalari, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalamlar, suv, palitra.
	Sinf doskasining bezagi	 *3D usulida ishlangan tasvirlardan namunalar* 
	Atamalar	3D tasvir, freska, madonnarilar

	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. “**Guruhlarda ishlash” metodi** orqali ularni guruhlarga bo‘lib olamiz. Berilgan savollarga guruh bilan kelishgan holda javob berishadi. Javoblar yangi mavzuga bog‘lanadi. 1. Maket nima? 2. Maketda masshtab deganda nimani tushunasiz? 3. Maket yasash uchun qanday materiallar zarur? Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni   	**3D tasvir** bu – tasvirning uch o‘lchamli (balandlik, kenglik va chuqurlik) illyuziyasini yaratishdir. Uch o‘lchamli tasvirlash uslubi miloddan avvalgi V asrda Yunonistonda paydo bo‘lgan. Qadimiy Yunoniston, Rim, Misr, Mesopotamiya tarixiy manbalarida, qabrlarda, saroy va muzey devorlaridagi qadimiy tasvirlarda bu usulda ishlangan suratlarni ko‘rishimiz mumkin. **Muraling** – devorlar yoki shiftlarga tasvir yaratish usulidir. Tasvirlarni chizish, bo‘yash, o‘yib ishlash asosida ilk freskalar paydo bo‘ldi. Bu tasvirlarda illyuziya optik va chuqurlik ko‘rinishida tasvirlangan. XVI asrdan tasviriy san’atda “ko‘cha freskalari” usulida chizish harakati boshlandi. O‘sha vaqtlarda sayohatchi rassomlar Yevropa bo‘ylab sayohat qilib, shahar aholisi uchun jamoat joylarida “ko‘cha freskalari”ni yaratdilar. Ko‘cha rassomlari tomonidan yaratilgan bu tasvirlar “madonnari” yoki “efemerlar” (chizmalarning mo‘rtligi sababli) deb nomlangan. XX asrning 60–70-yillarida esa zamonaviy “ko‘cha freskalari” paydo bo‘ldi, ular shahar muhitini loyihalashda yangi imkoniyatlar yaratdi. Bugungi kunda bu usulning turli ko‘rinishlarini ko‘chalarda, bo‘sh devorlarda va boshqa shahar obyektlarida, manzaralarning yorqin tasviri shaklida ko‘rishimiz mumkin. Ikkinchi jahon urushidan keyin ko‘cha rassomlari uchun qiyin davrlar keldi. 1972-yilda ko‘cha rassomlarining yangi avlodi paydo bo‘ldi va Shimoliy Italiyaning Kurtatone shahrida Xalqaro ko‘cha san’ati festivaliga asos solindi. O‘shandan beri

Asosiy qism		bu an’anani davom ettirish harakatida ko‘plab rassomlar ushbu qadimiy san’at turi uchun yangi yechimlar, materiallar va usullarni taqdim etishmoqda.  
	Amaliy ish 	O‘quvchilarga slaydlar orqali siluet usulida tasvir ishlash tushuntiriladi. **“Charxpalak” metodi** 3D kompozitsiyasini ishlash usullari animatsiyalar yoki video roliklar yordamida namoyish qilinadi. Shunday qilib, hajm yordamida siz xayoliy 3D effektini yaratishingiz mumkin. Hajmlar ifodasi asosan soyalarning xususiyatlariga bog‘liq. Uch o‘lchamli tasvirda obyektlar yorug‘likni aniqlashga imkon beradigan joylarda soya soladi.   

Tashkiliy qism









“Applikatsiya” metodi

O‘quvchilar kesib, yelimlab tasvirlash asosida yangi mavzuni yaxshi o‘zlashtiradi.
















	Yangi darsni mustahkamlash	
Yakuniy qism		3D kompozitsiyasini oq, qora yoki rangli fonda tasvirlash mumkin. Bundan tashqari, applikatsiya usulidan ham foydalanish mumkin. O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar. O‘quvchilar bajargan amaliy ishlar doskada ko‘rgazma asosida baholanib, umumlashtiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Darslikda berilgan tasvirni yakunlab kelish
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

21-mavzu

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	“Zentangle” va “Doodling” uslubida rasm ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga zamonaviy bezak elementlari haqida tushuncha berish. “Zentangle” va “Doodling” uslubida tasvir bajarish haqida ma’lumot berish va amalda bajara olish ko‘nikmasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning atrof-muhitga, jamiyatdagi yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning zamonaviy usullarda mustaqil tasvir ishlay olish ko‘nikma va malakasini shakllantirish
	CSMART maqsadi: 	**C –** o‘quvchi tasvir ishlashda turli badiiy bezak elementlarini farqlay oladi. **S –** o‘quvchi qog‘oz yuzasiga tasvirni to‘g‘ri komponovka qila oladi. **M –** o‘quvchi tasvir eskizini yordamchi chiziq bilan ishlay oladi. **A** – o‘quvchi tasvir ishlashda zamonaviy badiiy bezak elementlarini to‘g‘ri qo‘llay oladi. **R** – o‘quvchi tasvir shakli va rangini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T** – o‘quvchi tasvir bajarishda yangicha kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Aqliy hujum” metodi “Xatoga yo‘l qo‘ymoq” metodi “Modellashtirish” metodi “Ijodiy ish” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, “Zentangle” va “Doodling” usulidagi ishlardan namunalar
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, molbert, markerlar, A3 o‘lchamdagi qog‘oz, oddiy va rangli bo‘rlar to‘plami. **O‘quvchilar uchun:** oddiy qora qalam va rangli qalamlar to‘plami, mum qalamchalari, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel bo‘yog‘i, mo‘yqalam.

	Sinf doskasining bezagi 		*“Zentangle” va “Doodling” uslubida ishlangan tasvirlardan namunalar*	
	Atamalar	3D tasvir, freska, madonnarilar		
	DARSNING BORISHI			
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.		
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.		
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. Berilgan savollarga guruh bo‘lib yoki yakka tartibda javob qaytariladi. **“Xatoga yo‘l qo‘ymoq” metodi** Bu metodda yonma-yon o‘tirgan o‘quvchilar bir-birlariga savol beradilar va javobni xato aytadilar. Bu metodda o‘quvchidan ziyraklik talab qilinadi. Guruhlar bilan ishlansa, vaqt tejaladi va o‘zaro bahs-munozara yuzaga keladi. Bu metodda o‘tilgan mavzuni o‘quvchi qanchalik o‘zlashtirganini bilib olish mumkin. Savol-javoblar umumlashtiriladi. O‘tilgan dars yuzasidan savol-javob qilinadi va yangi mavzuga bog‘lanadi. 1. 3D tasvir qachon paydo bo‘lgan? 2. 3D ning asoschilari kimlar? 3. 3D tasvirning asosi bu – … Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.		
	Darsni maqsadli tashkil qilish			
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni	**“Aqliy hujum” metodi** Doskaga “NAQSH” so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilarning fikrlari eshitiladi. O‘quvchilar “NAQSH” so‘zi asosida turli fanga doir fikrlarni muhokama qiladi. So‘ng “NAQSH” so‘zi amaliy san’atning badiiy bezak elementlaridan biri ekanini o‘qituvchi o‘quvchilar bilan muhokama qiladi. NAQSH elementlari ikki usulda: islimiy va girihli tarzda bajarilishi tushuntirib ketiladi.		

Asosiy qism	    	“Naqsh” so‘zi asosida fikrlar yangi mavzuga bog‘lanadi. “Zentangle” va “Doodling” uslubi **Rik Roberts** va **Mariya Tomas** tomonidan ixtiro qilingan. **“Zentangle”** bu – bir vaqtning o‘zida bir nechta yo‘nalishlarni birlashtirgan yangi san’at turi, ijodkorlik, meditatsiya, zavqlanish va mustaqil ish sifatida qimmatli yoki deyarli har qanday naqshni bezatadigan original chizmalar yaratish usuli. To‘liq intuitiv chizishni o‘z ichiga olgan shunga o‘xshash chizma usullaridan farqli o‘laroq, “Zentangle” ishi odatda takrorlanadigan NAQSHlardan iborat. Ko‘pgina NAQSHlarni bitta rasmda birlashtirish mumkin va texnikaning o‘zi juda erkin va intuitivdir. Agar siz umuman chiza olmayman deb o‘ylasangiz ham, “Zentangle” texnikasida o‘ziga xos va qiziqarli asarlar yaratishingiz mumkin. “Zentangle” 2006-yilda san’at turi sifatida rasman ro‘yxatga olingan. **“Doodling”** (inglizcha “doodle” – “chizma”) bu – zamonaviy san’at turi va aniq badiiy qobiliyatga ega bo‘lmagan odamlar uchun ham qulay bo‘lgan chizish uslubi. Butun san’at asarlarini oddiy jingalaklardan yasaydigan ushbu janr muxlislari dunyoda juda ko‘p. Uning ma’nosini faqat vaqt o‘tkazishda deyish noto‘g‘ri bo‘lar edi. Ma’lum bo‘lishicha, “Doodling” kuchli terapevtik ta’sirga ham ega. 
	Amaliy ish 	O‘qituvchi o‘quvchilarga doskada “Zentangle” va “Doodling” usulida tasvir ishlashni tushuntirib beradi. **“Modellashtirish” metodi** O‘quvchilar turli geometrik shakllar ichiga “Zentangle” elementlarini chizib, kompozitsiya hosil qiladilar. Bu elementlar shaklning ko‘rinishiga mos kelishi kerak. O‘quvchilarning ishlari dars davomida kuzatib boriladi. Har bir ishning kamchilik va yutuqlari ko‘rsatib turiladi. Bu usulda ishlashda qalam, qora yoki rangli ruchkadan foydalansa ham bo‘ladi. 


Asosiy qism



































Klassik “Zentangle” har doim 8,9 cm bo‘lgan kvadrat oq qog‘ozga qora siyoh bilan chiziladi. O‘zingizga mos keladigan har qanday qog‘oz va qulay qalam (jel, yumshoq shar, kapillyar, rolik, yupqa flomaster) yordamida ijodni boshlashingiz mumkin.

Ijodingiz ideal holda mavhum bo‘lishi kerak.


“Zentangle” monoxrom bo‘lishi kerak, shuning uchun bitta kontrast rangga ega bo‘lgan tekis qog‘oz varag‘iga chizamiz (dastlab oq qog‘oz va qora rasm). Biroq asoslarni o‘zlashtirganingizdan so‘ng, rangli tasvirlar ham ishlashingiz mumkin.

	Yangi darsni mustahkamlash	
Yakuniy qism	   	**“Ijodiy ish” metodi** O‘quvchilar “Zentangle” yoki “Doodling” kompozitsiyasini qora yoki rangli ruchkadan foydalanib ishlaydilar. Tasvir yanada qiziqarli chiqishi uchun unga rangli qalam yoki bo‘yoqlar bilan fon beriladi.    O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar. Bajarilgan amaliy ishlar doskada ko‘rgazma asosida baholanib, umumlashtiriladi.

	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Darslikda berilgan tasvirni yakunlab kelish 
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

22-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Mozaika uslubida tasvir ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarda mozaika usulida tasvir ishlash ko‘nikmasini mustahkamlash. Turli materiallar, rangli qog‘ozlar, jurnal va gazetalarning rangli bo‘laklaridan tasvir ishlash haqida ma’lumot berish va amalda bajara olish ko‘nikmasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularda milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, milliy san’at namunalarini avaylab-asrash, jamiyatdagi yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanlikni o‘stirish. Tasviriy san’atning turli uslub va yo‘nalishlariga qiziqishini oshirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning mozaika usulida mustaqil ravishda tasvir ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish
	CSMART maqsadi 	**C –** o‘quvchi mozaika turlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi tasvirni to‘g‘ri komponovka qilib ishlay oladi. **M –** o‘quvchi berilgan mavzu asosida xomaki tasvir va eskizni to‘g‘ri bajara oladi. **A** – o‘quvchi tasvirni ishlashda turli materiallarni to‘g‘ri tanlay oladi. **R** – o‘quvchi tasvir shakli va rangini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T** – o‘quvchi tasvir asosida rangli kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Aralash (suhbat asosida amaliy mashg‘ulot)
	Dars metodi	“Mozaika” metodi “Klaster” metodi “Namoyish” metodi “Ijodiy ish” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, molbert, A3 o‘lchamdagi qog‘oz, rangli qog‘ozlar to‘plami, rangli gazeta va jurnal, yelim va qaychi. **O‘quvchilar uchun:** qalam, rangli qog‘ozlar to‘plami, o‘chirg‘ich, yelim, qaychi, rasm daftari.

	Sinf doskasining bezagi		*Mozaika usulida ishlangan tasvirlardan namunalar*	
	Atamalar	Mozaika		
	DARSNING BORISHI			
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.		
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.		
	Avvalgi darsni mustahkamlash	**“Mozaika” metodi** O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. 1. “Zentangle” qachon paydo bo‘lgan? 2. “Zentangle” va “Doodling”ning asoschilari kimlar? 3. “Doodling” so‘zining tarjimasi qanday? *Berilgan tasvirni bir necha bo‘laklarga bo‘lib, orqasiga takrorlash uchun savollar yoziladi. To‘g‘ri topilgan javob bo‘lagi doskaga yopishtirib boriladi. Tasvir ham o‘tilgan mavzu asosida bo‘lishi kerak.*  *Shu tartibda o‘tilgan mavzu mustahkamlanib, yangi mavzuga bog‘lanadi.*		
	Darsni maqsadli tashkil qilish			
	Yangi mavzu bayoni	O‘qituvchi tayyorlab kelgan slaydlar yoki turli ko‘rgazmali tasvirlar, reproduksiya asarlari namoyish qilinadi. **Mozaika** (fransuzcha “masaique” – *muzalarga bag‘ishlangan*) – bir xil yoki turli xomashyo (koshin, tosh, yog‘och, marmar, metall va boshqalar) bo‘laklaridan ishlangan tasvir, naqsh. Mozaika tarixi miloddan avvalgi 4-mingyillikning 2-yarmiga to‘g‘ri keladi. Arxeologlarning topilmalariga ko‘ra, Mesopotamiyaning Shumer shahri saroylari va ibodatxonalarida yog‘och devorlarning qoplamasi mozaika usulida tayyorlangan.		

Asosiy qism



Bu mozaikalarda zigzag, romb, uchburchak va shu kabi geometrik shakllardan naqshlar hosil qilingan. Miloddan avvalgi VIII asrga kelib toshli mozaika texnikasidan foydalanish boshlangan.

Qadimiy O‘zbekiston hududida mozaikaning **mayollika** usulidan foydalanilgan.

Mayollika usulida maxsus loy bo‘laklari kuydirilib, keramika plitkalari hosil qilingan, tayyor bo‘lgan turli shaklli keramika plitkalarini devorlarga yopishtirib, naqsh kompozitsiyasi hosil qilingan. Temuriylar davriga kelib binolar ustki qismi shunday usulda bezatilgan.










Devonbegi peshtoqiga ishlangan afsonaviy qush kompozitsiyasi. Mozaika.

“Klaster” metodi











Asosiy qism





Mozaika mahobatli (monumental) va dastgohli turlarda. Mahobatli mozaika asosan binolar va katta hajmdagi bezakli ko‘rinishlarda, dastgohli mozaika esa kichik hajmdagi asarlar yaratishda qo‘llanadi.



O‘zbekiston davlat amaliy san’at muzeyi devoriga ishlangan kompozitsiya. Mozaika.

Amaliy ish




“Namoyish” metodi

O‘qituvchi tayyorlab kelgan slayd yoki videorolik namoyish qilinadi (mozaika usul va turlari haqida).


Doskada mozaika usulida tasvir bajarish jarayonlari ko‘rsatiladi.





O‘quvchilar mozaika usulida to‘tiqush tasvirini ishlaydilar. Buning uchun avval to‘tiqush rasmi chizib olinadi.





Asosiy qism



So‘ng tasvirni bo‘yash o‘rniga unga rangli qog‘ozlardan tayyorlangan turli burchakli shakllarni yopishtiramiz. Bu jarayonda mozaika bo‘laklarini chiroyli joylashtirish kerak bo‘ladi.

Mozaika bo‘laklarini tayyorlash uchun to‘tiqush ranglarini kuzatish va shu asosda uydagi keraksiz rangli jurnal, katalog va shunga o‘xshash turli rangli qog‘oz parchalarini ishlatish mumkin. To‘tiqushning rangli shakllarini kesib olib, tasvirga yelim yordamida yopishtiramiz.














“Ijodiy ish” metodi

O‘quvchilar turli materiallardan (rangli jurnal, kataloglar, mato, nozmunchoq, dekorativ toshchalar, tuxum po‘chog‘i bo‘laklari, qog‘oz texnikasi) foydalanib ijodiy kompozitsiya yaratadilar.







	Yangi darsni mustahkamlash	
Yakuniy qism		**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:** 1. Mozaika nima? 2. Mozaika janrida ijod qilgan rassomlardan kimlarni bilasiz? 3. Mozaikaning applikatsiyadan farqi nimada? O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar. O‘quvchilarning amaliy ishlari doskada ko‘rgazma asosida baholanib, umumlashtiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash 	“To‘tiqush” tasvirini mozaika usulida ishlab yakunlash 
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

23-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Turli materiallardan fantastik obrazlar yasash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga turli materiallardan fantastik haykal yasash haqida ma’lumot berish va buni amalda bajara olishga o‘rgatish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni ish joylarini to‘g‘ri tashkil qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o‘rgatish, estetik didini tarbiyalash
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning haykaltaroshlikning zamonaviy turlari haqidagi bilimlarini rivojlantirish
	STEAM maqsadi 	**S** (science) – tabiiy fanlar **T** (technology) – texnologiya **E** (engineering) – muhandislik **A** (art) – san’at **M** (math) – matematika
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Guruhlarda ishlash” metodi “Qiziqarli geografiya” metodi “Eng-eng” metodi “Breyn daqiqa” metodi “Bu qiziq” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar

Tashkiliy qism	Dars jihozi	Rasm daftari, turli qattiqlikdagi va yumshoq grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, turli qalinlikdagi egiluvchan simlar (1,6 mm va 0,88 mm), alyuminiy folga, maskalanuvchi lenta (qurilish qog‘oz skotchi), plomba shlaklari (masalan, “Spackle”, “Polyfilla”), polimer loy (masalan, “Fimo” yoki “Sculpey”), yupqa paxta mato, oq yelim (PVA), bo‘yoq va loklar
	Sinf doskasining bezagi	 *Haykaltaroshlik namunalari* 
	Atamalar	Fantastika, gorelyef, barelyef, relyef, dumaloq haykallar, modern, “Art Nouveau”, kubizm, geometrik abstraksiya, de stil, supermatizm, konstruktivizm, dadaizm, syurrealizm, futurizm, ekspressionizm, minimalizm, postminimalizm, land art, konseptual
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini guruhlarga ajratish.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi mavzu bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	Mavzuni mustahkamlash uchun savollar: – Mozaika nima? – Mozaika janrida ijod qilgan rassomlardan kimlarni bilasiz? – Mozaikaning applikatsiyadan farqi nimada?
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni 	Zamonaviy haykaltaroshlik ham barcha zamonaviy san’atlar qatori rivojlanyapti. Bunda turli materiallardan foydalanib kelinmoqda. Loy, gips, plastilin, yog‘och, shisha, marmar, toshlar, turli xildagi metallar hamda ikkilamchi mahsulotlar shular jumlasidan. Modern haykaltaroshlikka “Art Nouveau”, kubizm, geometrik abstraksiya, de stil, suprematizm, konstruktivizm, dadaizm, syurrealizm, futurizm, ekspressionizm, pop art, minimalizm, postminimalizm, land art, konseptual san’at va boshqalar kiradi. Qanotli uchar ot haqida ko‘plab afsonalarni bilamiz va ularni badiiy asarlarda, kinofilmlarda uchratganmiz. U yaxshilik timsoli sifatida insonlarga yordam beradi, ojizlarni himoya qiladi, adolat yo‘lida kurashadi. Hayotda esa ushbu mavjudot yo‘q ekanini yaxshi bilsak-da, uning rasmini turli ko‘rinishda chizishga, yasashga harakat qilamiz. Barchamiz o‘z tasavvurimiz

Asosiy qism		asosida uning obrazini gavdalantiramiz. Kelinglar, bugungi darsimizda plastilin yoki uyimizda mavjud ikkilamchi mahsulotlardan qanotli uchar ot obrazini yasab ko‘ramiz. 
	Amaliy ish  	**S – tabiiy fanlar bilan integratsiya** **“Qiziqarli geografiya” metodi** Bunda guruhlar bilan ishlanadi. Mavzu geografiya faniga bog‘lanadi. Mavzuga oid tasvir ko‘rsatiladi. Masalan, shahar gerblari va ko‘zga ko‘ringan haykaltaroshlik namunalari. Har bir guruh ko‘rsatilgan shahar yoki mamlakat nomini topadi. 1  2  3  4  1. Musiqa saroyi, Barselona. 2. Polshadagi opera teatri. 3. Smartfondan yasalgan Pegas haykali, Barselona. 4. Angliyadagi haykaltaroshlik namunasi. Guruhlar javobiga qarab baholab boriladi. **T – texnologiya fani bilan integratsiya** Haykaltaroshlikda ishlatiladigan turli loylarni tayyorlash texnologiyasi haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Darsda maxsus loydan tashqari havo plastilini va turli ikkilamchi materiallardan foydalaniladi va ularni ham amaliy mashg‘ulot uchun tayyorlab qo‘yiladi.

Asosiy qism









E – muhandislik guruhi
“Eng-eng” metodi

Guruhlar uchar ot tasvirining eskizini chizadilar.







A – san’at guruhi
“Breyn daqiqa” metodi

Guruhlarga avvalgi dars mavzusi yuzasidan savollar beriladi.

1. Haykaltaroshlikka izoh bering.
2. Haykaltaroshlik grafika, rangtasvirdan qanday farq qiladi?
3. Haykaltaroshlikning qanday turlari bor? Ularga izoh bering.
4. Dumaloq haykaltaroshlik nima?







O‘quvchilarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.

Guruhlar tasvir bajarish turlarini bo‘lib oladilar.

Masalan, 1-guruh loydan, 2-guruh simlardan, 3-guruh havo plastilinidan tasvir bajaradilar.

		M – matematika guruhi Guruhga simmetriya, nisbatlar, taqqoslash asosida vazifa beriladi. Doskadagi tasvir asosida vazifalar: 1-guruh tasvir simmetriyasini, 2-guruh tasvir nisbatlarini o‘rganadi, 3-guruh esa tasvirni taqqoslaydi.
	Yangi darsni mustahkamlash	
Yakuniy qism		Darsni mustahkamlash uchun savollar: – Ikkilamchi mahsulot deganda nimani tushunasiz? – Fantastik obraz nima? – Zamonaviy haykaltaroshlardan kimlarni bilasiz? Guruhlarning amaliy ishlari baholanadi va rag‘batlantiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Turli materiallardan fantastik obrazlar yasash 
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

3-NAZORAT ISHI. 25-DARS

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	“Doodling” usulida rasm ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarda “Zentangle” va “Doodling” usulida tasvir ishlash malakasini mustahkamlash va amalda bajara olish ko‘nikmasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularda yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanlikni o‘stirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning zamonaviy usullarda mustaqil tasvir ishlay olish ko‘nikma va malakasini shakllantirish
	CSMART maqsadi 	**C –** o‘quvchi tasvir ishlashda turli badiiy bezak elementlarini farqlay oladi. **S –** o‘quvchi qog‘oz yuzasiga tasvirni to‘g‘ri komponovka qilib ishlay oladi. **M –** o‘quvchi tasvir eskizini yordamchi chiziq bilan ishlay oladi. **A** – o‘quvchi tasvir ishlashda zamonaviy badiiy bezak elementlarini to‘g‘ri qo‘llay oladi. **R** – o‘quvchi tasvir shakli va rangini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T** – o‘quvchi tasvir bajarishda yangicha kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Nazorat ishi (egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarni mustahkamlash)

Tashkiliy qism	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Ijodiy ish” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, “Zentangle” va “Doodling” usulidagi ishlardan namunalar
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, molbert, markerlar, A3 o‘lchamdagi qog‘oz, oddiy va rangli bo‘rlar to‘plami. **O‘quvchilar uchun:** oddiy qora qalam va rangli qalamlar to‘plami, qora va rangli ruchkalar, mum qalamchalari, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel bo‘yog‘i, mo‘yqalam.
	Sinf doskasining bezagi	 *“Doodling” uslubida ishlangan tasvirlardan namunalar* 
	Atamalar	“Zentangle”, “Doodling”, “Zendoodling”
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarining amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. Savollarga guruh bo‘lib yoki yakka tartibda javob beriladi. Javoblar yangi mavzuga bog‘lanadi. 1. Kinetika nima? 2. Haykaltaroshlikda qanday kinetik haykallarni bilasiz? 3. Mashhur kinetik haykaltaroshlardan kimlarni bilasiz? Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
	Yangi mavzu bayoni	**“Namoyish” metodi** **Doodling** – oddiy shakllardan chizish texnikasi (nuqtalar, doiralar, chiziqlar, tire, squiggles – doodles). Ingliz tilidan tarjima qilinganda “hech qanday ma’noga ega bo‘lmagan qoralama” degani. “Doodle”lar birlashtirilganda ajoyib rasmga aylanadi. Ko‘pincha maktab o‘quvchilari va talabalar zerikarli ma’ruzalarda, daftarlarga rasm chizishni yaxshi ko‘radilar.

Asosiy qism



Oddiy shakllar bilan chizishni boshlagach ham, oxir-oqibat rasm nimaga aylanishini bilmaysiz. Qo‘l chizadi, miya dam oladi va ko‘zlar sodir bo‘layotgan narsadan zavqlanadi.

Ushbu usulda chizishni boshlash juda oson: qora yoki rangli qalam olib, chiziqlar, burmalar, doiralar, nuqtalar chizishni boshlang va jarayondan zavqlaning.


“Doodling” – ma’lum bir ma’no bildirmaydigan turli xil elementlar to‘plami. Chizma ma’lum bir mavzuda bo‘lishi mumkin, ko‘pincha yakuniy rasm faqat chizib bo‘lgach hosil bo‘ladi.

“Doodling” boshqa harakatlar bilan parallel ravishda amalga oshirilishi mumkin, masalan, telefon suhbati, ma’ruza yoki vebinar paytida. Uning yana bir xususiyati shundaki, chizma aniq o‘lchamlarga ega emas, u bir necha santimetr bo‘lishi, har qanday muntazam yoki tartibsiz shaklda yoki ulkan varaqni egallagan bo‘lishi mumkin va siz uni cheksiz davom ettirsangiz bo‘ladi.

“Zentangle” – ijodkorlik va meditatsiyani birlashtirgan patentlangan rasm texnikasi. Aslida, bu bir xil chizmalar, bir xil “squiggles” va oddiy “doodle”lardir, lekin panjara ichiga o‘ralgan. Klassik “Zentangle” 8,9 x 8,9 cm li varaqlarda takrorlanuvchi elementlar yoki NAQSHlar yordamida chiziladi. “Zentangle”da aniq rasm yo‘q. Bu – naqshlar to‘plami. Haqiqiy “Zentangle” bir qarashda qora va oq quroqqa o‘xshaydi. Xuddi yamoqli choyshabning bir turidek. “Zentangle” va “Doodling” ijodkorlikni rivojlantirishga, ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga yordam beradi, ishonchni oshiradi, diqqat, fikrlash va xotira kabi aqliy jarayonlarni rivojlantiradi. Bundan tashqari, siz xotirjam bo‘lib, kayfiyatingizni yaxshilashingiz mumkin.







Asosiy qism

Amaliy ish







“Doodling” chizishni qanday boshlash kerak?

Yuqorida aytib o‘tilganidek, bunda hech qanday maxsus qoidalar yo‘q. Siz qandaydir konturni tanlashingiz yoki yaratishingiz (masalan, kiyik, qurbaqa chizmasi, o‘z kaftingiz, undan ham osonrog‘i – aylana, kvadrat oling...) va uni turli naqshlar bilan to‘ldirishni boshlashingiz mumkin, bunda qo‘lning o‘zi varaq bo‘ylab harakatlansin. Oblik chiziqlar oddiygina qo‘shiladi, qobiqlar yoki g‘alati o‘simliklar bir joyda paydo bo‘ladi, ba’zi elementlar birlashtiriladi, kontur bir joyda mustahkamlanadi.

Klassik “Zentangle” har doim 8,9 cm li kvadrat oq qog‘ozga qora siyoh bilan chiziladi. O‘zingizga mos keladigan har qanday qog‘oz va qulay qalam (jel, yumshoq shar, kapillyar, rolik, yupqa flomaster) yordamida ijodni boshlashingiz mumkin.



Ijodingiz ideal holda mavhum bo‘lishi zarur.

“Zentangle” monoxrom bo‘lishi kerak – biz bitta kontrast rangga ega bo‘lgan tekis qog‘oz varag‘iga chizamiz (dastlab oq qog‘oz va qora rasm). Biroq asoslarni o‘zlashtirganingizdan so‘ng siz ko‘p rangli tasvirlar ham ishlashingiz mumkin..

Yangi darsni mustahkamlash

Yakuniy qism







“Ijodiy ish” metodi

O‘quvchilar “Doodling” usulida kompozitsiyani qora yoki rangli ruchkadan foydalanib ishlaydilar.

Tasvir yanada qiziqarli chiqishi uchun unga rangli qalam yoki bo‘yoqlar bilan fon beriladi.



Gulli naqshni “Doodling” usulida ishlash bosqichlari

Yakuniy qism		   O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar. O‘quvchilarning bajargan amaliy ishlari doskada ko‘rgazma asosida baholab, umumlashtiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Darslikda berilgan tasvirni ishlab kelish
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

26-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Turli materiallardan foydalanib stilizatsiya uslubida haykal yasash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga haykaltaroshlikda stilizatsiya haqida ma’lumot berish va amalda bajara olish ko‘nikmasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarda estetik va ekologik madaniyatni tarbiyalash, borliqni kuzatish, bilim va malakalarini rivojlantirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning turli stilizatsiyali zamonaviy mayda haykalchalarni mustaqil ravishda ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish
	CSMART maqsadi: 	**C** – o‘quvchi ish joyini to‘g‘ri tashkil qila oladi. **S** – o‘quvchi tasvir yasash uslubini to‘g‘ri tanlay oladi. **M** – tasvirni yasashda komponovka va nisbatlar proporsiyasiga to‘g‘ri amal qiladi. **A** – yordamchi chiziq va grafik elementlar bilan qog‘ozga tasvirning eskizini ishlay oladi. **R** – tasvir shaklini to‘g‘ri yasay oladi. **T** – o‘quvchi haykalcha yasash jarayonida mayda elementlar bilan haykalni yakunlab tugatadi.
	Dars turi	Amaliy mashg‘ulot
	Dars metodi	“Guruhlarda ishlash” metodi “Integrasiya” metodi. “Taqdimot” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar

<table>
<tr><td rowspan="3">Tashkiliy qism</td><td>Dars jihozi</td><td colspan="3">O‘qituvchi uchun: darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, maxsus stol, namuna yasash uchun plastilin.
O‘quvchilar uchun: yog‘och taglik, karkas uchun sim, oddiy plastilin yoki havo plastilini, stek (plastilinda ishlash asboblari).</td></tr>
<tr><td>Sinf doskasining bezagi</td><td></td><td>Stilizatsiya haykalchalaridan namunalar</td><td></td></tr>
<tr><td>Atamalar</td><td colspan="3">Stilizatsiya, stek, karkas</td></tr>
<tr><td></td><td colspan="4">DARSNING BORISHI</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Tashkiliy qism</td><td>Tashkiliy qism</td><td colspan="3">a) salomlashish;
b) davomatni aniqlash;
d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash;
e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash.
Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.</td></tr>
<tr><td>Uy vazifasini so‘rash va baholash</td><td colspan="3">O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.</td></tr>
<tr><td>Avvalgi darsni mustahkamlash</td><td colspan="3">O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi.
1. Ikkilamchi mahsulot deganda nimani tushunasiz?
2. Fantastik obrazlar haqida so‘zlab bering.
3. Zamonaviy haykaltaroshlardan kimlarni bilasiz?
Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi.
Yangi mavzuga bog‘lanadi.</td></tr>
<tr><td></td><td colspan="4">Darsni maqsadli tashkil qilish</td></tr>
<tr><td>Asosiy qism</td><td>Yangi mavzu bayoni
</td><td colspan="3">“Aqliy hujum” metodi
Doskaga tasvir ilinadi. O‘quvchilar fikri eshitiladi va yangi mavzuga bog‘lanadi.
  
Achchiq qalampir kukuni solinadigan idish</td></tr>
</table>

Asosiy qism



Tabiatda mavjud real predmet mazmunini yo‘qotmagan holda undan badiiy shakllar, timsollar yaratish *stilizatsiya* (uslub) deyiladi. Stilizatsiya san’atning barcha yo‘nalishlarida mavjud bo‘lib, u maqsad va vazifasiga ko‘ra nihoyatda keng tushuncha. Tasviriy san’at va haykaltaroshlikda keng qo‘llanadi.

Haykaltaroshlikda tabiatdagi turli o‘simliklar, jonzotlar, buyumlarning umumiy shaklini olib, undan yangicha mazmun, shakl va san’at asarini yaratish uslubi shakllangan. Qush shaklini eslatuvchi maishiy idishlar, mashina shaklini eslatuvchi turli buyumlar yoki hayvonlar shaklini eslatuvchi abstrakt haykallar stilizatsiyaga misol bo‘ladi.











Asosiy qism	Amaliy ish Zamonaviy stilizat-siya uslubidagi idishlar	Amaliy mashg‘ulotning borishi: **“Integratsiya” metodi** Stilizatsiya uslubidan foydalanib odam haykalini yasash. Haykal ishlash uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlab olamiz. Yog‘och taglik tayyorlab, unga sim karkas qilib o‘tkaziladi. Oddiy yoki havo plastilini, stek (plastilinda ishlash asboblari) yordamida haykal yasaladi.







1



2



3



4



“Integratsiya” metodi

Tasviriy san’at va texnologiya fanlari asosida haykal ya-sashni tashkil qilish mumkin.

Asosiy qism







Guruhlarga 3 xil mahsulot beriladi.

1. Yog‘och.
2. Sovuq farfor.
3. Havo plastilini.


Berilgan mahsulotlardan uy-ro‘zg‘or uchun zarur idish yasash vazifasi topshiriladi. Vazifani yakka tartibda yoki guruh bo‘lib bajarish mumkin.







<table>
<tr><td rowspan="2">Asosiy qism</td><td>

</td><td>
 </td></tr>
<tr><td colspan="2">Yangi darsni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Yakuniy qism</td><td></td><td>“Taqdimot” metodi
1. Stilizatsiya nima?
2. Stilizatsiya uslubida yaratilgan qanday maishiy buyum yoki texnikalarni bilasiz?
3. Stilizatsiya uslubida yaratilgan haykaltaroshlik asarlari haqida fikringiz qanday?
O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar.
Amaliy ishlar ko‘rgazma asosida baholanib, umumlashtiriladi.</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Stilizatsiya uslubidan foydalanib darslikdagi haykalni yasash
   </td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

27-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Tadbir uchun emblema yaratish
	Dars maqsadi Ta'limiy	O‘quvchilarga emblema haqida ma'lumot berish va uni amalda bajara olish ko‘nikmasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarning badiiy-estetik, atrof-muhitga, jamiyatdagi yangiliklarga nisbatan qarashlarini tarbiyalab borish.
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda mustaqil ravishda turli emblemalar ishlay olish ko‘nikmasini rivojlantirish
	CSMART maqsadi 	**C –** o‘quvchi tasviriy san'atning grafika turlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi emblema ishlashda komponovkani to‘g‘ri bajara oladi. **M –** o‘quvchi emblema, xomaki tasvirni yordamchi chiziq bilan ishlay oladi. **A** – o‘quvchi emblema eskizini ishlashda uning elementlarini bir-biriga bog‘lay oladi. **R** – o‘quvchi emblema shakli va rangini to‘g‘ri tasvirlay oladi. **T** – o‘quvchi emblema mavzusi asosida kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Aqliy hujum” metodi “Zakovat” metodi “Namoyish” metodi “Ijodiy ish” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, guash bo‘yog‘i, mo‘yqalam, bo‘r. **O‘quvchilar uchun:** rasm daftari yoki A4 o‘lchamli qog‘oz, turli qattiqlikdagi grafit qalamlar to‘plami, sirkul, chizg‘ich, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalamlar, suv, palitra.
	Sinf doskasining bezagi	 *Emblema va logotip tasvirlangan ishlardan namunalar* 
	Atamalar	Emblema, logotip
	DARSNING BORISHI	
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarining amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash; f) guruhlarda ishlash uchun o‘quvchilarni jamoalarga bo‘lish. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma'lumoti tinglanadi.

Tashkiliy qism	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. Javoblar yangi mavzuga bog‘lanadi. – Stilizatsiya nima? – Stilizatsiya uslubida yaratilgan qanday maishiy buyum yoki texnikalarni bilasiz? – Stilizatsiya uslubida yaratilgan qanday haykaltaroshlik asarlarini bilasiz? Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni	**“Aqliy hujum” metodi**     Tasvirlar doskaga ilib qo‘yiladi. Guruhlarning fikrlari tinglanadi. O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasining emblemasi “BMW” avtomobilining emblemasi “Audi” avtomobilining logotipli emblemasi Yangi mavzu fikr va g‘oyalarni muhokama qilish bilan davom ettiriladi. **“Zakovat” metodi** Guruhlarga oldindan tayyorlangan turli emblema va logotiplar tarqatiladi.    

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Asosiy qism



Guruhlar berilgan namunalarga birgalikda ta’rif yozadilar.

Shundan so‘ng har bir guruhdan bir o‘quvchi chiqib, **“Namoyish” metodi** asosida javob beradi.

Berilgan javoblar umumlashtirilib, yangi mavzu o‘qituvchi tomonidan qo‘shimcha ma’lumotlar asosida tushuntiriladi.



“Emblema” yunoncha so‘z bo‘lib, *g‘oyani tasvirlash* degan ma’noni anglatadi.

Emblemada tanishtirish va targ‘ibot qilish belgilaridan foydalaniladi. Emblema ommaga tushunarli, aniq va ravon bo‘lishi lozim. Odatda unda ramziy belgilardan ko‘proq foydalaniladi.

Masalan: kitob – ta’lim va ma’naviyat, Yer shari – xalqaro miqyos, kabutar – tinchlik belgisi sifatida qo‘llanadi. Hozirgi zamon emblemalari *shtamp, logotip, brend* kabi tushunchalar bilan uyg‘un. Sanoat, ta’lim, tibbiyot, tadbirkorlik kabi sohalarda emblema va logotip yaratish rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda takrorlanmas, original emblema va logotiplarning milliardlab turlari mavjud. Emblema va logotiplar turli tashkilot va muassasalarni dunyo miqyosida tanitib boryapti.



Emblemada tafsilotlarga boy murakkab elementlardan ko‘proq foydalaniladi. Logotipda esa sodda element, shakl va ranglardan foydalaniladi.






















	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism	Amaliy ish	**Ijodiy ish metodi** Maktabda turli xil bayramlar, tanlovlarga bag‘ishlangan tadbirlar tashkil etiladi. Ushbu tadbirlarda emblemalar yaratish muhim sanaladi. Mazkur emblemada guruh nomi, uning maqsadi, g‘oyasi aks etadi. Emblema yaratishdan avval siz tadbirning o‘ziga xosligi, xususiyatini aniqlab olishingiz kerak bo‘ladi. Emblemada guruhning qaysi jihatlarini ko‘rsatmoqchi ekaningizni aniqlashtirasiz. Emblema g‘oyasi tayyor bo‘lgach, elementlar chizib olinadi. Emblemaning elementlarini kompozitsion joylashtirish uchun turli shakl va ranglarda eskizlar bajariladi. Ranglar hamohang, tadbir mazmuniga mos va xos, yorqin, ajralib turuvchi va insonlarni o‘ziga jalb qiluvchi bo‘lishi juda ahamiyatli.   O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar. O‘quvchilarning bajargan amaliy ishlari doskada ko‘rgazma asosida baholanib umumlashtiriladi.   Mavzuni mustahkamlash uchun savollar: 1. Emblema nima? 2. Emblema va logotipning farqi nimada?
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Tadbir uchun emblema yaratish
	Ish joylarini yig‘ishtirish	



28-dars


Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**Plakat grafikasi**
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarda grafik tasvir bajarish amaliyotini mustahkamlash. Oq va qora ranglar va xromatik ranglarda ham plakatli tasvir bajarish haqida ma’lumot berish va amalda bajara olish ko‘nikmasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, atrof-muhitga, jamiyatda bo‘layotgan yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish. Tasviriy san’atning grafika turiga o‘quvchilarning qiziqishini oshirish


Tashkiliy qism	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning plakat grafikasida tasvirni mustaqil ravishda ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish		
	CSMART maqsadi: 	**C** – o‘quvchi grafika turlarini ajrata oladi. **S** – o‘quvchi tasvirni to‘g‘ri komponovka qilib ishlay oladi. **M** – o‘quvchi tasvirning eskizini yordamchi chiziq bilan ishlay oladi. **A** – o‘quvchi tasvirning eskizini ishlashda uning elementlarini bir-biriga bog‘lay oladi. **R** – o‘quvchi tasvir shaklini va rangini to‘g‘ri tasvirlay oladi. **T** – o‘quvchi tasvir asosida kompozitsiya tuza oladi.		
	Dars turi	Aralash dars turi		
	Dars metodi	“Kollaj” metodi “Namoyish” metodi “Ijodiy ish” metodi “Taqdimot” metodi		
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar		
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, molbert, markerlar, A3 formatidagi qog‘oz, guash bo‘yog‘i kist va bo‘r. **O‘quvchilar uchun:** turli qattiqlikdagi va yumshoq grafit qalamlar to‘plami (T1,T2...Tn, M1,M2..Mn); qalamtarosh; o‘chirg‘ich; akvarel; guash bo‘yog‘i; maxsus mo‘yqalamlar; suv; palitra.		
	Sinf doskasining bezagi		*Siluet usulida ishlangan tasvirlardan namunalar*	
	Atamalar	Siluet, grafika, statika va dinamika		
	DARSNING BORISHI			
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash; f) o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lish. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.		
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.		
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. Masalan: 1. Emblema nima? 2. Emblema va logotipning farqi nimada? **“Namoyish” metodi** “Namoyish” metodi asosida turli emblema va logotiplar ko‘rsatiladi. O‘quvchilar emblema yoki logotip tasviri asosida ularning farqi va mazmuni haqida gapiradilar. Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi. Jarayon yangi mavzuga bog‘lanadi.		

	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni   	**“Kollaj” metodi** Har bir guruhga turli materiallar beriladi. O‘quvchilar vatman qog‘ozga ma’lum vaqt mobaynida qiziqarli e’lon uchun plakat chizadilar. Plakatga turli jurnal yoki katalog rasmlari kollaj texnikasi asosida yelimlab yopishtirilishi mumkin. Yoki o‘qituvchi tomonidan mavzu beriladi. Har bir guruh shu mavzu asosida kollaj texnikasida plakat yaratadilar. **“Taqdimot” metodi** Tayyor bo‘lgan ishlar guruhlar tomonidan taqdimot qilinadi. O‘qituvchi guruhlarning taqdimoti asosida plakat grafikasi va uning turlari haqida gapirib beradi. Plakat (nemischa “plakat” – *e’lon, afisha*) – grafika turi, katta varaqqa ishlangan tasviriy san’at asari. Plakatda qisqa matn ilova qilinadi. U tashviqot, reklama, axborot va o‘quv-ta’lim maqsadlariga xizmat qiladi. Plakat grafikasi ko‘rgazmali, ixcham shakldagi targ‘ibot ma’lumotlarini o‘z ichiga olgan, katta o‘lchamdagi bosma nashrdir. Zamonaviy plakat odatda rassom yaratgan asl nusxadan bosmaxonada ko‘paytiriladi. O‘zbekistonda plakat XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo bo‘ldi, XX asrning 20-yillaridan keng tarqaldi. Dastlabki yillarda qo‘lda ishlangan va ko‘paytirilgan. Bosma plakatlar 1923–1924-yillardan chop etila boshlandi. Usta Nabi Hafizov, M. Kurzin, V. Ufimsev, V. Kaydalov va boshqa rassomlar ushbu yo‘nalishda samarali ijod qilgan. 1960–1980-yillarda A. Balkanov, V. Gromiko, F. Kagarov, V. Yevenko, T. Tkachev va boshqa rassomlarning tinchlik, axloq, iqtisod, madaniy-ma’rifiy mavzulardagi asarlari yaratildi. Jumladan, F. Kagarovning tinchlik mavzusidagi plakatlari xalqaro anjumanlarning ramziga aylandi. Plakatning quyidagi turlari mavjud: • teatr plakatlari; • reklama plakatlari; • kompaniya plakatlari; • kino afishalari; • musiqa plakatlari; • sport plakatlari; • ijtimoiy plakatlar; • o‘quv plakatlari. Slaydlar yoki turli ko‘rgazmali tasvirlar, reproduksiya asarlari namoyish qilinadi.
	Amaliy ish	**“Ijodiy ish” metodi** O‘quvchilarga slayd yoki doskada plakat ishlash bosqichlari tushuntiriladi. Plakat mazmuniga mos ravishda sarlavha yoki matn (turli shriftlar asosida) tanlanadi. Ba’zi plakatlarda sarlavha tasvir asosida berilishi mumkin.

<table>
<tr><td rowspan="4">Asosiy qism</td><td rowspan="4">


</td><td>Tanlangan sarlavha yoki matn komponovka qilib joylashtiriladi.
Tanlangan mavzu uchun tasvir eskizi chiziladi.
Tasvir ham komponovka asosida joylashtiriladi.
Tasvir mazmuniga mos ravishda rang tanlanadi (reklama, tashviqot va axborot plakatlari o‘ziga jalb qiluvchi yorqin ranglarda bo‘lishi lozim).
Turli qo‘shimcha elementlar bilan bezaladi.
O‘quvchilar olgan ma’lumotlari asosida tasvir ishlaydilar.
Doskada tasvirlar namoyish etiladi.</td></tr>
<tr><td>






</td></tr>
<tr><td colspan="2">Yangi darsni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Yakuniy qism</td><td></td><td>Plakat kompozitsiyasini oq, qora yoki rangli fonda tasvirlash mumkin.
O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar.
O‘quvchilar bajargan amaliy ishlar doskada ko‘rgazmali baholanib, umumlashtiriladi.</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Darslikda berilgan tasvirni yakunlab kelish</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

29-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Koinot mavzusidagi abstrakt kompozitsiyani kompyuter grafikasida chizish va bo‘yash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga kompyuter grafikasi haqida ma’lumot berish va kompyuterda tasvir bajarish ko‘nikmasini mustahkamlash
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning atrof-muhitga, jamiyatdagi yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish, shuningdek, kompyuter grafikasi turiga o‘quvchilar qiziqishini oshirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning kompyuter grafikasida mustaqil tasvir ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish
	CSMART maqsadi 	**C –** o‘quvchi kompyuter grafikasi turlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi kompyuter grafikasida tasvirni to‘g‘ri komponovka qilib ishlay oladi. **M –** o‘quvchi kompyuter grafikasida tasvirning xomaki nusxasini yordamchi chiziq bilan ishlay oladi. **A** – o‘quvchi kompyuter grafikasida tasvirning eskizini ishlashda uning elementlarini bir-biriga bog‘lay oladi. **R** – o‘quvchi kompyuter grafikasida tasvir shakli va rangini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T –** o‘quvchi berilgan mavzu asosida kompyuter grafikasida kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Taqdimot” metodi “Kollaj” metodi “Modellashtirish” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Sinf doskasining bezagi	 *Kompyuter grafikasidan namunalar* 
	Atamalar	Kompyuter grafikasi, “Paint”, “Krita”, “Photoshop, “Corel draw”
	DARSNING BORISHI	
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.

<table>
<tr><td rowspan="2">Tashkiliy qism</td><td>Uy vazifasini so‘rash va baholash</td><td>O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari tekshiriladi va baholanadi. Baholar izohlanadi. Topshiriqni namunali bajargan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.</td></tr>
<tr><td>Avvalgi darsni mustahkamlash</td><td>O‘tgan dars “Qalamdon” metodi orqali mustahkamlanadi.
Guruhlarga tarqatma savollar beriladi.
– Plakat nima?
– Plakatda nimalar ilova qilinadi?
– Plakat grafikasining qanday turlari mavjud?
– O‘zbekistonda qachondan boshlab plakat grafikasi paydo bo‘lgan?
– Plakat chizish ketma-ketligini ayting?
Guruhlarning javoblari tinglanadi va avvalgi mavzu bilan umumlashtiriladi.</td></tr>
<tr><td></td><td colspan="2">Darsning maqsadli yoritilishi</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Asosiy qism</td><td>Yangi mavzu bayoni

“Namoyish” metodi





</td><td>Eslatma: bu mavzuni yoritish uchun o‘qituvchi oldindan tayyorgarlik ko‘rishi lozim. Maktabning informatika xonasini tayyorlab, barcha kompyuterlarni ko‘zdan kechirib chiqadi. Kompyuterlarga “Krita” dasturini yuklab, tayyorlab qo‘yadi.
Agar darsni informatika xonasida o‘tishning iloji bo‘lmasa, o‘qituvchi o‘zining fan xonasida kompyuter va proyektor orqali tushuntirib beradi.
Sinf doskasiga yangi mavzu yoziladi. “Namoyish” metodi orqali slaydlar yordamida o‘qituvchi yangi mavzuni bayon qiladi.
– Bugungi kunda tasviriy san’at sohasiga ham zamonaviy texnologiyalar jadal kirib kelmoqda. Kino, animatsiya, reklama va dizayn sohalarida kompyuter texnologiyalari va dasturlari tasvirlar ishlashda qulayliklar yaratmoqda, vaqt tejalishi, murakkab jarayonlardagi muammolarning oson hal qilinishi, ko‘plab vazifalarni kompyuter dasturlarining o‘zi avtomatik bajarishi shular jumlasidan.

Grafik dasturlar turlari

   
Paint | Krita | Photoshop | Corel Draw

Krita – bepul va ochiq manbali rastrli grafik dastur. Asosan rassomlar va fotosuratchilar uchun ishlab chiqilgan. Nomi shved tilidan olingan bo‘lib, “bo‘rda chizish” degan ma’noni anglatadi.
O‘qituvchi proyektor orqali sinf o‘quvchilariga “Krita” dasturining ishlash jarayonini ketma-ketlikda tushuntirib beradi.</td></tr>
</table>


Asosiy qism






Dastur o‘rnatilganda kompyuter ekranida dastur logotipi paydo bo‘ladi.












Dastur ishga tushirilganda dastur oynasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi. Yangi hujjat yaratish uchun ekranning yuqori chap qismidagi “New File” (Ctrl+N) tugmasi bosiladi.



Hosil bo‘lgan oynada ochilishi rejalashtirilayotgan yangi sahifaning o‘lchamlari, shakli, rangi, sifati, avval ishlangan loyihalarni yuklash, fayl turi kabi bir qancha funksiyalar mavjud.





Asosiy qism		“Create” tugmasi bosilgach yangi hujjat oynasi hosil bo‘ladi.   Oq oyna rasm chizish chegarasi hisoblanib, uning yuqori, chap va o‘ng qismlarida rasm chizish uchun zarur ish qurollari va ranglar palitrasi mavjud.  Kist tanlash bo‘limida o‘chirg‘ich, qalam turlari, kist turlari, bo‘yoq turlari va fakturalari, tog‘ shakllari, maysa shakllari, daraxt shakllari, purkab sepish fakturasi va ko‘plab chizishni yengillashtiruvchi tayyor kontentlar mavjud.
		
	Amaliy ish	“Krita” dasturi ishlash jarayonini tushuntirgach, o‘quvchilarni ikki guruhga bo‘lib, amaliy ish uchun vazifa beriladi: “Koinot” mavzusida kompozitsiya eskizini ishlash va shu eskiz asosida “Krita” dasturida “Koinot” kompozitsiyasini yaratish.

	“Modellashtirish” metodi 	O‘qituvchi vaqtni tejash maqsadida “Modellashtirish” metodidan foydalanishi mumkin. Bunda o‘quvchilar avvaldan tayyorlab qo‘yilgan rangli geometrik shakllardan “Koinot” kollajini yaratadilar.  
Asosiy qism	“Kollaj” metodi  	Darslikdagi **QR** kod orqali “Koinot” mavzusida “Krita” dasturida tasvir chizish jarayonlari yoritilgan videoga o‘ting.  


<table>
<tr><td rowspan="2">Asosiy qism</td><td>
</td><td>

“Krita” dasturida chizish jarayonida o‘quvchilarga amaliy yordam beriladi.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Yangi darsni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Yakuniy qism</td><td>“Taqdimot” metodi</td><td>Guruhlar o‘zlari bajargan “Koinot” kollaji, kompyuter grafikasida bajargan amaliy ishlarini taqdimot qiladilar va izohlaydilar.
Eslatma: kompyuter grafikasida amaliy ish bajarish jarayonida sinf o‘quvchilarini ikki guruhga bo‘lish maqsadga muvofiq.</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Kompyuter grafikasida ijodiy ish bajarish
</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Plener (ochiq havoda ishlash)
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga plener amaliyotida tasvir ishlash haqida ma’lumot berish va amalda bajara olish ko‘nikmasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarda estetik va ekologik madaniyatni tarbiyalash, borliqni kuzatish malakalarini yanada rivojlantirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning plener amaliyotida naturaga qarab mustaqil tasvir ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish
	CSMART maqsadi 	**C –** o‘quvchi plener amaliyotida ish joyini to‘g‘ri tashkil qila oladi. **S –** o‘quvchi tasvir ishlash uchun naturani tanlay oladi. **M –** o‘quvchi tasvirni ishlashda komponovka qila oladi. **A –** tasvir eskizini yordamchi chiziq va grafik elementlar bilan ishlay oladi. **R –** tasvir shaklini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T –** o‘quvchi plener amaliyotida tasvirni ranglar bilan bo‘yab tugata oladi.
	Dars turi	Amaliy mashg‘ulot
	Dars metodi	“Konfronto” metodi “Bu qiziq” metodi “Taqdimot” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, molbert, markerlar, A3 o‘lchamli qog‘oz, guash bo‘yog‘i, mo‘yqalam va bo‘r. **O‘quvchilar uchun:** turli qattiqlikdagi grafit qalamlar to‘plami, daftar yoki A4 o‘lchamli qog‘oz, o‘quv molberti yoki kichik hajmdagi taxta planshet, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel yoki guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalamlar, suv, suv idish, palitra.
	Sinf doskasining bezagi	 *Plener amaliyoti tasvirlaridan namunalar* 
	Atamalar	
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) o‘quvchilarni maktab hovlisiga jamlash; b) salomlashish, davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tashkil qilish; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.

	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. 1. “Modern” so‘zining ma’nosi nima? 2. Qaysi turdagi avtomobil modellarini bilasiz? 3. Kelajak avtomobillarini qanday tasavvur qilasiz? Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi. Jarayon yangi mavzuga bog‘lanadi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni	Plener (fransuzcha “en plein air” – *ochiq havoda*) quyosh nuri va atrofdagi atmosfera ta’sirida rang o‘zgarishining rasmdagi tasvirini bildiruvchi atamadir. Plener ustaxonada emas, balki tabiat qo‘ynida rasmlar yaratishni bildiradi. Bu jarayon tabiatni tabiiy ranglarda tushunish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tabiat go‘zalligi, uning takrorlanmasligi o‘ziga xosdir. Quyosh nuri va atrofimizni o‘rab turgan muhit ranglar uyg‘unligining bitmas-tuganmas manbaidir. Tabiat, atrof-muhitning insonga, uning hissiyotiga hamda tafakkuriga bo‘lgan chuqur ta’siri tasviriy san’atda manzara janrining vujudga kelishiga turtki bo‘ldi. Tasviriy san’atning manzara janrida yaratilgan asarlar bilan tanishish inson ruhiy olamini mustahkamlaydi, ichki tuyg‘ularini boyitadi. Tabiat go‘zalligini haqqoniy tasvirlash, unga nisbatan rassom munosabatini belgilaydi. Shu sababdan ham manzara janri inson hissiyotini nafosatli qilib tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. Plenerning paydo bo‘lishi XIX asr boshlarida Angliyada yashagan Jon Konstebl va Richard Parkes Bonington nomlari bilan bog‘liq. Plenerizim uslubi fransuz impressionistlari orasida juda mashhur bo‘lgan. Jan-Batist Kamil Koro, Jan-Fransua Millet, Kamil Pissarro, Per-Ogyust Renuar va Klod Mone kabi rassomlar plener rivojlanishiga hissa qo‘shgan. Rossiyada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida plener tasvirida Vasiliy Polenov, Isaak Levitan, Valentin Serov, Konstantin Korovin, Igor Grabar muvaffaqiyatli ijod qilgan. O‘zbekistonda O‘. Tansiqboyev, P. Benkov, R. Ahmedov, N. Qo‘ziboyev, Z. Inog‘omov, M. Saidov va boshqalar manzara janrida ijod qilgan. 

Asosiy qism



Amaliy ish



Amaliy mashg‘ulot

O‘quvchilar maktab bog‘iga olib chiqiladi.

Manzara chizish uchun kerakli rakurs tanlanadi.

O‘quvchi o‘ziga qulay joy tanlab, ish joyini tashkil qiladi.

Kerakli o‘quv qurollari tayyorlab olinadi.

Tasvir eskizini qora qalamda chizib olinadi.

Tasvir to‘la chizib bo‘lingandan so‘ng, rangli qalam yoki akvarel bo‘yoqlari bilan bo‘yaladi.

Dars jarayonida turli metodlardan foydalanish:

“Konfronto” metodi


O‘quvchilar tevarak-atrofni kuzatadilar.

Har bir narsani chizishdan avval yordamchi chiziqlar bilan shakli ko‘rsatiladi. Shu tarzda taqqoslash asosida narsalarning geometrik shakli topiladi. Shakl jihatidan to‘g‘ri topilgan tasvirni yordamchi chiziqlar bilan chizish qulay bo‘ladi.









Asosiy qism









Tabiatdagi barcha narsalar kuzatilib, taqqoslanadi.

“Bu qiziq” metodi

Plener uchun kerakli ish qurollari tarixini bilasizmi?

Hayvonlarning ichki a’zolaridan tayyorlangan xaltachalar bo‘yoq solish uchun ishlatilgan. Bu rassomlar uchun noqulayliklar keltirib chiqargan.







Birinchi bo‘lib bo‘yoqlarni maxsus qo‘rg‘oshin idishga solishni o‘ylab topgan rassom Jon Goff Rend. Uning siqma idishlari 1841-yil 11-sentyabrda ixtiro sifatida rasman ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Siqma idishlardagi bo‘yoqlar plener yo‘nalishi rivojiga katta hissa qo‘shgan.



Qadimgi bo‘yoq tayyorlash texnologiyasi






Etyudnik yoki molbert – rassomlarning ko‘chma dastgohi	Grafitli qora qalam XIV asrda paydo bo‘lgan

Asosiy qism



Miloddan avvalgi XIV asr mo‘yqalami



Mo‘yqalamlarning qadimiy turlari

Yangi darsni mustahkamlash


Yakuniy qism




“Taqdimot” metodi


Maktab bog‘ini kuzatib, naturadan chizishga qulay bo‘lgan daraxtlar chiziladi.

Chizishda yorug‘-soya, chiziqli va havo perspektivasi qoidalariga rioya qilinadi.







Asosiy qism		  **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:** 1. “Plener” so‘zining ma’nosi nima? 2. Plenerda ijod qilgan rassomlardan kimlarni bilasiz? 3. Plenerda rasm ishlashda nimalarga ahamiyat berish zarur?
		Bajarilgan ishlar taqdim qilinadi. O‘quvchilarning bajargan amaliy ishlari ko‘rgazma asosida baholanib, umumlashtiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Plenerda bino ko‘rinishi tasvirini akvarelda ishlash. O‘quv yili davomida bajarilgan barcha mustaqil ijodiy ishlarni ko‘rgazmaga tayyorlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Tasviriy san’at darslarida muzeylar haqida ma’lumot berish

Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni o‘zbek rassomlari va haykaltaroshlari bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiq. Bunda “San’at muzeylariga sayohat” metodi samarali natija beradi. Chunki bir vaqtning o‘zida o‘quvchilar ham san’at muzeylari bilan, ham rassomlar va ularning asarlari bilan tanishadilar. Natijada o‘quvchilarning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi.

San’at muzeylariga sayohat darslarini onlayn va oflayn tarzda o‘tkazish mumkin.





O‘zbekiston davlat san’at muzeyi



O‘zbekiston amaliy san’at muzeyi



O‘zbekiston Badiiy akademiyasi

Tasviriy san’at atamalarining izohli lug‘ati

Akvarel lotin tilidan olingan bo‘lib, “suv” ma’nosini anglatadi. U – suvda yaxshi eriydigan va yuviladigan mayin va shaffof bo‘yoq. Akvarel tasviri nihoyatda rangli, nafis va nozik bo‘lib, ular ko‘pincha qog‘oz ustiga ishlanadi.

Asimmetriya yunon tilidan olingan bo‘lib, “simmetrik emas” degan ma’noni anglatadi. Tasviriy san’atda asardagi detallar, suratning chap va o‘ng yoki yuqori va pastki tomonlaridagi tenglik, o‘xshashlik alomatlarining yo‘qligi asimmetriya hisoblanadi. Asimmetriya turli buyumlar shaklida ham kuzatiladi.

Axromatik ranglar yunon tilidan olingan bo‘lib, “rangsiz” degan ma’noni bildiradi. Ular oq, qora va ularning aralashmasidan hosil bo‘lgan kulrangning turli tuslari hisoblanadi.

Barelyef fransuzcha so‘z bo‘lib, “past relyef” ma’nosini anglatadi. Haykaltaroshlikda ishlatiladigan *relyef* atamasining bir turi. Relyefning bu turida tasvir tekislik yuzasidan uning haqiqiy o‘lchovining yarmidan kam nisbatida bo‘rtib chiqqan bo‘ladi. Tanga, medal bunga misol bo‘la oladi.

Badiiy akademiya nomi asosan rassom, haykaltarosh, me’morlar tayyorlanadigan oliy o‘quv yurtlariga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, nafaqat san’at, balki ularda rahbarlik qiladigan, tashkiliy ishlarni olib boradigan davlat muassasalari ham shu nom bilan yuritiladi. Masalan, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi.

Blik – narsa va tasvirlarning eng yorug‘ yaltiroq joyi.

Janr – hayot lavhalarini, ko‘rinishlarini uning mazmuniga ko‘ra tasvirlovchi badiiy asar turidir. Masalan, manzara, natyurmort, turmush, portret, animalistik, morinistik janrlar tasviriy san’at janrlari hisoblanadi.

Iliq ranglar – quyosh, olov taftini eslatuvchi, kishilarda iliqlik (issiqlik) hislarini uyg‘otuvchi ranglar. Ular qizil, sariq, zarg‘aldoq, malla, novvotrang, qirmizi, pushti, shingob, sabza, sadaf, lolaro‘y, gulgun, norangvash, somoniy, bargikaram kabi ranglardir.

Kompozitsiya badiiy asarda qo‘llanadigan atama bo‘lib, “tuzish-qurish” ma’nosini anglatadi. Badiiy obrazlar va vositalarning asarda o‘z o‘rnida shakl, rang, mazmun jihatdan qurilishi uning kompozitsiyasini anglatadi va u badiiy obrazlarning ifodaliligini oshirishga xizmat qiladi.

Manzara – tasviriy san’at janrlaridan biri. Unda tabiat, shuningdek, shahar ko‘rinishlari tasvirlanadi.

Mozaika rangtasvirning turi bo‘lib, qattiq materiallar hisoblangan koshin, rangli shisha, marmar, tosh, yog‘och, metall parchalarini tekis yuzaga maxsus qorishmalar yordamida yopishtirib yaratiladigan tasvirlash texnikasi. Bunday asarlar ko‘pincha devorga, shiftga, uy poliga ishlanadi.

Natura tasvirlash uchun mo‘ljallangan odam, hayvon, manzara, predmet va boshqalar hisoblanadi.

Natyurmort tasviriy san’atning janrlaridan biri bo‘lib, u fransuzcha “jonsiz tabiat” degan ma’noni anglatadi. Mazkur janrda gullar, meva va sabzavotlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, san’at va sport atributlari aks ettiriladi.

Palitra fransuzcha “yupqa plastika” degan ma’noni anglatadi. Ular yog‘ochdan ishlanadi. Palitralar metall, plastmassa, chinni kabi materiallardan ham ishlanishi mumkin. Palitralar bo‘yoqlarni aralashtirish uchun tayyorlangan bo‘lib, u rangtasvirchi rassomning ish quroli hisoblanadi.

Panno lotin tilidan olingan bo‘lib**, “**mato parchasi” ma’nosini anglatadi. Pannolar ko‘pincha moybo‘yoq bilan mato ustiga ishlanadi. Ular maxsus joyga o‘rnatish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, rangtasvir, relyefli va NAQSHli hoshiya bilan chegaralangan bo‘ladi.

Perspektiva lotin tilidan olingan bo‘lib, “ravshan ko‘raman” degan ma’noni anglatadi. Borliqdagi barcha narsalar ma’lum masofadan turib kuzatilganda ular kuzatuvchiga o‘lchovlari, hajmi, rangi o‘zgargandek bo‘lib tuyuladi. Bu hodisa *perspektiva* deyiladi. Tasviriy san’atning nazariy asoslaridan hisoblangan perspektiva maxsus fan darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, uning chiziqli, havo(rang) va relyef (hajm perspektivasi) turlari bor.

Plakat fransuz tilidan olingan bo‘lib, “e’lon” ma’nosini anglatadi. U tasviriy san’atning grafika turiga kiradi. Plakatlar kishilar hayotidagi eng muhim muammolar yechimiga qaratiladi, ular tashviqot va targ‘ibot qilinadi.

Plener fransuz tilidan olingan bo‘lib, “ochiq joy”, “keng ko‘rinish” ma’nosini anglatadi. Ko‘pincha rassomlar o‘z asarlari uchun etyud, qoralama, ranglamalarni plenerda bajaradilar. Ochiq havoda etyud, qoralama, ranglamalar ishlashdan maqsad kunduzgi tabiat va boshqa obyektlarning ranglarini aniq tasavvur etishdan iborat.

Portret fransuz tilidan olingan bo‘lib, “inson tasviri” ma’nosini anglatadi. U tasviriy san’atning janri hisoblanadi. Portretda bir yoki bir nechta shaxs tasviri ishlanishi mumkin. Ular insonlarning boshi yoki beligacha bo‘lgan bo‘yi-basti ko‘rinishida tasvirlanishi mumkin.

Rassom – rangtasvir va grafika turida ijod qiluvchi mutaxassis.

Rang (havo) perspektivasi – real borliqdagi narsa va hodisalar kishi ko‘zidan uzoqlashgan sari ularning ranglarida ro‘y beradigan o‘zgarishdir. Bunda ularning ranglari havo, chang, tuman ta’sirida o‘z kuchini yo‘qotadi.

Relyef lotin tilidan olingan bo‘lib, “qabariq”, “bo‘rtma” ma’nosini anglatadi. Haykaltaroshlikda tasvir tekislik yuzasidan qisman bo‘rtib chiqqan bo‘ladi. Uning barelyef va gorelyef turlari bor.

Refleks yonma-yon turgan narsalar va ularning tasviridagi rang yoki tus jihatdan bir-biriga ko‘rsatadigan aks ta’sirlaridir.

Ritm yunon tilidan olingan bo‘lib, “oqaman” degan ma’noni anglatadi. Tasviriy san’atda asarning ifodalilik vositalaridan biri hisoblanib, u tomoshabinga estetik ta’sirni kuchaytirishga yordam beradi. Suratdagi detallar, ularning shakllari, ranglari, o‘lchovlarining qaytarilib yoki almashinib kelishi ritmni hosil qiladi.

Simmetriya yunon tilidan olingan bo‘lib, “o‘lchovdosh” degan ma’noni bildiradi. Tasviriy san’atda suratdagi detal yoki narsaning o‘rtasidan vertikal o‘q chiziq o‘tkazilganda uning chap va o‘ng tomonlarining bir-biriga tengligi kuzatilsa, u simmetrik shakl hisoblanadi. Suratning chap va o‘ng yoki yuqori va pastki qismlaridagi o‘zaro tenglik yoki o‘xshashlik ham simmetriyani bildiradi. Masalan, kapalak simmetrik shaklga ega. Simmetriyaning o‘qli va markaziy turlari bo‘ladi. O‘qli simmetriyada simmetriya o‘qi bitta bo‘lsa, markaziy simmetriyada u bir nechta bo‘lishi mumkin.

Sovuq ranglar – qor, muz taftini eslatuvchi ranglar. Yashil, zangori, binafsha, ko‘k, moviy ranglar sovuq ranglardir.

Soya – narsalarning yorug‘lik tushmaydigan qismda hosil bo‘lgan ko‘rinishi. Soyalarning ikki turi bor: shaxsiy soya va tushuvchi soya.

Tasviriy sanat – borliqda mavjud va mavjud bo‘lmagan mavjudot, narsa va hodisalarni tasvirlovchi san’at turi.

Fon lotin tilidan olingan bo‘lib, “tubi”, “asosi”, “zamini” ma’nosini anglatadi. Tasviriy san’atda fon rasmning orqa qismidagi tasvirli yoki tekis bo‘yalgan qismdir.

Xromatik ranglar yunon tilidan olingan bo‘lib, “rang”, “bo‘yoq” ma’nosini anglatadi. Ular qatoriga oq, qora, kulrangdan tashqari barcha ranglar kiradi.

Shtrixlash – qalam yoki shu kabi ish qurollari bilan rasm chizganda qo‘llanadigan uslub.

Eskiz fransuz tilidan olingan bo‘lib, “xomaki tasvir” ma’nosini anglatadi. Rangtasvirda u bo‘lg‘usi asarning kichik o‘lchovdagi xomaki ishlangan namunasi. Unda surat kompozitsiyasi, mazmuni, ranglari, asosiy detallar tasvirlanadi.

Yarim soya – turli-tuman mavjudot va narsalar tanasidagi,shuningdek, ularning tasviridagi yorug‘ va soyalari o‘rtasidagi qism.

Haykal haykaltaroshlik mahsuli bo‘lib, loy, tosh, yog‘och, temir, mum kabi materiallardan hajmli qilib ishlanadi. Haykallarning dumaloq va relyefli turlari bo‘ladi.

Haykaltaroshlik – tasviriy san’atning bir turi. Bunda odam, hayvon va qushlarning hajmli tasviri turli materiallar yordamida ishlanadi. Haykaltaroshlikda ko‘pincha tosh, yog‘och, loy, gips, metall kabi materiallardan foydalaniladi. Uning mayda plastika, dastgohli haykaltaroshlik, mahobatli haykaltaroshlik, istirohat bog‘i haykaltaroshligi, dekorativ haykaltaroshlik kabi turlari bor.




Tasviriy san’at fanining baholash mezoni

Tasviriy san’at fani o‘quvchilarda badiiy estetik madaniyat, ijodkorlik tafakkuri va kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda alohida ahamiyatga egadir. Tasviriy san’at fanini o‘qitishda baholashning yangi tizimi joriy etilib, bunda o‘quvchilarning bilimi va amaliy ko‘nikmalari munosib baholanishi ko‘zda tutilgan.





6-sinf uchun baholash vositalari



6-sinf uchun baholash mezoni

Ko‘nikmalar	O‘quv maqsadlari
Komponovka	6.1.1. Tasvirni qog‘oz yoki tekislik yuzasiga to‘g‘ri joylashtira oladi.
Proporsiya	6.2.1. Tasvir ishlashda nisbatni to‘g‘ri belgilaydi.
Estetika	6.3.1. Tasvir ishlash jarayonida mavzuga tegishli barcha qoidalarni to‘g‘ri qo‘llaydi.
Tasvirni ishlash	6.4.1. Tasvir ishlash jarayonini to‘g‘ri boshlay oladi.
	6.4.2. Tasvir ishlash ketma-ketligini biladi.
	6.4.3. Tasvirni to‘liq ishlay oladi.

Baholash shkalasi. 5 ballik baholash shkalasi saqlab qolinadi. Har bir shkalaga mos baholash mezonlari sinovdan o‘tkaziladi.

Belgilangan vazifa	To‘g‘ri bajarilgan vazifalar soni	Noto‘g‘ri bajarilgan vazifalar soni	Baholash
5	**5**	**-**	**5**
5	**4**	**1**	**4**
5	**3**	**2**	**3**
5	**2**	**3**	**2**
5	**1**	**4**	**1**

6-sinf tasviriy san’at fanidan mavzular bo‘yicha baholash mezonlari

Sana			
Mavzu			
O‘quvchining F.I.O			Jami to‘plangan ball
1-vazifa	Tasvirning qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirilishi	1	
2-vazifa	Chizish ketma-ketligini to‘g‘ri bajarish	1	
3-vazifa	Topshiriqni bajarish jarayonida o‘quv qurollaridan to‘g‘ri foydalanish	1	
4-vazifa	Topshiriqlarni mustaqil bajara olish	1	
5-vazifa	Yakunlangan ishni namoyish etish va tahlil qilish	1	

O‘quv nashri

TASVIRIY SAN’AT
6
O‘QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO‘LLANMA

(Ta’lim o‘zbek va qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun)

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Musahhih *Xurshidbek Ibrohimov*
Sahifalovchi-dizayner *Alimardon Aqilov*

Bosishga 16.12.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$.
Arial garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i __. Nashriyot-hisob tabog‘i __.
Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ___.